M.A. Ismanova

# MAKTABGACHA TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA RAHBARNING O'RNI



Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач______________

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

M.A.Ismanova

# MAKTABGACHA TA’LIMNI TASHKIL ETISH VA RAHBARNING O‘RNI

O‘quv qo‘llanma

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

CHIRCHIQ – 2022
“Book trade 2022”

УДК-373
КБК-51.28
М-18

**M.A.Ismanova, / Maktabgacha ta'limni tashkil etish va rahbarning o'rni** / O'quv qo'llanma. – Toshkent: «Book trade 2022», 2022. – 124 bet.

Ushbu o`quv qo'llanma Maktabgacha ta'limni tashkil etish va rahbarning o'rni fani bo'yicha yaratilgan bo'lib, unda mazkur fanning o'quv dasturi, ishchi dasturi, ma'ruza mashg'ulotlarining amaliy, seminar mashg'ulotlarining jamlangan holda tayyorlangan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining bakalavr ta'lim yo'nalishi kurslari uchun mo'ljallangan

Tuzuvchi: M.A.Ismanova

Taqrizchilar:

A. A. Abdullayev - "Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim" fakulteti Maktabgacha ta'lim kafedrasi mudiri, dotsent

T. L. Xurvaliyeva – Nizomiy nomidagi TDPI doktoranti p.f.n.dotsent

ISBN 978-9943-9240-2-4

© M.A.Ismanova, 2022
©«Book trade 2022», 2022



## MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Chorraxa metodi

**Metodning maqsadi**: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakterdagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammoning ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini èzma va og'zaki shaklda tizimli baèn etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

Tinglovchilarni 4-5 ta kichik guruhlarga bo'lib, chorraxaning tutashgan markazida, ya'ni o'rtasida mavzuga oid topshiriq olinadi.

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilaridagi o'z g'oyalaridan umumiy g'oyalar, xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

Har bir tinglovchi o'z g'oyalarini ―G'oyalar g'ildiragi‖ ga bitta mavzu asosida baèn qiladilar. Barcha g'oyalar umumlashtirilib, muhokama qilinib, umumiy g'oyalar majmuasi yaratiladi.

―Kollaj‖ so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, qirqib èpishtirish ma'nosini bildiradi. Pedogoglar biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan maslahatlashib, o'z fikrlarini turli xil shakllar èki rasmlarni qirqib èpishtirish orqali baèn etadilar.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosidamuhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Topshiriqlarni qirqib èpishtirish orqali fikrini etkazib berish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi èki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin.

―Charxpalak‖ metodi

—Charxpalak metodi bu-pedagogik strategiya bo'lib, u tinglovchilarni biron bir mazmunni chuqur o'rganishlariga ėrdam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha ėki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval tinglovchilarni fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. SHuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda tinglovchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

Bu esa tinglovchilarga o'z bilimlari, tushunishlari va tasavvurlari darajasini aniqlashga ėrdam beradi.

Ushbu metod yakka, kichik guruh, jamoa bilan ishlashda qo'llanishi mumkin. Guruh holatida qo'llanilishi guruhlar fikrini to'plash va ularni bir tizmdagi qurilmaga keltirish mumki

**"YUMALOQLANGAN QOR" METODI-** bu metod har qanday tushunchaga mumkin qadar aniqroq ta'rif topishga imkon beradi, tinglovchilarga guruhlarda ishlashni, boshqalar fikriga quloq solishni va umumiy nuqtai nazarni ishlab chiqishni o'rgatadi. Guruhlardagi ish tugashiga ko'ra, har bir guruh vakillari navbati bilan o'z plakatlarini xona taxtasiga ilib qo'yadi va o'qiydi. Berilgan savollarga javob beradi.

Keyingi navbat o'qituvchiga beriladi. O'qituvchi barcha guruhlar ishtirokidagi umumiylikni topishga ėrdam beradi.






**O'zbekistonda Maktabgacha ta'limning vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari. Ijtimoiy maktabgacha ta'limni tashkil etish vazifalari.**

**REJA**:

1. Maktabgacha ta'limning mazmun mohiyati va ta'lim tizimida tutgan o'rni 2. Ijtimoiy maktabgacha ta'limni tashkil etish vazifalari.
3. O'zbekistonda maktabgacha ta'limning vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari.

***Tayanch tushunchalar:*** *ijtimoiy, taraqqiyot, rivojlanish, ta'lim , tarbiya, komil inson.*

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich turi hisoblanadi. hamda O'zbekiston Respublikasini Ta'lim to'grisida «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'grisidagi qonun talablar asosida tashkil etildi. Maktabgacha ta'lim soglom, har tomonlama etuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazm ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim bola 6-7 yoshga yetguncha oilada, hamda davlat va davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha bolalar muassasalarida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim, bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yilladigan Davlat talablariga muvafiq soglom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning hamma turlari bilan mustaxkam alohida olib boriladi «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida – oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, hamda jamiyat va davlat muxofazasida bo'lish xuquqiga ega» deyilgan. SHuningdek, voyaga yetmaganlar – davlat ximoyasidadir – deb uqtiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi oila va jamiyatning bolalarga gamxurlik qilish, milliy va mintaqa xususiyatlarini xisobga olgan xolda har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash va rivojlantirishga bo'lgan extiyojini qondirish maqsadida tashkil etiladi.

Ijtimoiy maktabgacha ta'lim – bu Davlat tomonidan tashkil etiladigan Davlat muassasalari bo'lib, unda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim va tarbiya beriladi.

O'rta Osiyoda XIX asrning 80-90yillariga kelib, bolalar maktabgacha ijtimoiy tarbiyasi g_oyalari yetila boshlandi. O_sha davrda taraqqiyparvarlik kayfiyatidagi mahalliy ziyolilar mehnatkash ayollarning og_ir ahvolini va bolalar nazoratsizligini ko_rib, ularning qismatini yengillashtirishga intila boshladilar. Bu

ziyolilar vakillari 1872 yilda Turkistonda tuzilgan —Jamiyati xayriyal tarkibiga kirgan edilar. —Jamiyati xayriyal tashkiloti tomonidan miskinlar uylari, tunash joylari, tug_ruq joylari bilan bir qatorda ota-onasi bo_lmagan bolalar uchun yetimxonlarni tashkil etdi.

Bu yetimxonalar oz sonli bolalarni butun Turkistonda taxminan 150-200 kishini o_z ichiga oldi. Ushbu yetimxonalarda yasli yoshli bolalardan tortib, maktab yoshidagi bolalarni ham qamrab olgan.

1896 yilda Turkistonda vositalar kengashi kambag_allarning bolalari uchun —yaslallar deb ataladigan muassasalarni tuza boshladi. Yaslalarga atak-chechak qila boshlagan bolalar qabul qilingan va maktabga ketgunga qadar tarbiyalangan bolalar kun bo_yi bolalar yaslada bo_lishar va uch marta ovqatlantirilar edi. Yasla ishlarini nazoratchi ayol boshqargan, xizmat qiluvchi xodimlar ham bo_lgan. Bu muassasada bolalarni duolar o_qishga (duogo_ylikka) qat'iyat bilan o_rgatilgan. Shuningdek bolalarni oddiy o_qishga, yozishga, sanashga, to_qishga, to_r taqishga, tikishga va boshqa hunarlarga o_rgatilgan. Butun o_lka bo_ylab shunday yaslalardagi bolalar soni 50-60 boladan oshmas edi.

Turkistonda kambag_allarning bolalari uchun Toshkentda, Samarqand, Sirdaryo, Namanganda yetimxonalar tashkil etilgan. Sirdaryo, Samarqand, Toshkent shag_rida bolalar bog_chalari kabi ayrim bog_chalar yuzaga keldi. 1909-1910 yillarda va keyinchalik xususiy bog_chalar paydo bo_ldi: bu bog_chalarda 6-yoshdan boshlab bolalarni asosan gimnaziyaga o_qishga tayyorlanar edi. Bunday bolalar bog_chalari xususiy uylarda ochilar va tamomila ota-onalar ta'minotida bo_lgan. Ma'lumotga ega bo_lgan va chet tillarini biladigan o_qimishli xonimlar tarbiyachi edilar. Ammo mazkur bolalar bog_chalari faqat badavlat ota-onalarning ehtiyojini qondirgan edi. Davlat tomonidan ijtimoiy bolalar bog_chalari faqat 1917 yildan keyingina yalpi tarzda tashkil etildi.

Ijtimoiy maktabgacha ta'limning vujudga kelishi asosan 1917-1918 yillardan keyingi davrlarga to_g_ri keladi. Bunda xalq komissarligining maktabgacha tarbiya bo_yicha 1917 yil 20 noyabrdagi deklaratsiyasi «Bolalar himoyasi Sovetining tuzilishi mamlakatda Davlat tomonidan maktabgacha tarbiya muassasasalarini ko_plab ochilishi maktabgacha tarbiya bo_yicha xodimlarni tayyorlash vazifalarini qo_yadi. Xotin-qizlarni mamlakatimizning xo_jalik va siyosiy hayotiga etish ishlari bolalar bog_chalari tarmoqlarini kengaytirish va qishloqda dastlabki bolalar bog_chalarini tashkil etishda qadam qo_ydi. 1918 yilda Turkiston Xalq komissarligi qoshida maktabgacha tarbiya bo_limi tashkil etiladi. Bu bo_limning vazifasi joylarda katta tashkiliy



ishlarni – bolalar bog_chalari uchun joy qidirish va ularni kerakli jihozlar bilan ta'minlash, tarbiyachilar tanlash va ota-ona o_rtasida pedagogik tashviqot qilishdan iborat edi.

Maktabgacha tarbiya butun xalq maorifi tizimining birinchi bo_g_ini va tarkibiy qismi bo_lib qoldi. 1919 yilda qabul qilingan Davlat dasturlarida xalq maorifi sohasida: Ijtimoiy tarbiyani yaxshilash va xotin-qizlarni ozod qilish maqsadida maktabgacha tarbiya muassasalari tarmoqlarini vujudga keltirish haqida fikr yuritildi. Davlatning bu umumuiy siyosiy yo_li asosida Turkiston ASSR Maorifi Xalq Komissarligi oldida davlat maktabgacha tarbiya muassasalari tarmoqlarini vujudga keltirish, metodik ko_rsatmalar ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash va boshqa ma'suliyatli vazifalar paydo bo_ldi. Turkistonda dastlabki davlat bolalar bog_chalari 1918 yilning ikkinchi yarmida tashkil etila boshlandi. 1918 yil 20 oktyabrda Turkiston Maorifi Xalq Komissarligi qoshida Respublikadagi maktabgacha tarbiya sohasida barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun ma'muriy organ sifatida maktabgacha tarbiya bo_limi tashkil qilindi. Xuddi shu yilda viloyat xalq maorifi bo_limlarining qoshida maktabgacha tarbiya kichik bo_limlari tashkil qilingan. Bu tadbir Respublikada maktabgacha tarbiyaning jonlaniga yordam berdi. Maktabgcha tarbiya bo_limlarining faoliyati uch asosiy yo_nalishda:

1. Bolalar bog_chalarini ochish, ularni binolar, mebel va jihozlar bilan ta'minlash;

2. Maktabgacha tarbiya xodimlari, shu jumladan maxalliy, milliy vakillaridan kadrlar tayyorlash;

3. Ota-onalar o_rtasida tashviqot tushuntirish ishlarini olib borishdan iborat edi.

Maktabgacha tarbiya bo_limi to_g_risilda Nizom qabul qilindi va unda bo_lim 3-yoshdan 8-yoshgacha bo_lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiya muassasalariga boshchilik qiladi, mavjud muassasalar ishining borishini kuzatadi, yangi bolalar bog_chalari, yaslilar, bolalar uylari, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun umumiy yotoqxonalar, bolalar yozgi koloniyalari ochildi, bolalar bog_chalari rahbarlari, enagalar va kadrlar tayyorlash maqsadli kurslari tashkil qilindi-deyiladi.

O'zbekistonning tub joy aholisi bolalarini maktabgacha tarbiya muassasalariga jalb etish uchun kurash juda murakkab va qiyin sharoitda olib borildi. 1918 yili Toshkentning sobiq eski shahar qismida o_zbek bolalari uchun 4-ta bog_cha ochishga muaffaq bo_lindi.

Birinchi bog'cha – Shayxontoxur dahasida Hasanova - mudiri :

Mahsuma Qorieva va Robiya Abdurashidova tarbiyachi bo_lib faoliyat ko_rsatgan.

Ikkinchi bog_cha - Xo_ja ko_chasida Anvar Yausheva mudiri bo_lgan.

Uchinchi bog'cha - Ko_kcha dahasidagi Langar ko_chada ochilgan.

To'rtinchi bog_cha - Beshyog_och dahasida ochilgan bo_lib, bunda tarbiyachi Qodirxonov mudirlik qilar edi.

1920 yilda Turkiston Respublikasida 71 ta bolalar bog_chasi, shu jumladan, mahalliy aholi bolalari uchun 16 ta bog_cha va 12 ta bolalar maydonlari tashkil etilib, bulardan 4 tasida o_zbek va boshqa mahalliy millatlarning bolalari tarbiyalana boshlandi. O_sha davrda maktabgacha tarbiya muassasalarida hammasi bo_lib 6394 bola tarbiyalanar edi. 1921 yilga kelib bolalar bog_chalarining soni 105 taga , shu jumladan, mahalliy millatlarning bolalari uchun bog_chalar 32 taga yetdi. Bolalar bog_chalarida tarbiyalanuvchilarning soni qariyb 8000 kishiga yetdi, ulardan 2000 dan ko'prog'i millatlarning farzandlari edi. Ulug_ vatan urush yillarida O'zbekistonda bolalar bog_chalari va bolalar maydonchalarining tarmog_i deyarli ikki barobar kengaydi.

***Maktabgacha ta'lim bo„yicha tarixiy hujatlar***

Maktabgacha ta'lim tizimi bo_yicha asosiy ish hujjatlari bu -1937 yil 3 mayda qabul qilingan. Bolalar bog_chalari to_g_risidagi qaroridan, «Qaramog_ida bolalar bog_chalari bo_lgan xo_jalik tashkilotlari va muassasalari zimmasiga tegishli ittifoqdosh respublikalarning sog_liqni saqlash va maorif xalq komissarliklari tomonidai bolalar bog_chalarini sanitariya qoidalari, binolarning katta-kichikligi, jihozlar, ko_rsatmali qo_llashmalar, bolalarni ovqatlantirish va ularga meditsina xizmati ko_rsatishga muvofiq qilib qurish va saqlash yuzasidan belgilangan normalarga rioya qilish vazifasi yuklansin» - deyiladi.

1944 yil 9 yanvar Xalq Komissarlari Sovetining «Bolalar bog_chalari tarmoqlarini kengaytirish va ularning ishini yaxshilash tadbirlari to_g_risidagi» qororida: Mahalliy ijroiya komissarlariga xalq komissarliklari va boshqarmalarning bolalar bog_chalarida bo_sh o_rinlar bo_lsa, shu bo_sh o_rnilardan 20% gacha bo_lgan qismini shu korxonada ishlamasa ham, yaqin shy korxonalarning bolalar bog_chasiga yaqin joyda turadigan ota-onalarning bolalari bilan to_ldirish huquqi berilsin. Bolalarni bolalar bog_chalariga yuborish xalq maorifi bo_limlari tomonidan rasmiylashtiriladi».

1935 yil «Maktabgacha ta'lim» Nizomiy nomidagi TDPU maktabgacha tarbiya pedagogika kafedrasi o_z faoliyatini boshlaydi.O_zbekistondagi ta'lim tizimidagi ulkan yuksalishlar XX asrning 50-yillariga to_g_ri keladi. Bu



yillarga kelib, maktabgacha tarbiya sohasida malakali oliy ma'lumotga ega bo_lgan kadrlar tayyorlashga kuchli ehtiyoj sezildi.

1947 yil Davlatimiz tomonidan qabul qilingan qarorga binoan 1935 yilda Nizomiy nomli TDPI tashkil etildi va xuddi shu yildan boshlab, «Maktabgacha yilda esa TDPI «Nizomiy» nomi beriladi. 70-yillik tarixiy davr mobaynida maktabgacha pedagogika kafedrasi katta ijodiy yo_lni bosib o_tdi. O_zbekistonda maktabgacha tarbiya bo_yicha oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash borasida tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik, o_quv-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishda maktabgacha pedagogika kafedrasi namunali ishlarni tashkil etdi.

1994 yil 1-yanvariga kelib 54 ming bola tarbiyalandi, davlat tamonidan 77 million so_m ajratildi. Bu yillarda O_zbekistonning bolalar bog_chalarida ko_chirib keltirilgan 16000 dan ko_proq bolalarni tarbiyalandi. Shuningdek ota – onasiz qolgan qariyb 400 bolani vasiylikka olish prinsipiga muvofiq boqib, tarbiyalab katta qilindi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang_ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog_lom va rivojlangan shaxs bo_lib shakllanishini ta'minlab, o_qishga bulgan ishtiyoqini uyg_otib, tizimli o_qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo_lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o_qishga tayyorlash, bolani sog_lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo_lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o_qishga, tizimli ta'limga bo_lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning hayoti va sog_lig_ini muhofaza qilish maktabgacha ta'lim muassasasi ham dashtatdagi tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha ta'lim muassasasiga biriktirilgan sog_liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Hayoti va sog_lig_ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi va qoidalari, maktabgacha ta'lim muassasasiga bolalarni olib kelish va olib ketish qoidalari, maktabgacha ta'lim muassasasi binolarida xavfsizlikni tashkil etishga oid talablar, maktabgacha ta'lim muassasasida yong_in xavfsizligini tashkil etishga oid talablar, hudud xavfsizligiga bo_lgan talablar




Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog_lig_ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to_g_risida Nizoml bilan tartibga solinadi.

Maktabgacha ta'lim, olinish shakli va usullaridan qat'iy nazar, quyidagi maqsadlarni o_z oldiga qo_yadi:

•Bolalarni maktabda o_qishga maqsadli va tizimli tayyorlash; •Bolalarning shaxsiy qobiliyatlari va iste'dodlarini rivojlantirish;

•Bolalarni milliy va umuminsoniy etik va madaniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolani intellektual rivojlantirish;

•Bolalarda yuqori ma'naviy va odob axloq asoslarini shakllantirish; •Bolalarning jismoniy va ruhiy sog_ligini mustahkamlash.

Maktabgacha ta'lim maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy va xayriya tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtiro ketadilar.

**Nazorat savollari.**

1.Maktabgacha ta'limni rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?

2.Maktabgacha ta'limni rivojlanishining ilmiy adabiyotlarda yoritilishi?

3.Maktabgacha ta'limni rivojlanishida Ta'lim to`g`risidagi qonunda yoritilishi yoritilishi?

4.Maktabgacha ta'lim hayotini tashkil etishda qonun hujjatlarining ahamiyati?

5.Maktabgacha ta'lim tizimini tashkil etishning huquqy kafolatlari?

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.**

1. O'zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi , -T.:O'zbekiston. 2012 .
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. , T.:O'zbekiston. 1997.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, -T.:O'zbekiston. 1997.
4. O_zbekiston RespublikasiMaktabgacha ta'limni tizimini 2030 yilgacha



rivojlantirish Konsepsiyasi, -T.:O_zbekiston. 2019.
5. Xasanboyeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi T.: Ilm ziyo 2012
6. Sodiqova Sh. AMaktabgacha pedagogika T.: Tafakkur bo`stoni 2013

**XORIJIY DAVLATLARIDA VA O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING RIVOJLANISHI. (2 SOAT MA'RUZA)**

**Reja:**

1. Maktabgacha ta'limni rivojlantirish bo'yicha jahon tendentsiyalari va xorijiy tajribalar.
2. Maktabgacha ta'limning asosiy mazmuni, maqsad va vazifalari.

***Tayanch tushunchalar***: kognitiv, kommunikativ, —xanllar, jamoaviy ong, ijtimoiy mas'uliyat, differentsiallashgan ta'lim, postindustrial tsivilizatsiya, akademik konglomeratlar, kontseptsiya, kontseptual asosi, kompetentsiya, [illegible] xulq-atvor, —pedagogik intuitsiyal, emperik bilimlar, altruistik, [illegible] va akmeologik yondashuvlar.

**1. Maktabgacha ta'limni rivojlantirish bo'yicha jahon tendentsiyalari va xorijiy tajribalar.**

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan olda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv metodik majmualarniishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'lim muassasalarining rahbar va muassasalarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari [illegible] masalalar sirasiga kiritilmoqda. SHu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2016 yil 29 dekabrdagi PQ- 2707-sonli, «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-son qarorlari, «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198- sonli Farmoyishi shular jumlasidandir.

Xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini bir qator davlatlar misolida ko'rib chiqamiz.

Yaponiya - juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog'liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so'nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash siyosati eng muhim o'rin tutadi.

**Maktabgacha ta'lim tizimi**

Maktabgacha ta'limga Yaponiyada katta e'tibor beriladi, chunki psixologlarning ta'kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70% ni, qolgan 30% ni butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi - ularning hayotlarining maqsadlaridir.

Yaponlar bolaning erta voyaga yetishi tarafdoridirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg'u beradi. Masalan, 1 yoshda - o'ziga ishonch hissini uyg'otish, 2 yoshda - amaliy san'at qo'l mehnatini ko'rsatish, 3 yoshda - burch hissini tarbiyalash, 4 yoshda - yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o'rgatish, 5 yoshda - liderlik hislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o'rgatish. Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O'g'ilga oilaning bo'lajak tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadilar. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlaydilar.

Yaponiya bog'chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruhlar - —xanllarga bo'ladi. Bu bolalarga bog'chada —o'z ish o'rnil ajratiladi, ular o'z xanlariga nom tanlaydilar. SHu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o'rgatadilar. Bu guruhdagi har bir bola guruhda o'z o'rniga ega bo'lishi lozim. Bunday xanlar keyingi ta'lim bosqichida ham qo'llaniladi. O'rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko'nikish uchun har 5 oyda o'zgartirib turiladi. Yaponiya bog'chalariga 3-5 yoshdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog'chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko'nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'la olishni o'rgatishdan iborat.

Shuningdek, og'zaki nutq, so'zlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatishga ham katta e'tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o'yinlari, rassomlik kabi [illegible] ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg'otiladi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalariga 60% bolalar jalb etilgan. Boshlang'ich [illegible] erta qabul qilishga o'tish maqsadida 4-5 yoshdagi bolalarning [illegible] bolalar bog'chasiga jalb qilish ko'zda tutilmoqda.

Bolalar bog'chasi Yaponiyada vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas'uliyat [illegible] shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi-bolani maktabga tayyorlashdir. Bu [illegible] rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar o'tiladi. [illegible], u qanchalik yaxshi bo'lmasin, bolalarni o'ziga jalb qilmaydi, [illegible] jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi.

Boshlang'ich ta'lim —syogakkol deb nomlanadi. Uzluksiz ta'lim tizimi, [illegible] quyidagicha bo'lingan:

1. Boshlang'ich maktab - 6 yil.
2. O'rta maktab - 3 yil. 3. Yuqori maktab - 3 yil.

**Germaniya davlati ta'lim tizimi**

Germaniya Federativ Respublikasi 16 ta mustaqil Federativ yerlardan [illegible] iborat bo'lib, har biri shakliga ko'ra turlicha bo'lgan ta'lim [illegible] ega. Ta'lim muassasalari asosan davlat tasarrufida bo'lib, ular uchun [illegible] dasturiga tegishli bo'lgan davlat ko'rsatmalari mavjud.

Federal hukumatning xuquqlari asosiy qonunlarni qabul qilishda, [illegible] moliyalashtirish masalalarida chegaralangan. Ta'limdagi xarajatlar [illegible] quyidagilarni aytish mumkin:

[illegible] Federal Yerlar davlat umumta'lim, kasbiy o'quv yurtlarida [illegible] uchun pul barcha Federal yerlarda o'quvchilarni uydan maktabga, [illegible] uyga tashuvchi avtobuslarni o'z hisobidan beradi;

[illegible] deyarli barcha o'quvchilarga darslik va o'quv qo'llanmalarni [illegible] qismiga beriladi;

[illegible] oilalardagi o'quvchilar va talabalarga mavjud federal qonunlarga [illegible] davlat moddiy yordam ko'rsatadi.

**Maktabgacha ta'lim** tizimi Germaniya ta'lim tizimida muhim bosqich [illegible]. Maktabgacha ta'lim bolalar bog'chasida (K1'pNegdag1ep) [illegible]. Bolalar bog'chasiga 3-6 yoshdan maktab yoshigacha [illegible]. Rivojlanishdan orqada qolgan yoki yoshi mos bosqichga yetmagan [illegible] maktabgacha sinflarda (nem. ^ogNazzep) va maktablar qoshidagi [illegible] bog'chasida (nem. Vsli1k1pNegdag1ep) tahsil oladilar. Bu bog'chalar [illegible] qoidasiga ko'ra yoki maktabgacha sektorga yoki boshlang'ich

ta'lim sektoriga bo'ysinadi.

Maktabgacha ta'lim majburiy emas, lekin ko'pgina FEda rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun majburiy hisoblanadi. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalari, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasida. Germaniyada 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydilar.

Bolalar bog'chasi olmonlar boshlab bergan va ko'pgina xorijiy mamlakatlar tomonida o'rganilib, qabul qilingan muassasadir. U yuqorida ta'kidlaganimizday, davlat tizimiga emas, balki yosh avlodni qo'llab-quvvatlash muassasalari tizimiga kiradi. 1996 yildan boshlab bolalar bog'chasiga qatnash uchun xuquqiy me'yorlar ishlab chiqildi. Bolalar bog'chasiga farzandlarni berish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga qatnash uchun ota-onalardan ularning daromadiga qarab ma'lum miqdorda to'lov olinadi.

Maktabgacha bolalar bog'chasi tayyorlov sinflari va kirish guruhlari maktab ta'limining birinchi bosqichiga kiradi.

Sekin asta differentsiallashgan ta'lim tizimi, ya'ni har bir o'quvchiga uning qobiliyati va o'qishdagi turlicha yo'nalishiga ko'ra moslashuvchan yondashuv kiritilmoqda.

Umuman olganda Germaniya ta'lim tizimi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Elementar ta'lim: maktab ta'limining 1-bosqichiga tegishli bo'lib, maktabgacha muassasalar kiradi. Asosan bular bolalar bog'chalari, tayyorlov sinflari va kirish guruhlari bo'lib, bu yerlarga bolalarning qatnashishi 3 yil davomida ota-onalar xohishiga ko'ra ixtiyoriydir.

2. Ta'limning birinchi bosqichi. (RptazSHGe) boshlang'ich maktab, unga 6 yoshdan qatnay boshlaydi. O'qish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil. Bu bosqichdagi ta'limning maqsadi - bolalarga ta'limning ikkinchi bosqichidagi u yoki bu maktabda ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat.

**Janubiy koreya ta'lim tizimi**

Janubiy Koreya Respublikasi ko'plab tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortmoqda, sababi bu davlat postindustrial tsivilizatsiya

yutuqlarini egallagan Osiyo - Tinch okeani regionining noyob DavlatlariDan biridir. Koreyaliklar bajarilishi shart bo'lgan asosiy vazifa - o'z an'anaviy madaniyatini saqlash, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'z madaniy-tiyati identivlik, SHarqning an'anaviy qadriyatlari va orientirlari bilan bog'lashga intilish deb hisoblaydilar. Bu davlatning

ta'lim tizimi YuNISEF ekspertlari xulosasiga ko'ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida "eng samaralisi" deb tan olingan.

**Maktabgacha ta'lim**

Janubiy Koreyada bolalar bog'chasi umumta'lim turiga kirmaydi. Ota-onalar farzandlarini xususiy maktabgacha muassasalarga beradilar. Bu muassasalarda mashg'ulotlar koreys tilida, ingliz tilida, ba'zilarida faqat ingliz tilida olib boriladi. Bolalar bog'chasiga 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi oilalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bog'chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o'tiladi. Koreys bog'chalarida bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta e'tibor beriladi. Bolalar yoshi

orasidagi farq 3 yilgacha bo'lishi mumkin.

**Boshlang'ich ta'lim**. Janubiy Koreyada bolalar (6 yoshdan oshgan) 7 yoshdan 13 yoshgacha boshlang'ich maktabga boradilar. O'qish muddati 6 yil, majburiy va bepul.

**Kanada ta'lim tizimi**

Kanadaliklarning eng muhim yutuqlaridan biri - bu ularning ta'lim tizimidir. Ilg'or universitet va kollejlardagi ta'lim sifati juda yuqori va Kanada diplomlari butun dunyoda tan olinadi. Xalqaro reytingda Kanada ta'limi AQSHdan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Kanadaning turli provintsiyalari o'quv rejalarida o'ziga xosliklar ko'rinadi. Masalan, Kvebek, Ontario, Manitobda maktabgacha muassasada maktabga tayyorlash 2 yil, 4 yoshdan 6 yoshgacha, Albert va Britan Kolumbiyasida 1 yil. O'quv yili sentyabrning birinchi haftasidan boshlanadi va iyunning oxirgi haftasida tugaydi. Kanada maktablarida ta'limning o'rtacha davomiyligi 12 yilni tashkil qiladi. 1- 7 yoshdan bolalar boshlang'ich maktabga qatnay boshlaydi va unda 6 yil tahsil olishadi. Manitob va Ontario boshlang'ich maktablarida o'qish boshqa provintsiyalardan ko'ra 2 yil ko'p davom etadi. 12 yoshdan bolalar o'rta maktabga o'tishadi va 16-18 yoshgacha o'qishadi.

**Belgiya ta'lim tizimi**

Maktabgacha ta'lim

Belgiyada maktabgacha ta'lim (MT) 2,5 yoshdan 6 yoshgacha davom etadi. 2,5 yoshga yetganda bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasiga

berishadi, shu sababli guruhdagi bolalar soni yil davomida o'zgarib boradi. Maktabgacha ta'lim guruhlarining asosiy maqsadi: bolalarning bilish, bilim orttirish (kognitiv), kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Mashg'ulotlar o'yin shaklida olib boriladi. Maktabgacha ta'lim majburiy ta'lim dasturiga kiritilmagan bo'lsada, Belьgiyada taxminan 90% gacha bo'lgan bolalar unga qatnashadi. Ko'p hollarda maktabgacha ta'lim muassasalari boshlang'ich maktablarga uyg'unlashgan bo'ladi.

Bolalar 6 yoshga yetganda boshlang'ich maktabning birinchi sinfiga o'qishga kiradi.

**Maktab ta'limi**

Maktab ta'limi davri 2 ta - boshlang'ich va o'rta maktab bosqichiga bo'linadi. Boshlang'ich maktab, o'z navbatida, 3 ta va 2 ta sinfli bosqichdan iborat. Bu davrda bolalar arifmetika, o'qish, yozish, musiqa, tarix va ba'zi boshqa fanlardan ta'lim olishadi. Darslar 8.30 da boshlanib, 15.30 gacha davom etadi. Soat 12.00 dan 13.00 gacha tushlik uchun tanaffus beriladi. CHorshanba kuni tushlikdan so'ng, shanba va yakshanba kunlari dam olish kunlari hisoblanadi.

**Frantsiya ta'lim tizimi**

Frantsiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Frantsiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu yerda davlat maktablari, xususiy maktablar, oraliq maktablar mavjud.

Frantsiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan: kichik guruh (2-4 yosh), o'rta guruh (4-5 yosh), katta guruh (5-6 yosh). Maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo'lib, ularga Frantsiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Frantsiya boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o'qish, yozish va hisoblash malakasini berishdir. O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin juda arzonlashtirilgan



[illegible] Boshlang'ich sinflarda o'qish 5 yil bo'lib, uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi;
2. Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi);
3. Chuqurlashtirilgan bosqich.

**AQSH ta'lim tizimi**

Amerika Qo'shma shtatlarida ta'lim tizimining tuzilishi quyidagicha: bolalar 1 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari;

1-8 sinflargacha bo'lgan boshlang'ich maktablar (bunday maktablarda 6 yoshdan 13 yoshgacha o'qiydilar);

9-12 sinflardan iborat o'rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat.

Amerika Qo'shma SHtatlarida navbatdagi ta'lim bosqichi oliy ta'lim bo'lib, u 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlar hamda dorilfununlardir. AQSHda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o'quv yurtlari davlat, jamoa tasarrufida, xususiy va diniy muassasalar ixtiyorida bo'lishi mumkin.

Amerikada 3 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi bilan onalar shug'ullanadilar, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. 5 yoshdan esa «Kinder garden» deb ataluvchi tayyorlov muassasalarida ta'lim boshlanadi. Boshlang'ich maktab 6 yoshdan to 13- 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Bu boshlang'ich maktablarda umumiy savodxonlik va kasbga yo'naltirish vazifalari hal etiladi. Sinfdan-sinfga ko'chish o'quvchining o'zlashtirganlik darajasiga bog'liq. Boshlang'ich ta'lim turli shtatlarda turlicha belgilangan (4, 5, 6, 8 yil).

4. Maktabgacha ta'limning asosiy mazmuni, maqsad va vazifalari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi —2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida|| PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta'minlashda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim- tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash ishlarini izchil davom ettirish maqsad qilib qo'yildi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi ishlab chiqildi.

Ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda va ular quyidagilarda namoyon bo'lmoqda: maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining xuquqiy-me'yoriy asosi takomillashmoqda; maktabgacha ta'lim muassasalari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi turlariga o'tmoqda; nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'i kengaymoqda; ta'limning ilg'or texnologiyalari joriy etilmoqda; xodimlar malaka oshirish tizimi takomillashmoqda; qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta'lim muassasalarining muqobil shakllari joriy etilmoqda.

Maktabgacha ta'limning mazkur Kontseptsiyasi uning 2017 yilgacha bo'lgan vazifalari, strategiyasi, maqsad va tamoyillarini aniqlab beradi.




Kontseptsiyaning xuquqiy asosini quyidagi me'yoriy-xuquqiy hujjatlar tashkil etadi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, —Ta'lim to'g'risidagi Qonun, —Kadrlar tayyorlash Milliy dasturil va ta'lim sohasidagi boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. U bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga qiziqishni shakllantirish maqsadini ko'zlagan holda, olti-etti yoshgacha oilada hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladi. Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalarini tatbiq etishda jamoat va homiy tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtirok etadilar.

Maktabgacha ta'lim-bolaning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda uning jismoniy va psixik rivojlanishini ta'minlovchi, uni uzluksiz ta'limning keyingi bosqichi - maktabga borishiga zamin yaratuvchi, har tomonlama ***maqsadli*** yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayonidir.



Maktabgacha ta'lim o'zining shakl va usullaridan qat'iy nazar quyidagi *vazifalarni* bajarishi lozim:

bolalarning jismoniy va psixik sog'ligini mustahkamlash;

bolalarni milliy, umuminsoniy, qadimiy va madaniy qadriyatlarga jalb etish;

bolaning aqliy, intellektual salohiyatini rivojlantirish;

milliy an'analar va udumlar asosida yuksak ahloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirish;

bolalarni tizimli va maqsadli ravishda maktabda ta'lim olishga tayyorlash, ularning individual xususiyatlari va iqtidorini rivojlantirish.

Yuqorida bayon etilganlar shunga guvohlik beradiki, O'zbekiston Respublikasidagi maktabgacha ta'lim tizimi bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, davlat va jamiyat talablariga binoan har tomonlama rivojlantirilishini ta'minlashi lozim.

Maktabgacha yoshning xususiyati shundan iboratki, ushbu davrda [illegible] rivojlanish ta'minlanadi, natijada kelajakda har qanday [illegible] bilim, malaka, ko'nikma va faoliyatning turli ko'rinishlarini egallash uchun poydevor yaratiladi.

Ta'lim jarayoni bola shaxsiga yo'naltirilganligidan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi shaxsning rivojlanishida ijodiy va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda ta'lim- tarbiyaning usul va [illegible] tizimidan tashkil topgan hamkorlik pedagogikasi tamoyillariga [illegible] amalga oshirilishi lozim.

Pedagogik hamkorlikning asosiy holatlari-ta'limga tarbiyachi va bolaning o'zaro ijodiy hamkorligi sifatida munosabat; majburlamasdan o'qitish; [illegible] maqsad g'oyasi (bolaning oldiga murakkab maqsad qo'yiladi va uni [illegible] o'tishiga ishonch hissi singdiriladi); tayanchdan foydalanish (tayanch [illegible], o'z-o'zini tahlil qilish (bolalar faoliyati natijalarini yakka tartibda va [illegible] muhokama qilish); erkin tanlov (tarbiyachi tomonidan ixtiyoriy [illegible] bolalarning o'quv dasturini yaxshiroq o'zlashtirishlarini maqsad [illegible] belgilab o'qitish vaqtini tanlashi); guruhning ***intellektual foni*** [illegible] mazkur bosqichida ahamiyatli hayotiy maqsadlarni qo'yish va [illegible] tomonidan dasturga nisbatan kengroq bilimlar egallash); [illegible] yo'naltirilgan ta'lim, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi.

Ta'limning natijalari bolada hozirjavoblik, mehribonlik, [illegible], rostgo'ylik, haqiqatparvarlik, maqsad sari intilish, [illegible], dadillik, tashkilotchilik, mehnatsevarlik, javobgarlikni his [illegible], ziyraklik, vazminlik, mardlik, mustaqillik, ishchanlik, kuzatuvchanlik,

topqirlik kabi shaxsiy fazilatlarning o'zgarishida namoyon bo'ladi.

Ta'lim orqali inson va fuqaroning zamonaviy jamiyatga takomillashuvi hamda har tomonlama kirishuvi (qorishib ketishi) ta'minlanadi; zamonaviy bilimlar darajasiga mos keluvchi dunyo tasviri shakllanadi; dunyo darajasiga mos keluvchi shaxsning milliy va dunyoviy madaniyatga ***integratsiyasini*** zamin tayyorlovchi jamiyatning umumiy va professional madaniyati vujudga keladi; jamiyatning milliy kadrlar salohiyati ishlab chiqiladi va rivojlantiriladi. Maktabgacha ta'lim jarayonida bolaga ta'lim-tarbiya berishda shaxsga yo'naltirigan ta'lim modeli ustuvor sanaladi. SHaxsga ongli yondashishning maqsadi-shaxsni rivojlantirish, uni berilgan standart va bosim ostida —o'zgartirish emasl, balki —uni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilishldir. SHaxsiy yondashuv ta'lim jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy majburiyatlarini rivojlantirish va to'liq namoyon qilish uchun sharoit yaratishni ko'zlaydi. SHaxsiy majburiyatlar -bu shaxs tomonidan —shaxs bo'lishl ijtimoiy buyurtmasini tatbiq etuvchi ma'lum fazilatlarning namoyon etilishidir.

Pedagog tomonidan qadriyatlar orasida yo'nalishini aniqlash uning kasbiy faoliyatini belgilaydi. SHaxsga yondashuv pedagog va bolaga o'zini shaxs sifatida his qilishiga, ularning imkoniyatlarini aniqlash va namoyon etishga, o'zini anglab yetishga, jamiyat tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan o'z-o'zini anglash, o'z-o'ziga ishonish va o'zini kashf qilish usullariga imkon yaratadi.

Maktabgacha yoshda bola buyumlarning alohida yuzaki xususiyatlarini qabul qilishning yuqori cho'qqilarini egallaydi, ko'rgazmali shakldagi amaliy va aqliy vazifalarning yechimini topadi. Lekin bola hali buyumlarning ko'rinishiga ahamiyatsiz bo'ladi. Bu tabiiy hol chunki buyumlar uning uchun mavjuddir va ular bolani faqat amaliy va aqliy faoliyat ob'ekti sifatida qiziqtiradi. Maktabgacha yoshdagi bola buyumlarning mohiyatini emas, balki ularning tashqi ko'rinishi va ishlatilishiga qarab ish tutadi. Buyumlarning bizlarga qanday ko'rinishi bilan mohiyati o'rtasida katta farq bor. Buyumlarning mohiyati yuzaki emas, u shaxsiy tajriba orqasida yuzaga kelmaydi, to'g'ridan-to'g'ri qabul qilinmaydi. U ijtimoiy tashkillashtirilgan o'quv - dunyoni ilmiy anglash orqali kashf etiladi.

Tubdan o'zgartirilgan o'qitish - bola va pedagogning hamkorlikdagi tubdan o'zgartirilgan (ko'rgazmali-rivojlantiruvchi) pedagog va bola shaxsini mustaqil tarbiyalashga yo'naltirilgan faoliyati, qaysiki shaxsiy mazmunni hayotiy bo'shliqda qimmatli ahamiyatga ega bo'lgan, pedagog va bolaning universallashtirilgan tizimi.



Tubdan o'qitish quyidagi yondashuvlarni nazarda tutadi:

Ijtimoiy pedagogik yondashuv. Uning mazmuni shundan iboratki, bola tomonidan insoniyat tajribasining o'zlashtirilishini ta'minlovchi rivojlanishni amalga oshirish. Bunday yondashuv ta'lim berish jarayonini yakuniy natijaga-bola shaxsining ijtimoiylashuviga erishishga yo'naltirilgan. Uning mohiyati bola tomonidan jamiyatning ahloqiy, ma'naviy o'zgarishlarni tubdan isloh qilishdir. Bunday yondashuvda ta'lim tarbiya beruvchi vazifani bajaradi.

Gnoseologik (bilish faoliyati) yondashuv o'qitish jarayoni mohiyatini anglash jarayonidan olib chiqadi va yuzaga kelgan anglash faoliyatini modifikatsiyalaydi (variatsiyalaydi). O'qitish insonning individual rivojlanishini [illegible], qaysiki ijtimoiy qonunchilikka bo'ysunadi. SHu bilan birga u insonning o'rnatilgan tartibda individual rivojlanishi bilan birga, inson ongining [illegible] tarixiy rivojlanishiga ham bog'liqdir. O'qish umumiy va individual anglash shakllarini yaqinlashtiradi, individual faoliyatni umumiy anglash bilimga yaqinlashtiradi, bolaning shaxsiy tajribalari va o'qish va o'qitish davrida yuzaga kelgan tushunchalar orasidagi tafovutlarni chaqiradi.

Gnoseologik o'qitishning mohiyati ta'lim vazifalarini tabiq etishda o'qitilayotgan ob'ektning individuallashtirish jarayonini amalga oshirishdan iborat.

Psixologik yondashuv. Bu yondashuv uchun insonning rivojlanishi va bilimlarni o'zlashtirishini psixologik nazariy bilimlarni yuzaga olib chiqishdan iborat.

Aqliy faoliyatning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasini inobatga olgan holda (P.Ya.Galьperin, N.F.Talo'zin), o'qitish birinchi materiallashgan bosqichdan ikkinchisi, ya'ni tayanch tashqi nutq faoliyatida saqlangan bosqichga o'tadi. Undan so'ng aqliy faoliyat to'liq ichki faoliyatda amalga oshiriladigan [illegible] yuqori bosqichga o'tadi. Bunday yondashuvda o'qitishning [illegible] aqliy faoliyat shakllanishining bosqichlariga mos ravishda [illegible]. Bunday yondashuvda o'qitish o'qituvchining shaxsiga [illegible] va rivojlantiruvchi faoliyatni amalga oshiradi.

Akmeologik (grekcha so'zdan olingan bo'lib, yuqori nuqta, yuksalish, [illegible] va o'qish degan ma'noni bildiradi) yondashuv o'qitishning [illegible] yo'naltirilgan xususiyatlarini ochib beradi. Uning asl mohiyati shundan [illegible] o'qitish shaxsning hayotiy dunyosiga, pedagog va bolaning [illegible] hayoti mazmuniga bir tekisda kirib boradi. O'qitish nafaqat o'qituvchi [illegible] va pedagogning fikr va munosabatlarini uyg'unlashtirib, mazmun [illegible] o'zgartiradi, balki, o'zaro munosabatlarning yaxlit sub'ektining [illegible] bo'lishi va rivojlanishiga olib keladi. Bunda o'qitishning o'zaro tarbiya,

o'zaro ta'lim, o'zaro hamkorlik, o'zaro ijodiylikka aylanishiga omil bo'ladi

Ta'lim jarayonida uslubiy tamoyillarni tadbiq etishda quyidagi ta'lim maqsadlari mavjud: tarbiyaviy, ta'limiy, rivojlantiruvchi, amaliy.

Ta'limning tarbiyaviy maqsadi - bola extiyojlarini tarbiyalash, pedagogik nuqtai-nazarni tadbiq etish (kattalar tomonidan boshqarilayotgan jamoaviy faoliyatda bola tomonidan o'zining shaxsiy kechinmalari orqali —ahloqiy bosqichlarlni bosib o'tish yo'li).

Tarbiyaviy maqsadning mazmuni shundaki, bolada ahloqiy qadriyatlar tizimi, dunyoga hissiy-baholovchi munosabat shakllanadi.

Ta'limiy maqsad shundan iboratki, bola ta'lim jarayonida o'zining aqliy ehtiyojlarini qondirib, uni o'rab turgan haqiqatni anglab boradi.

Ta'limning tarbiyaviy, ta'limiy, rivojlantiruvchi, amaliy maqsadlari o'qitishning munosib vosita, usul va uslublarini tanlash sharti bilan tadbiq etiluvchi va uslubiy tamoyillarni belgilovchi asosiy faktor bo'lib xizmat qiladi.

Bolaning rivojlanishi va uning maktabga tayyorgarlik ko'rsatkichlari quyidagilar:

1. Jismoniy tayyorgarlik (bolaning mazmuniy jihati rivojlanishining fiziologik darajasi);

2. Psixologik tayyorgarlik (bola shaxsi tarkibining xissiy, mental (aqliy), irodaviy rivojlanish darajasi);

3. Ijtimoiy tayyorgarlik (bolaning mazmuniy jixatdan ijtimoiy rivojlanish darajasi).

Pedagogning maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rsatkichlarini belgilashda 3 ta sohani inobatga olish lozim: shaxs, faoliyat bo'yicha va refleksiv.

Shaxs sifatida tayyorgarlik - bu pedagogik tafakkur (gnostik, ya'ni aqliy qobiliyatlar - ilmiy ma'lumotlarni farqlash malakalari, amaliy faoliyatda ilmiy bilimlarni to'g'ri qo'llash, pedagogik vazifalarni malakali xal etish; pedagogik maqsadni belgilash (tashkilotchilik qobiliyatlari - o'qitish va takrorlash uchun optimal sharoit yaratish malakalari, mashg'ulotning kerakli shakllarini tanlash, vaqtni to'g'ri taqsimlash, o'quv jarayonini kerakli inventarь jixozlari bilan ta'minlash; o'z mehnatini tashkil etish, har qanday tadbirlarni rejalashtirish va o'tkazish (ertaliklar, adabiy kechalar va boshqalar); pedagogik yo'naltirilganlik (kommunikativ qobiliyatlar: ma'lum bir ta'lim olayotganlar kategoriyasi uchun hammabop shaklda ma'lumotni taqdim etish qobiliyati, vaziyatga qarab ma'lumotni berish usul va uslublarini to'g'rilash, birovni ishontira olish qobiliyati, —pedagog-pedagogl, —pedagog-ota-onal,



[illegible] —pedagog-bolal darajalarida kasbiy muloqotni savodli [illegible] jamoasida ijobiy psixologik mikroklimatni yaratish va boshqalar).

Kasbiy tayyorgarlik: pedagogik takt (intellektual mehnat bo'yicha [illegible]: oddiy standartlar va qaror uslublarini olib tashlab, yangi, [illegible] ushbu va o'z o'zidan ma'lum narsadan yuqorilarini ko'ra [illegible] muammolarni asosiy bog'liqliklarini qamrab olish; qaror qabul [illegible] bir nechta turli yo'llarini aniq ko'ra bilish va hayolan eng [illegible] tanlash; barcha masalalar xal etilib bo'lingan joyda muammoni [illegible] va mavjudligi; g'oyaviy hosildorlik; bolaning individual rivojlanish [illegible] jarayonini, innovatsion o'quv rejasini, dasturni, o'z faoliyatini [illegible] va boshqalar).

Refleksiv tayyorgarlik: pedagogik refleksiya (refleksiv qobiliyatlar [illegible] 3 turini o'z ichiga oladi: ob'ektni his etish: real haqiqat [illegible] qanday aks-sado berayotganiga, bunda qay darajada bolalarning [illegible] va ehtiyojlari namoyon bo'lishiga, —ularni pedagogik tizimning [illegible] mos kelishigal pedagogning alohida sezgirligi; me'yorni his etish va [illegible] pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari ta'sirida bola shaxsida va [illegible] sodir bo'layotgan o'zgarishlar o'lchoviga alohida sezgirlikda [illegible] bo'ladi, umuman qanday o'zgarishlar ro'y bermoqda, ular ijobiymi [illegible], qaysi belgilarga ko'ra ular haqida so'zlash mumkin; [illegible] hissi pedagogning shaxsiy faoliyati kamchiliklariga, tanqidiyligi [illegible] jarayoniga javobgarlik sezgirligi bilan ta'riflanadi).

Yuqoridagilar shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni tadbiq etishda bola [illegible] shaxsining alohida rivojlanishi emas, balki ta'lim jarayoni [illegible] sub'ektining rivojlanishi amalga oshirilishi lozimligidan dalolat beradi. [illegible] tizimi yaxlit sub'ektning rivojlanish ko'rsatkichlari [illegible] namoyon bo'ladi: bola ongida shaxsiy mazmun- mohiyatlar tizimi, [illegible] shaxsiy, hayotiy mazmun-mohiyati va ma'noviy tarkibi.

Maktabgacha ta'lim tizimining qayta tashkil etilishi - bu, [illegible] maktabgacha ta'lim muassasasiga ko'proq mos keluvchi tartibni [illegible]. Bundan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim muassasasi bola ta'lim- [illegible] davlatning asosiy talablarini qondira oladigan tashkilot sifatida qabul [illegible] kerak.

## 1.4. Maktabgacha ta'limning uslubiy ta'minoti

Bugungi kunda maktabgacha ta'limdagi muammolarni hal etish [illegible] barcha tashkilotlar, ularni bir-biri bilan hamkorlik va [illegible] amalga oshirgan holda muvofiqlashtirish qo'yilgan maqsadni [illegible] hamda samarali yechimni topishga yo'naltirilganligi ko'zda

tutiladi.

«Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-sonli qaroridagi maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha —Yo'l xaritasida ko'zda tutilgan —Sifatli o'quv-metodik va didaktik materiallar (shu jumladan, o'yinlar va o'yinchoqlar) va badiiy adabiyotlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan bosma materiallarni turli tillarda ishlab chiqishning bozori va turlarini rivojlantirish bo'limida turli imtiyoz va preferntsiyalarni taqdim qilish orqali xususiy investitsiyalarni keng jalb qilgan holda maktabgacha ta'lim uchun o'quv-metodik va didaktik adabiyotlarni tayyorlash, ekspertiza qilish va chop etish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish vazifasi topshirilgan.

Qo'yilgan maqsadni maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha Xalq ta'limi vazirligining Maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish respublika o'quv-metodika markazi, Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, O'zPFITI amalga oshiradi. Ushbu ta'lim muassasalarining faoliyatiga quyidagi xizmatlar kiradi: ilmiy, uslubiy, ijtimoiy, psixologik-pedagogik, tibbiy-gigenik, shuningdek o'quv-ko'rgazmali laboratoriyalar, tajriba-sinov maktabgacha ta'lim muassasalari.

Ilmiy xizmat nafaqat umumiy, balki O'zbekistonning ta'lim sohasiga oid bo'lgan hududiy muammolarni qamrab olgan tadqiqotlar bilan ham shug'ullanishi lozim. Bu: turli turdagi maktabgacha ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayonni tashkil etishning shakl va mazmunini ishlab chiqish, o'zbekcha-ruscha ikki tillilik (ko'ptillilik-bilingvizm) muammosi, bolalar rivojlanishi darajasining psixologik, pedagogik va ijtimoiy diagnostikasi, pedagoglarning kasbiy darajasi, oila, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim hamkorligi, ta'limning shaxsga yo'naltirilgan modelining ustuvor (bosh) tatbiq qilishning usul va texnologiyalari va boshqa bir qancha dolzarb masalalar.

Uslubiy xizmat (ilg'or tajriba va fan yutuqlarini) metodik qo'llanmalar, o'quv-metodik qo'llanmalarni ishlab chiqishni ta'minlaydi; tajriba-sinov maydonida olib borilayotgan pedagogik texnologiyalarni sinovdan o'tkazish, pedagogik tajribani o'rganish, umumlashtirish va tarqatish; pedagogik jamoa va alohida pedagoglarning yangi fikrlari; mualliflik maktabgacha ta'lim muassasalarining ochilishiga yordam berish, tarbiyachilarning uslubiy birlashmalarini tashkil etish va boshqalar.



Psixologik-pedagogik maslahat xizmati ota-onalar va bolalar bilan [illegible] qiyinchiliklarga duch kelayotgan pedagoglar uchun maslahatlar beradi, tarbiyachilarning kasbiy-shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatlarini diagnostikalashga yordam beradi, o'qitish uslubining psixik korrektsiyalashni [illegible] oshiradi, pedagogni attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha ilmiy-[illegible] tavsiyalar ishlaydi, shuningdek, psixolog uchun qo'llanmalar tayyorlaydi, alohida maktabgacha ta'lim muassasalariga boradigan bolalarning [illegible] o'tkazadi va va tezkor qabulni amalga oshiradi.

Bolalarni ilk qo'llab-quvvatlash va psixik-jismoniy rivojlanishidagi [illegible] oldini olish vasiylik bo'limi tibbiy, maktabgacha, maktab, [illegible] tashqari, psixologik, ijtimoiy va yuridik xizmat tashkilotlari bilan [illegible] va koordinatsiya ishlarini tashkil etishi lozim.

Tajriba-sinov etib tayinlangan maktabgacha ta'lim muassasalari [illegible] tajriba-sinov ishlarini, yangi dasturlar, qo'llanmalar sinovini, pedagogik [illegible] va bolalarga ta'lim-tarbiya berishning usullarini o'rganish ishlari olib [illegible].

Maktabgacha ta'lim sohasidagi ilmiy-metodik ishni muvofiqlashtirish [illegible] oliygohlarning psixologiya, pedagogika va oilaviy hamda [illegible] ta'lim kafedralarida, Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va [illegible] qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, [illegible] malakasini oshirish hududiy markazlarida Kengash tashkil [illegible].

Maktabgacha yoshdagi bolaga ta'lim-tarbiya berish ko'p jihatdan ta'limni [illegible] yoshdagi bola ruhiy xususiyatlariga javob beruvchi dasturlar, [illegible] tavsiyalar, ta'lim-tarbiya berish qo'llanmalari bilan ta'minlanishiga [illegible].

Ta'limda qo'llaniladigan ta'lim qo'llanmasi bola va kattalarning o'zaro [illegible] shaxsga yo'naltirilganligini ta'minlovchi qo'llanmadir [illegible] daftar, albomlar, flomaster, qalam, bo'yoq va boshqalar).

[illegible] dasturiy-uslubiy majmua maktabgacha ta'limga qo'yiladigan [illegible], bolalar bilan ishlashda va ularni rivojlantirishdagi asosiy [illegible] ta'minlashi lozim.

**Nazorat savollari:**

1. Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimining o'ziga xosliklarini tushuntiring.
2. Yaponiyada maktabgacha ta'lim tizimi haqida ma'lumot bering.
3. Germaniyada maktabgacha ta'lim tizimi haqida gapiring.

4. Janubiy Koreyada maktabgacha ta'lim tizimi haqida gapirib bering.

5. Kanada davlati maktabgacha ta'lim tizimining o'ziga xosliklari haqida ma'lumot bering

6. Belgiya maktabgacha ta'lim tizimidagi farqni ayting.

7. Frantsiyada maktabga tayyorlash tizimi haqida ma'lumot bering.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi —2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidalgi PQ-2707-sonli qarorining mazmun-mohiyati haqida so'zlab bering

9. Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalari haqida ma'lumot bering

## MUSTAQILLIK YILLARIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI VA ASOSIY YO'NALISHLARI.

**Reja:**

1. Mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning tamoyillar va asosiy yo'nalishlari

2. Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari.

**Tayanch iboralar:** boshqarish uslubi, tamoyil, metod, ilmiylik

Har bir sohani boshqarishda avvalambor, printsip-tamoyil, metod-usul, odil-boshqarish uslublarini bilishmiz kerak.

Printsip ya'ni tamoyil bu – biror bir yangi nazariya yoki ta'limiy fanining asosiy natijasidir.

Boshqarish usuli – bu boshqarish g'oyasi va biriktirish yo'li bo'lib, ishlarni bajarish va ishlarning talabaga karab shakllantirishga tushuniladi.

Boshqarish uslubi -bu shaxsning mustaxkam psixologik xaraktriga ega bulgan dikkat, tafakkur, idrok, sezgi, ong va boshkalar orkali boshqarishdir. Bu tushunchalar, ya'ni printsip o'zaro bir-birlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bularning hammasi kishilar o'rtasidagi munosabatlarda ko'rinadi.

Keyingi yillarda nazariya bilan amaliy boshqarish faoliyatida bir muncha klassifikatsion qarashlar yuzaga keldi. Boshqarish usulining eng muxim belgilaridan biri bu_ <u>ilmiylik</u> – xususiyatidir. Faqat ilmiy nazariya bilan qarashgina boshqaruvchi shaxsga o'zining rahbarlik mehnatiga ko'p qirrali va mazmunli ish uslubini ko'rsata bilishi zarur. Boshqaruvchi shaxs avvalo boshqarishdan oldin, albatta kerakli ilmni egallagan bo'lishi lozimdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, "Xar kimga ilmiy va texnikaviy



[illegible] ijodi erkinligi, madaniy yutuqlaridan foydalanish xuquqi kafolatlanadi" deyidi. Ilmiylik nazariya bilan amaliyot bilan bir tushunchadir. Nazariya – amaliyot bilan chambarchas bogliqdir. Amaliyotsiz nazariya kur odamni [illegible]. Amaliyot – nazariya oldida yangi vazifa va savollarni qo'yadi. Nazariya bilan amaliyotni birlashtirish natijasida <u>ilmiy asoslangan xulosalar,</u> ta'lim tarbiya ishlarini yechish, tarbiya metodikasini qayta ishlab chiqishda, [illegible] tadbirlar tashkil etish, maktabgacha ta'limni yanada yaxshilash ishiga [illegible]. Kadrlar tanlash va ularni yanada o'stirish – bu boshqarishning tashkiliy [illegible].

Kadrlarni to'g'ri tanlashda:

1. Sohibilik nuqta nazariy bilan;
2. Siyosiy – ma'naviy – darajasiga;
3. Ishga aqliy yondoshish nuqtai nazari bilan; 4. Ma'muriy qobiliyatlari [illegible] nazari bilan.

Kadrlarni ilgari surish va ularni to'gri taqsimlashning mohiyati muhimdir. Kadrlarni tanlash va ularni tarbiya etish umumdavlat xarakterga ega bo'lib, bu [illegible] hal etishni ilmiy asosda olib borish kerak.

**Ta'lim sohasida Davlat siyosatining asosiy printsiplari quyidagilar:**

1. Ta'lim va tarbiyaning insonparvar demokratik xarakterda ekanligi;
2. Ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
3. Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
4. Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning xamma uchun [illegible];
5. Ta'lim dasturini tanlashga yagona va tabakalashtirilgan yondashuv;
6. Bilimli bulish va iste'dodni ragbatlantirish;
7. Ta'lim tizimida davlat va jamoa boshkaruvini uygunlashtirish.

Bu [illegible] printsiplarga tayangan xolda Maktabgacha ta'limni [illegible].

1. Demokratik xalqparvarlik asosida, bunda O'zbekiton Respublikasi [illegible] maktabgaca ta'limi vazirlik buyruqlari asosida ishlarni tashkil [illegible].

2. Yakka boshchilik printsipi I maqsadga qaratilgan ish usuli [illegible] maktabgacha ta'lim tashkilotlari yillik ish rejasini tulik bajarishga [illegible] ish usulidir.

3. Xamkorlik printsipi: Jamoa bilan birgalikda muammolarni xal [illegible]. Uzluq xamkorlik bekorga vaqt, o'tkazmaslik, tezkorlik, [illegible], fikrlashuv natijalardir.

4. Aniqlik printsipi: Pedagogik metodik va xujalik ishlarni maqsadga

qaratilgan xolda aniq, puxta tashkil etish, kuzatish va taxlil qilishdir.

5. Xo'jalikni boshqarish printsipi. Bu sistemadagi mablaglarni tugri taksimlash ish yuritishni tugri tashkil etish va uning ustidan nazoratni tashkil etishdan iboratdir.

6. Tanqid va o'z-o'zini tanqid. Bu printsipda raxbar uz ishiga nisbatan talabchan intizomli, mehnat va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilish, bajaradigan ishlarga tanqidiy yondashuvi kuzda tutiladi.

7. Farq qilmoq printsipi. Ishdagi ijobiy va salbiy tomonlarni ko'ra olish, ilg'or ish tajribalarni ko'ra olishdir.

8. Yangilikni xis qila olish printsipi. Ta'lim sohasida o'zgarishlarni, yangiliklarni o'z ish faoliyatida qo'llay olish.

Maktabgacha ta'limni tashkil etish va unga raxbarlik qilish soxasining metodologik asosini: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Ta'lim to'grisidagi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi, Maktabgacha ta'lim to'grisidagi Kontseptsiya va Nizomda ko'rsatib berilgan maqsad va vazifalarni tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim mustaqil ravishda, o'z tashabbusi bilan o'z faoliyatiga taalluqli, agar ular qonunchilikka va pedagogik printsiplarga monelik qilmasa, xar qanday qaror qabul qilishga xaqlidir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim-tarbiyaviy ishlar sifati, bolalar va ota-onalar xuquqiga, jamiyat va davlat manfaatlariga rioya qilish uchun ma'suldir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti mexnat jamoasi xalqchilik asosida o'z-o'zini boshqarish prinpiga muvofiq uning faoliyati bilan bog'liq barcha masalalarni xal qiladi.

Ushbu mikrohududda istiqomat qiluvchi ota-onalarga bo'sh o'rin bo'lgan taqdirda maktabgacha ta'lim tashkilotini tanlash huquqi beriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining faoliyati boshqa tashkilotlar, korxonalar, tashkilotlarning normal ish sharoitlarini buzmasligi, fuqarolar xayotini qiyinlashtirmasligi va yomonlashtirmasligi zarur.

## MAKTABGACHA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH VA MOLIYAVIY TA'MINLASH

**REJA:**

1. Tashkilotni moliyaviy ta'minlash asosda rejalashtirish- iqtisodiy taraqqiyot asosi.

2. Rejalashtirishning asosiy bosqich va turlari 3. Smeta- davlat moliyaviy xujjat sifatida.

4. Maktabgacha ta'limni tashkil qilish va boshqarish tamoyillari. Tayanch



[illegible]: tarmoq, budjet , smeta, iqtisodiy taraqqiyot, ehtiyoj.

Maktabgacha ta'lim tizimini loyihalashtirish Respublika moliyalashtirish [illegible] asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti mustaqil [illegible] iqtisodiy va sotsial rivojlanish rejasini ishlab chiqadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti yo'nalishi bo'yincha faoliyat natijalariga e'htiyojini aks [illegible] va bolalarning o'rtacha yillik sonini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat [illegible] raqamlari ko'rsatkichlari, byudjet va tarmoq moliya normativlari [illegible] tashkilotni tutib turish va rivojlantirish ajratilgan byudjet va tarmoq [illegible] maktabgacha ta'lim tashkilotlari byudjet xisobiga (Boshqa [illegible] yoki shu bilan ta'minlashning tarmoq manbalari xisobiga [illegible] davlat buyurtmasi.

[illegible] bilan ta'minlashning byudjetga tarmoq normativi;

[illegible] jamg'armasi normativi daromadlarini taksimlashning birichi [illegible]

[illegible] chiqarish va sotsial rivojlanish jamg'armasi normativi;

[illegible] jamg'armasi normativi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti reja, moliya, mexnat, intizomiga va [illegible] mexnat intizomiga qat'iy roiya qilishga majburdir. Rejalashtirish. [illegible] Maktabgacha ta'lim Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisod [illegible] Moliya vazirligi, Sogliqni saqlash Vazirligi, Davlat standartlari [illegible] ishlab chiqiladi

[illegible] Moliya bolimlari rejasiga asoslanib Maktabgacha [illegible] ilmiy nuqtai nazardan davlat rejasiga asoslanib, [illegible] ta'lim vazirligining ilmiy nuktai nazarda Davlatimiz tomonidan [illegible] berilgan Qonun, qaror, direkutiv-yo'l yo'riqlari asosida rejalashtirishdir.

[illegible] tashabbuslari bilan – idora, jamoa tashkilotlari.

[illegible] tashkilot yerdan suvdan foydalanish, tabiatni muxofaza [illegible] ijtimoiy soxasini rivojlantirish, mexnat resurslaridan [illegible] soni, va maktabgacha ta'lim tashkiloti xuquqi [illegible] chiqadigan boshqa soxalari bo'yicha o'z rejasini xalk [illegible] bilan muvofiqlashtiradi.

[illegible] maktabgacha ta'lim tashkiloti **byudjet yoki tarmoq moliya** [illegible] faoliyat ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pul bilan [illegible] birligi sifatidan o'rtacha yillik xisobda bir bola [illegible] yoki tarmoq moliya normativlari vazirlik va ijoralar [illegible] tasarrufidagi tashkilotlar uchun maktabgaca ta'limi vazirligi,

moliya vazirligi, Iqtisod nistituti ishlab chiqqan metodik tavsiyalarga muvofiq ishlab chiqiladi.

M.T. tashkiloti qo'shimcha pul mablag'lari quyidagilardan shakllanadi. 1. Bajarilgan ish ko'rsatilgan xizmat uchun moddiy xarakterdagi tizimlar.

2. Davlat shirkat va jamoat korxonalari va axoli buyurtmasi buyicha tuzilgan shartnomalar.

3. Bo'sh turgan yordamchi xonalar, inshootlar, uskunalarni ijaraga berishda tushgan mablag'lar.

4. Ixtiyoriy badallardan va davlat va shirkat, jamoa korxonalari va tashkilotlaridan shuningdek, ayrim fukarolardan shungan moddiy kiymatlar. 5. Boshqa tizimlar.

Quyidagi jamg'armalar shakllanadi:

a) ish xaqi jamgarmasi va sotsial rivojlanish; b) ishlab chiqarish;

v) valyuta jamg'armasi.

M.T. Tashkiloti o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasida Maktabgacha ta'limni vazirligi Qoraqalpog'iston Maktabgacha ta'limi vazirligi tomonidan o'tkazilayotgan yagona siyosiy printsiplarga amal qiladi. Bu byudjet, banklar, ta'minotchilar va boshqa kontraktlar, shuningdek, tasarrufida turgan maktabgacha ta'limi bo'limlari, korxonalar, tashkilotlar, tashkilotlar oldidagi o'z majburiyatlarini vaqtida bajarilishi uchun ma'suldir.

**Rejalashtirish. Istiqbol va joriy turlardan iborat.**

**Istiqbol rejada** 10 yoki 5 yillarga muljallanadi. Bu maktabgacha ta'limi moliyaviy ekonomiya bo'limlarda va uzoq muddatga mo'ljallangan rejalarda aks etadi. **Joriy rejalashtirish.** Bu xar yili amalga oshiriladigan moliyaviy xujalik ishlaridir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va yuqori bo'limlarning munosabati, reja, boshqarish, Davlat korxonasi birlashmasi to'g'risidagi maktabgacha ta'limida xo'jalik mexanizmining asosiy qoidalari doirasidagi qonunning ayrim qoidalariga rioya qilish asosida ish yuritadi. Yuqori bo'lim muassassi qonunchiligida belgilangan xuquqlari doirasidagina ko'rsatma berilishi mumkin. Yuqori bo'limning tashkilot faoliyatini qonunchilikki rioya qilinishi, sotsiologik mulkining bajarilishini nazorat qiladi. Tashkilotining ishlab chiqarish va moliyaviy xo'jalik faoliyatini nazorat qilib va bajariladigan xuquqqa ega bo'lgan boshqa tashkilotlar tomonidan manfaatdor tashkilotlarni jalb qilgan hamda 1 yilda 1 marotaba kompleks ravishda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xarajat smetalari tashkilotni saqlashga mo'ljallangan mablag'ining xajmi qaysi maqsadga sarflanishi va kvartallar bo'yicha taksimlanishi belgilab beradigan asosiy xujjat xisoblanadi. Ana shu



smetaga asoslanib byudjetga bolalar tashkilotining moliyaviy extiyoji uchun pul ajratish ko'zda tutiladi va mablag' ajratiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari vazirliklar idoralar, xalk deputatlari Ijroiyahlari ko'rsatmasiga binoan ularga buysungan korxonalar tashkilotlar, xalk deputatlari tomonidan xalk xo'jaligi rejasida belgilab berilgan bolalar kontingenti doirasida tuziladi.

**Smetada** – m.t. tashkilotining barcha xarakatlari va bu xarajatlari qoplanadigan manbalar, byudjet ajratmalari va ota-onalar mablag'lari ko'rsatiladi.

Yozgi sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish uchun aloxida smeta tuziladi. Smetaning 6 bo'limi va har bir moddasi haqida tushuncha berish. Ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini aniqlashda tashkilotdagi guruhlar bolalar soni tashkilotda bolaning bo'lish vaqti necha soat ishlashiga qarab ishni turiga ham alohida e'tibor beriladi. Smeta buyicha xarajatlarini rejalashtirish bo'yicha

1-modda Ish xaqi,

2-modda Ish haqida nisbatan ajratmalar

3-modda Idora va xujalik xarajatlari.

4-modda Komandirovka va xizmat xarajatlari.

5-modda Oquv urganuv, kutubxona va uyinchoklar sotib olish. 9-modda Oziqlantirish xarajatlari,

12-modda Asbob uskuna va invertarlar sotib olib. 16-modda Bino va inshootlarning kapital remonti.

18-modda Boshqa xarajatlari.

9-modda bo'yicha taomnoma tuzish.

Bu moddada bolalarni ovqatlantirishga mo'ljallangan mablag' kiritiladi. Bu mablag'larning miqdori I ta bolaga kunlik ovqatlanish uchun belgilangan pul normasi va yil davomida ovqatlantiriladigan tushumlar soniga qarab belgilanadi. Bunda Bolalar bog'chalarining turi ishlash soati albatta xisobga olinadi. Ovqatlantirish me'yoriy sogliqni saqlash, moliya va xalq xojaligi vazirligi tomonidan belgilab beriladi. Ovqatlanishga sarflanadigan mablag' miqdorini aniqlash uchun bir bolaga kuniga sarflanadigan ovqat qiymati turli uzunlikdagi maktabgacha ta'lim va yasli guruhlari bo'yicha yosh bola kuniga kupaytirish kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotining smetasiga bog'cha xodimlarining ovqatlanishi uchun mablag' ajratish ko'zda tutiladi. Bu maktabgacha ta'limi bo'limlari, moliya bo'limlari tomonidan alohida ro'yxat bo'yicha amalga oshiriladi. Bunda xodimlar xaq to'lash xisobiga bolalar tashkilotlarida ovqatlanishlari mumkin. Smeta amal qiladigan yil va tashkilot qaysi byudjet, mablag' bilan ta'minlanishi yozib qo'yiladi.

Smetada maktabgacha ta'lim tashkilotining barcha xarajatlari va bu xarajatlar qoplanadigan manbalar: byudjet ajratmalari va ota-onalar mablag'lari ko'rsatiladi.

Yozgi soglomlashtirish tadbirlarini o'tkazish sarflari maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xarajat smetasiga kiritilmaydi. Bunday tadbirlar o'tkaziladigan hollarda ularni amalga oshirish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar uchun alohida smeta tuziladi. Shuningdek, bolalar bog'chalarida ota-onalar mablag'i xisobiga bo'yicha ham alohida smeta tuziladi.

Smeta byudjetida klassifikatsiyalangan xarajat moddalari ular Moliya vazirligini tomonidan tasdiqlangan – bo'yicha tuziladi. Smetada tashkilot kelasi yilga xisoblab chiqqan jami hamda alohida moddalar bo'yicha xarajatlar summasi joriy yilga tasdiqlangan xarajatlar summasi bilan va smeta qachon tuzilayotganiga qarab o'tgan davrdagi xaqiqiy xarajatlar miqdori bilan kiritilgan o'zgartishlar xisobga olingan holda taqqoslab keltiriladi.

Ko'rsatilgan ma'lumotlarni taqqoslashda smetani ijro etish jarayonida yuz bergan chetlanishlarni aniqlash, bu chetlanishlarning sababini topish, shu asosda kelasi yilgi xarajatlar miqdorini to'g'ri belgilash kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari smeta tuzish vaqtida yana kelasi yilgi tashkilotning ish ko'rsatkichlari (gruppa va bolalar sonining ortishi, bolalarning tashkilotda bo'lish vaqti va xokozolar) bo'yicha o'zi bo'ysungan yuqori tashkilotning ko'rsatmalariga amal qiladi. Smetada kiritilgan xarajatlar smeta blankasiga keltirilgan xisob-kitoblar bilan asoslangan bo'lishi shart.

Smetaga xisob-kitoblar bilan birga maktabgacha ta'lim tashkiloti egallab turgan bino haqida umumiy ma'lumotlar (uning kubaturasi, maydoni, istish sistemasi, vodoprovod, kanalizatsiya mavjudligi) va tashkilotning va kulamiga oid ko'rsatkichlar (gruppa bolalar soni va xokozolar) xam keltiriladi. Smetaga maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagog, meditsina va boshqa xodimlari tarifikatsiya ro'yxati albatta ilova qilinishi shart. Mazkur ro'yxat ikki nusxada tuziladi.

Smeta loyihasi tegishli ilovalar bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan belgilangan muddatga yuqori tashkilotlarga ikki nusxatda, zarur bo'lgan xollarda esa uch nusxada tuziladi.

Yuqori tashkilot maktabgacha ta'lim tashkilotining smetasini qabul qilib olgach, eng avvalo smetaning to'g'ri tuzilganligini aniqlaydi. Smetada barcha grafalar tulg'azilgan, alohida moddalar bo'yicha xarakat summalari tegishli xisob-kitoblar bilan bog'langan, binoning kuaturasi va maydoni to'g'ri



ko'rsatilgan, shuningdek, unga xodimlarning tarifikatsiya ro'yxati ilova qilingan bo'lishi kerak.

Barcha xisob-kitoblar qarab chiqilgandan, xar bir modda bo'yicha xarajatlar aniqlangandan va byudjet xisobidan qoplanadigan xarajatlar byudjetda aniq maqsadlar uchun ajratilgan summaga teng xolga keltirilgandan keyin maktabgacha ta'lim tashkilotining smeta blankasiga jami xarajatlar (alohida modda bo'yicha va hammasi), shuningdek, byudjet hamda ota-onalar mablag'i xisobiga qoplanadigan xarajatlar jami kvartallar bo'yicha tasdiqlangan taqsimotga binoan taqsimlab yozib qo'yiladi. Smeta yuqori tashkilot tomonidan qabul qilingandan keyin maktabgacha ta'lim tashkiloti xarajatlari va ota-onalardan tushadigan mablag'ni kvartallar bo'yicha taqsimlab, xisob-kitob qilib qo'yadi.

Xarajatlarni taqsimlashda ba'zi xarajatlarning mavzumiy xarakterda bo'lishi (yokilgi tayyorlash, sabzavot jamgarish, remont ishlari va x.k.) xisobga olinishi shart. Boridi-yu, bolalar sonini ko'paytirish ko'zda tutilgan bo'lsa, bu bilan bog'liq sarflar (ish xaqi, bolalarni ovqatlantirish va x.k.) tegishli kvartallar xarajatlar miqdorida o'z ifodasini topishi kerak. Smetaning bir nusxasi tashkilotga, ikkinchi nusxasi yuqori tashkilotda qoladi, uchunchi nusxasi esa markazlashgan buxgalteriyaga, qilinadi. qishloq kengashiga, moliya bo'limi va boshqalarga xavola

Smetaning tasdiqlanishi smeta blankasi yuz tomonidagi maxsus yozuvi bilan rasmiylashtiriladi. Mazkur yozuvda xarakatlarning jami summasi xodimlarning ish xaqi fondi, smeta tasdiqlangan kun ko'rsatiladi. So'ngra smetani tasdiqlangan yuqori tashkilot boshlig'i imzo chekadi. Va uning imzosi idora muxri bilan mustakkamlanadi. Smetani tasdiqlagan tashkilot unga o'zgartirish kirita oladi. Bu o'zgarishlar yuqori tashkilotning tashkilotga yuborgan maxsus yozishmasiga asosan rasmiylashtiriladi.

II. Ishlab-chiqarish ko/rsatgichlarini aniqlash.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xarajatlar xajmi asosan undagi gruppalar va bolalar soniga, xar bir bolaning bolalar tashkilotida qancha vaqt bo'lishiga bogliqdir. Bunda bolalar soni va ularning har biri bolalar tashkilotida qancha vaqt bo'lishiga oid ko'rsatgichlar turli muddatdagi (9-10 soat, 12-14 soat va 24 soat) maktabgacha ta'lim va yasli gruppalari bo'yicha alohida to'lg'aziladi. Tashkilotda sanatoriya gruppalar mavjud bo'lsa, ulardagi bolalar soni ham aloxida ko'rsatiladi..Rejalashtrilayotgan yil boshida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida smeta tuzilayotgan vaqtda xaqiqatda mavjud gruppalar miqdori va bolalarning ro'yxatda soni beriladi.

Bu yuqori tashkilot yo'llanmasi bilan tashkilotga qabul qilingan bolalarning hammasi tushuniladi. Agar joriy yil smetasida bolalar tashkilotini kengaytirish ko'zda tutilgan bo'lsa, u xolda "Yil boshida" grafasida gruppalar miqdori va bolalar sonida joriy yil oxirigacha yuz berishi ehtimol bo'lgan o'zgarishlar beriladi. o'zgarmasa "Yil oxirida" grafasiga ham yil boshidagi ma'lumotning o'zi yoziladi. Rejalashtirilayotgan yil uchun bir bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lgan kunlar soni, odatda, davomat tabelidagi ma'lumotlarga suyanib, shuningdek, o'tgan yillar rejani ijrosini analiz qilish asosida bolalarning turlicha mudat bilan bog'chada qancha vaqt bo'lganligiga qarab aniqladi.

V. Mavsumiy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini saqlashga oid sistemalarni tuzish.

Mavsumiy maktabgacha ta'lim tashkilotlarining smetalari tashkilotning qancha muddatga ochilishini xisobga olgan holda doimiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari smetalari kabi tartibda tuziladi. Mavsumiy tashkilotlarda ish xaqi fondini xisob-kitob qilgan vaqtda xodimlarning navbatdagi otpuskasi uchun yoki foydalanilmagan otpuskalariga kompensatsiya to'lash uchun mablag' ko'zda tutilishi kerak. Buning uchun xar bir oy uchun tegishli otpuska kunlari soniga k"paytiriladi.

VI. Yozgi soglomlashtirish tadbirlarini o'tkazish uchun ketadigan xarajatlar. Yozgi soglomlashtrish tadbirlari vazirliklar va idoralari tomonidan ular uchun ittifoq byudjetida sotsialmadoniy tadbirlarga ajratilgan mablah doirasida, ittifokchi respublikalarda esa respublika byudjeti doirasida amalga oshiriladi. Korxonalar qoshidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yozgi sog'lomlashtirish tadbirlari, shuningdek, rag'batlantirish fondi xisobiga ham o'tkazilishi mumkin. Yozgi sog'lomlashtirish smetasi alohida tuziladi. Bunda ovqatlantirish normalari oshiriladi, ish vaqti uzaytirilaydi ,ota-onalardan olinadigan xaq ko'paytiriladi. Bu munosabat bilan xodimlarining ish xaqi, xo'jalik xizmatlari, bolalarni ovqatlantirish uchun qo'shimcha xarakat ko'zda tutiladi.

**Nazorat savollar:**

1. Maktabgacha ta'limni rejalashtirishning asosiy bosqichlarini yoritib berish.
2. Rejalashtirishning qanday turlarini bilasiz.
3. Maktabgacha xo'jaligi rejalari loyihalarini tuzish taritbi qanday?
4. MTB – tomonidan rejalashtirish asoslari nimalardan iborat?
5. Smeta – nima?



6. Smeta xarajatlarni tuzish taritbi kanday?
7. Mavsumiy va Yozgi soglomlashtiruvchi smetalari kanday va kim tomonidan tuziladi?

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI. BOSHQARISHDA MUDIRANING O'RNI. (6 SOAT MA'RUZA)

Reja :

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish shakllari
2. Maktabgacha ta'limni tashkil qilish va boshqarishda mudiraning o'rni

Tayanch tushunchalar: boshkaruv, tashkilot, menejment, tamoyil, rahbarlik, [illegible] jarayon.

"Menejment" inglizcha so'z bo'lib, o'zbek tilida boshqaruvni tashkil etish (boshqarish, boshqaruv hokimiyati, tashkil etish), rahbarlik qilish (rejalashtirish, tartibga solish-muvofiqlashtirish, nazorat qilish) ma'nolarini anglatadi. Menejment ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun faoliyatni, ya'ni [illegible] (yoki ularning guruhlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda boshqarish usullari, shakllari va vositalari majmuidir.

Boshqacha qilib aytganda, menejment umumiy holda uyoki bu faoliyat turini tashkil etishni va unga rahbarlik qilishni, ya'ni turli xil sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning xatti-harakatlarini, munosabatlarini muvofiqlashtirish, ularning imkoniyatlari va qobiliyatlaridan to'g'ri foydalanishni tashkil etish, nazorat qilish va boshqarishni bildiradi. Menejment eng avvalo insonlarni boshqarish, ularni o'z faoliyatiga qiziqtirish, tadbirkorlikka, tashabbusga ijodiy yondashish, o'ziga ishonish tuyg'ularini shakllantirish, [illegible] bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallashiga ko'maklashish, yangilikka va ijodkorlikka chorlash, insonlarning faoliyatini boshqarish demakdir.

I. Fishman fikriga ko'ra, *ta'lim menejmenti* – bu ilmiy asosda tashkil etilgan, [illegible] pog'onaviylikka asoslangan boshqaruv: rahbar, pedagogik jamoa, bolalar jamoasi. SHunga ko'ra boshqaruvni turli xil modellar asosida [illegible] mumkin: integral model, birinchi pog'ona – pedagogik jamoa faoliyatini boshqarish;

Ikkinchi pog'ona – bolalar faoliyatini boshqarish. Bundan tashqari, olimlar ta'lim menejmentining bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini qayd etib o'tishadi.

Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

- ta'lim menejmenti —maqsadga muvofiqlikl so'zi bilan aniqlanadigan ma'naviy o'lchovga ega;

- ta'lim menejmenti – bu fan va san'at (chunki bunda insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar katta rol o'ynaydi);

- menejment mazmunida o'z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o'zaro dialektik birligi;

- ta'limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi1. Mamlakatimizda menejment fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan

olimlardan M. SHarifxo'jaev, Yo. Abdullaevlar boshqaruv o'ziga xos yuksak san'at va mahoratni talab qiluvci tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish ekanligini ta'kidlab, quyidagicha ta'rif beradilar: —*Boshqaruv* – bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidirl1. Ta'lim menejmentida boshqaruvning quyidagi turlari mavjud.

***Avtokratik rahbar*** Bunday turdagi rahbar:

➢ buyruq chiqarish, qaror qabul qilish, xodimlarga jazo berish yoki rag'batlantirishda jamoa fikirini hisobga olmaydi;

➢ o'zini jamoadan uzoq tutadi; jamoa a'zolarini bevosita muloqatda bo'lishini chegaralab qo'yadi;

➢ o'zining noo'rin harakatlarining tanqid qilinishiga chiday olmaydi;

➢ o'ziga bo'ysinuvchilarning harakatlarini keskin ravishda tanqid qilishni yaxshi ko'radi;

➢ muttasil buyruq berishga, hammani o'z istaklariga so'zsiz bo'ysindirishga intiladi;

➢ ko'p gapirishni yoqtirmaydi, lekin bo'ysinuvchilari bilan muomilada bo'lganda uning rahbarlik g'ururi balandligi, o'zini katta tutishi sezilib turadi;

➢ o'ziga bo'ysinuvchilar oldida qovog'i solingan kayfiyatda bo'ladi.

Xullas, avtokratik rahbar o'ziga bino qo'ygan, dimog'dor, o'z qobiliyati va imkoniyatlariga ortiqcha ishonadigan, hukimini o'tkazishga inti-ladigan kishilardan yetishib chiqadi.

Bunday rahbar nazoratdan chetda qolsa o'sha yerda dag'allik, takabburlik, tayziq o'tkazish, majbur qilish kabi o'ta salbiy holatlar avj oladi.

Biroq avtokratik boshqaruv usulini har jihatdan, yomon deb bo'lmaydi. Ba'zi bir hollarda bo'ysinuvchilarning madaniy darajasi, axloqi pastligi sababli avtokratik uslubini tanlab olish ham ish berib holishi mumkin.



***Liberal rahbar*** Bunday turdagi rahbar:

➢ irodasiz, tashabbussiz bo'ladi;

➢ o'z zimmasiga mas'uliyat olishni yoqtirmaydi; ➢ ishni o'z holiga tashlab qo'yadi;

➢ ishchilarga nisbatan qat'iy bo'lishdan hayiqadi; ➢ o'zini haddan tashqari ehtiyot qiladi;

➢ biron xodim bilan ham aloqani buzishni istamaydi; ➢ talabchan emas, sust nazorat qiladi;

➢ suiiste'mollarga bevosita yo'l qo'ymasa ham o'zini bilmaslikka soladi; Bunday rahbar tashqaridan ko'rsatiladigan ta'sirga moyilligi bilan ko'zga tashlanib turadi.

***Demokratik rahbar*** Bunday turdagi rahbar:

➢ boshqarish funksiyalarini jamoa fikri bilan hisoblashibamalga oshiradi;

➢ ishlab chiqarishni boshqarishga xodimlarni jalb qiladi;

➢ ularning bildirgan fikriga quloq soladi;

➢ ular bilan maslahatlashadi, ijobiy tamonlarini inobatga oladi;

➢ barcha bilan barobar va samimiy munosobatda bo'ladi, ustunligini bildirmaydi;

➢ buyruq berish yo'li bilan emas, balki ishontirish uslubida ish tutadi;

➢ buyruq rahbarlik uslubi bo'ysinuvchilarning shaxsiy tashabbusini, ijodiy faoliyatini rivojlantiradi va jamoada o'rtoqlik va ishchan muhitni yaratadi.

Boshqaruvchi qaysi boshqaruv shaklini qo'llashidan qat'iy nazar o'zining mustaqil dunyoqarashi, mustaqil fikri va quyidagilarni o'z ichiga olgan ma'naviy qiyofasi bo'lishi kerak.

Har bir sohani boshqarishda avvalambor, printsip-tamoyil, metod-usul, uslub boshqarish uslublarini bilishimiz kerak.

Printsip – ya'ni tamoyil bu - biror bir yangi nazariya yoki ta'limiy tizimning asosiy natijasidir.

Boshqarish usuli - bu boshqarish g'oyasi va biriktirish yo'li bo'lib, ishlarni bajarish va ishlarning Tinglovchiga qarab shakllantirishga tushuniladi.

Boshqarish uslubi - bu shaxsning mustahkam psixologik harakteriga tayangan diqqat, tafakkur, idrok, sezgi, ong va boshqalar orqali boshqarishdir.

Bu tushunchalar, ya'ni printsip, metod o'zaro bir-birlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bularning hammasi kishilar o'rtasidagi munosabatlarda ko'rinadi.

Keyingi yillarda nazariya bilan amaliy 6oshqarish faoliyatida bir qancha klassifikatsion qarashlar yuzaga keldi. Boshqarish usulining eng muhim belgilaridan biri bu ilmiylik xususiyatidir. Faqat ilmiy nazariya bilan qarashgina

boshqaruvchi shaxsga o‘zining rahbarlik mehnatiga ko‘p qirrali va mazmunli ish uslubini ko‘rsata bilishi zarur.

Boshqaruvchi shaxs avvalo boshqarishdan oldin, albatta, kerakli ilmni egallagan bo‘lishi lozimdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, «Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniy yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi» deyiladi.

Ilmiylik - nazariya va amaliyot bilan bir tushunchadir. Nazariya - amaliyot bilan chambarchas bog‘liqdir. Amaliyotsiz nazariya ko‘r odamni eslatadi. Amaliyot - nazariya oldida yangi vazifa va savollarni qo‘yadi.

Nazariya bilan amaliyotni birlashtirish natijasida ilmiy asoslangan xulosalar, ta‘lim-tarbiyaviy ishlarni yechish, tarbiya metodikasini qayta ishlab chiqishda, metodik tadbirlar tashkil etish, maktabgacha ta‘limni yanada yaxshilash ishiga qaraladi.

Maktabgacha ta‘limni tashkil etish va unga rahbarlik qilish sohasining metodologik asosini: O‘zbekistan Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi, Maktabgacha ta‘lim to‘g‘risidagi Konsepsiya va Nizomda ko‘rsatib berilgan maqsad va vazifalarni tashkil etadi. Maktabgacha ta‘lim muassasasi mustaqil ravishda, o‘z tashabbusi bilan o‘z faoliyatiga taalluqli, agar ular qonunchilikka va pedagogik printsiplarga monelik qilmasa, har qanday qaror qabul qilishga xaqlidir.

Makgabgacha tarbiya muassasasi ta‘lim-tarbiyaviy ishlar sifati, bolalar va ota-onalar huquqiga, jamiyat va davlat manfaatlariga rioya qilish uchun ma‘suldir.

Makgabgacha tarbiya muassasasi mehnat jamoasi xalqchilik asosida o‘z-o‘zini boshqarish prinpiga muvofiq uning faoliyati bilan bogliq barcha masalalarni hal qiladi.

Maktabgacha ta‘lim muassasasining faoliyati boshqa muassasalar, korxonalar, tashkilotlarning normal ish sharoitlarini buzmasligi, fuqarolar hayotini qiyinlashtirmasligi va yomonlashtirmasligi zarur.

**Rahbar boshkaruvi funktsiyalari:** -Rejalashtirish;

-Tashkillashtirish; -Motivatsiya;

-Nazorat (tartibga solish).

**Zamonaviy rahbar bir vaqtning o’zida:**

1. Hokimiyatga ega bo‘lgan boshqaruvchi;
2. Xodimlarni o‘ziga ergashtirish qobiliyatiga ega lider;
3. SHeriklar bilan va hokimiyatlar bilan kontakt o‘rnata oladigan, ichki va tashqi nizolarni muvaffaqiyatli bartaraf eta oladigan diplomat;



4. Yuksak axloqiy sifatlarga ega, kollektiv shakllantira oladigan va [illegible] kerak yo‘nalishga qarata oladigan tarbiyachi;
5. Zamonaviy tadbirkorlik olamida fanning ahamiyatini tushunadigan, yangiliklarni, kashfiyotlarni, ratsional takliflarni ishlab chiqarishga tezlikda tatbiq eta oladigan innovator;
6. CHuqur bilimlarga, rang-barang qobiliyatlarga, yuksak madaniyatga, haqqoniylikka, hal qila olish qobiliyatiga, kuchli irodaga, mehnatsevarlikka, barcha yo‘nalishlarda namuna bo‘la olish qobiliyatiga ega bo‘lgan oddiy odam.

**Rahbar boshkaruvi uchun zarur shaxsiy sifatlar:**

- intellekt va bilimlarning yuqori darajasi;
- adolatlilik;
- sog‘lom fikr;
- tashabbuskorlik;
- o‘ziga ishonch;
- ijtimoiylik;
- qat‘iyat;
- ma‘lum ijtimoiy-iqtisodiy status;
- ishonchlilik;
- mas‘uliyat;
- ijtimoiy faollik.

Prezidentimiz tomonidan jamiyatning faol shaxs obraziga talqin berildi. Bu jarayonlarda boshlik va rahbar qanday bo‘lishi kerak?

Uning ijtimoiy-individual, ma‘naviy qiyofasi nimalarda ifodalanishi joiz: u yetakchilik missiyasini qanday bajara oladi?

Mazkur savol zamirida modernizatsiya bo‘layotgan, XXI asrga dadil qadam qo‘ygan O‘zbekiston vatanparvar rahbarining diniy, ijtimoiy faolligining ob‘ektiv hamda sub‘ektiv jihatlari mavjuddir. Vatanparvar rahbar portretida qayd etilgan ob‘ektiv jihatlar lider rahbarlar oldiga davlat va jamiyat tomonidan qo‘yilgan ijtimoiy, ma‘naviy talablar majmuini ifoda etadi.

Shu boisdan rahbar portretining ob‘ektiv jihatlari quyidagilardan iborat:

- mustaqil fikrlash salohiyatiga egalik, xalq va davlat manfaatlari bilan uyg‘unlasha olishi;
- mamlakatning strategik yo‘liga sadoqat, zamon bilan hamnafas bo‘lish;
- mas‘uliyatli va chuqur bilimga ega bo‘lish;
- Vatanni chin dildan sevishi va uni namoyon etib turishi;
- jadal o‘zgarayotgan dunyoning harakatlantiruvchi kuchlarini teran

anglashi, ijtimoiy voqelik jarayonlarini oldindan ko‘ra bilishi.

***Rahbar imidji*** – mua‘yyan sifatlarning mujassamligi bo‘lib, shaxsning aniq o‘ziga xos xususiyatlari bilan birlashishi

Vositalari: muloqot o’rnatish, tabassum qilish, qo’l siqib ko’rishish, ismi sharifi bilan chaqirish, vizitkalar bilan almashish, do’stona munosabat o’rnatishda xajviyadan foydalanish, ko’z qarashlarda so’zlarni ifoda etish. Atrofdagilarga innovatsiyani olib kirish.

Imidji yuqori va omadli bo’lishi uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- ➢ eng asosiysi – ish joyini to’g’ri tanlash;
- ➢ doimo o’z imidjingizni saqlang;
- ➢ xatolaringizni tan olishga o’rganing;
- ➢ qalbingizga quloq soling;
- ➢ oldingizdagi to’siqlarni yengishga odatlaning;
- ➢ hamma narsani yozib boring;
- ➢ «yo’q» deyishga ham o’rganing; ➢ qonunni buzmang.
- ➢ o’zingizni va hamkorlaringizning bugungi kun talablariga javob bera oladigan imkoniyatlaringizni baholab boring.











**Nazorat savollari**

1. Menejment so'ziga ta'rif bering?
2. Ta'lim menejmentida boshqaruv turlarini izoxlab berinig?
3. Raxbar boshkaruvi uchun zarur shaxsiy sifatlarni sanab bering?
4. Zamonaviy rahbar bir vaqtning o'zida qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak?

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI USLUBCHISINING METODIK ISHLARGA RAHBARLIGI VA UNI PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISHDAGI O'RNI

**Reja**

1. Katta – tarbiyachining vazifasi, xuquqi va unga qo'yilgan talablar.
2. Katta – tarbiyachining ta'lim – tarbiyaviy va metodik ishlarga rahbarligi.
3. Pedagogik kengash – ishini tashkil etishdagi roli.
4. Ta'lim-tarbiyaviy ishlarni kuzatish va nazorat. Ilgor ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirishdagi roli.
5. Dastur talablarini bajarilishda uning rahbarligi va nazorati.

**Tayanch tushunchalar:** uslubchi, operativ masalalar, Metodik ish kompleksi, analiz, qiyosiy nazorat.

Ta'lim to'g'risidagi qonunning 4 bo'limi «Ta'lim tizimi boshqarishi» bo'limida uning 25- moddasida shunday deyiladi: Ta'lim sohasida yagona davlat tizimini amalga oshirish Davlat boshqaruv organlariga rahbarlik qilish ta'limni rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish xar bir rahbarning bosh vazifalaridan biridir. Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomda ham Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va kadrlar tayyorlash ishlarini amalga oshirish, rahbarning huquq doirasi kafolatlari belgilab berilgan.maktabgacha ta'lim ustavida (44 yil) va 1977 yilda xar bir bolalar tashkiloti tomonidan qabul qilingan ustaviga binoan katta tarbiyachining ish jarayonida huquq va vazifalari, xuquqlari aniqlab belgilab beriladi, ya'ni katta tarbiyachi, birinchidan, kamida 3 yillik o'rta maxsus va 5 yillik oliy ma'lumotiga bo'lgan yetakchi metodik jixatdan kuchli ma'naviy siyosiy ongi, dunyoqarashi keng tadbirkor, kamida 1 ta xorijiy tillarni biluvchi pedagoglardan tayinlanadi. SHuningdek, katta tarbiyachi quyidagilarni bilishi shart.



**Katta tarbiyachi:**

maktabgacha bolalar tashkilotidagi ta'lim-tarbiyaviy ishga metodik rahbarlikni amalga oshiradi;

Dastur talablarining bajarilishini ta'minlaydi va nazorat qiladi, ta'lim-tarbiyaviy ishning tog'ri uyushtirilishi uchun javobgar;

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi, pedagogik kengashda ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi; maktabgacha ta'lim tashkilotidagi metodik kabinetning ishini tashkil qiladi; bolalarning yoshlariga muvofiq pedagogik qo'llanmalar va o'yinchoqlarni tanlaydi.

Ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni tatbiq qilish, turli yosh guruhlari tarbiyachilari, shuningdek maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab ishida [illegible] izchillikni ta'minlash bo'yicha ishni uyushtiradi.

Katta tarbiyachi oliy pedagogik ma'lumotga (maktabgacha pedagogika fakulteti) ega bo'lgan pedagog tayinlanadi.

U o'z hamkasblarining xurmatini qozonishi va ularga o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlarida yordam berish uchun katta tarbiyachi qanday rahbarlik sifatlariga ega bo'lishi kerak?

Katta tarbiyachi faqat yaxshi nazariy tayyorgarlikkagina emas, balki bilimlarni amalda ko'llash ko'nikmasiga xam ega bo'lishi zarur.

Tajribali katta tarbiyachining tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondoshishi: [illegible] umumlashtira bilish, maqsadga muvofiq ishlash, xar bir tarbiyachining imkoniyat va qobiliyatlarini xisobga olishga qarab farqlanadi.

Katta tarbiyachi talablarni qo'yishda talabchan va qat'iy bo'lishi kerak. Rahbarning o'ziga buysinuvchilar bilan muloqotning emotsional-irodaviy tomonini ifodolovchi bu sifatlar rahbarlik uslubining muhim xislatini - talabchanlikni xosil qiladi. Yuksak talabchanlikni sezgirlik, xayrixoxlik, odamlarga xurmat bilan birga kushib olib borish zarur.

Talabchanlik – bu qattiqqullik degan gap emas. Buyruqlar, qattiq tanbexlar, jazolarning foydasidan ko'ra zarari ko'proq va bu odatda rahbarning kuchliligidan emas, balki zaifligidan dalolat beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim-tarbiyaviy faoliyatining samaradorligi, [illegible] ko'p jixatdan pedagoglar kollektivining jipslashganligiga, eng [illegible] butun maktabgacha tashkilot rahbari yadrosida birlik va o'zaro [illegible] mavjudligiga bogliq bo'ladi.

Tarbiyachilarning aniq intizomi va ishda uyushqoqligini ta'minlash; kollektivda jamoatchilik fikrini, tarbiyachilarning bir-birlarining kamchiliklariga [illegible] munosabatini shakllantirish, mexnat aktivligi va ijodiy ishlash [illegible] rag'batlantirish; qabul qilingan qarorlar yechimini ta'minlash kabi

sotsial – psixologik masalalarini xal qilish katta tarbiyachi uchun birmuncha murakkablik qiladi.

Xar bir yosh mutaxassis – ishini endi boshlayotgan yosh tarbiyachi maslshatlar olib turishi uchun unga murabbiy – tajribalirokqva obro'liroq tarbiyachini biriktirish lozim.

Yosh mutaxassisning kasb maxoratini egallab olishi osonlik bilan bo'lmaydi. Mana shuning uchun ham yosh pedagogni ishning ilg'or metodlari va usullarini egallashga, o'z bilimlarini doimo to'ldirib borishga, erishilganlar bilan cheklanmay, tarbiya sirlarini egallash ishtiyoqini singdirishga yo'llash katta tarbiyachining vazifasi hisoblanadi.

Katta tarbiyachining doimiy xujjatlari qatoriga guruhlardagi ta'lim-tarbiyaviy va sog'lomlashtirish ishlarini nazorat qilish daftari (jurnali) ham kiradi. Unda katta tarbiyachi uzining guruhlarda bolalarning oquv, o'yin, mexnat faoliyatlarini o'rganishga doir ishini; tarbiyachilar ishining sifatini; bolalarning dasturining turli bo'limlari bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarining analizi; bolalarning xulq-atvor madaniyati, ma'naviy-irodaviy sifatlarini, kollektivda yashash ko'nikmalarini egallaganlik darajalari va shu kabilarni aks ettiradi. Katta tarbiyachi tarbiyachilar ishidagi ijobiy momentlarni va kamchiliklarni qayd etadi, ularning qiyinchiliklari va muvaffaqiyatsizliklari sabablarini analiz qiladi hamda ishni yaxshilashning konkret yo'llarini ko'rsatadi.

Pedagogik kengash kollektiv pedagoglari fikrini ifodalovchi, bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy masalalarni kollegial ko'rib chiqadigan doimiy ishlovchi organ, metodik maxorat maktabi va ilgor tajriba minbaridir.

Maktabgacha ta'lim tashkilot mudiri pedagogik kengash raisi xisoblanadi. Pedagogik kengashga quyidagi masalalar: bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar darajasini oshirish, ularni xal qilish yo'llarini izlash; tashkilot ish tajribasiga pedagogika fanining yutuqlari va ilg'or pedagoglar tajribasini joriy qilish; tarbiyachilarning pedagoglik mahoratini oshirish, ularning ijodiy aktivligini rivojlantirish kiritiladi.

Pedagogik kengash: Maktabgacha ta'limi Vazirligi, maktabgacha ta'lim bo'yicha buyruq, nizom va boshqa normativ xujjatlarini; maktabgacha tashkilotning yillik ish rejasini; bolalar sogligini mustaxkamlash tadbirlarini; xar bir yosh guruhi bo'yicha «Ilk qadam davlat o'quv dasturi »ning sifatli bajarilishi jarayonini; ish tajribasiga joriy qilish maqsadida tarbiyachilarning ilg'or tajribalarini; maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishning aktual masalalarini, tarbiyachilarning nazariy va metodik tayorgarliklarini oshirish masalalarini va maktabgacha tashkilot faoliyatining



[illegible] masalalarini muxokama qiladi.

Pedagogik kengashlar kun tartibini belgilashda barcha qatnashchilarni [illegible] tematikning tematikaning kengligini aktualligini ta'minlash [illegible]. Faqat shundagina pedagogik kengashda ish muhiti xukm suradi, [illegible] muxokamasi sermaxsul va aktiv bo'ladi.

Pedagogik kengash tarkibiga: katta tarbiyachi, tarbiyachilar, musiqa [illegible], maktabgacha tashkilotga xizmat ko'rsatuvchi vrach, katta xamshira, [illegible] uyushmasi, ota-onalar komitetining raisi kiradi. Pedagogik kengash yig'ilishiga jamoat tashkilotlarining vakillari, maktablar o'qituvchilari, maktabgacha tashkilotda tarbiyanuvchilarning ota-onalari taklif etilishi mumkin.

Pedagogik kengash maktabgacha tashkilotning yillik ish rejasiga [illegible] va pedagoglar pedagogik kengash tomonidan tasdiqlangan reja bo'yicha ishlaydilar.

Pedagogik kengash ishning muvafaqiyat ko'p jixatdan pedagoglar [illegible] muhokamasiga qo'yilgan masala qanchalik savodli va jiddiy tayyorlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik kengashning yig'ilishi har kvartilda bir marta o'tkaziladi, [illegible] tug'ilganda navbatdan tashqari yig'ilish chaqirilishi mumkin. Muhokamaga ko'pi bilan 2-3 masala qo'yiladi, pedagogik kengash ishdan [illegible] vaqtda o'tkaziladi.

Pedagogik kengash qarorining loyihasini ma'ruzachi (MTT mudiri yoki katta tarbiyachi) oldindan tayyorlaydi.

**Ilg'or pedagogik tajribani umulashtirish.**

Tarbiyachilarning eng yaxshi tajribalarini o'rganish, barcha ilg'or [illegible] analiz qilish va amaliyotga joriy etish maktabgacha talimda metodik ishning asosi bo'lishi kerak.Tajribani o'rganish va umumlashtirish [illegible] tarbiyaviy ishlar xolatini tizimli tarzda analiz qilinishini [illegible] tutadi. Tajribani o'rganishning asosiy yo'llaridan biri guruhlarga [illegible] tarzda kirish va pedagogik jarayon xamda rejim momentlarining turli [illegible] kuzatishdir. Ana shu kuzatishlar asosida tarbiyachining ishi, bolalarning [illegible] xarakatlari va xilma-xil faoliyatlari xaqida tasavvur tarkib topadi.

Katta tarbiyachining kuzatishlari maxsus daftarida fotoyozuv, tanlab yozish [illegible] kabilar tarzida qayd etiladi.

**Pedagogik kabinetining ishi.**

Maktabgacha ta'limdagi butun metodik ishning markazi pedagogika [illegible]. Pedagogik jarayoni uyushtirish, ota-onalar bilan ishlash,

pedagogik maxoratlarini oshirish va mustaqil oqishlarini tashkil qilishda tarbiyachilarga amaliy yordam ko'rsatishdagi yetakchi rol pedagogika kabineti zimmasidadir.

Pedagogika kabineti bolalar tashkiloti an'analari jamg'ariladigan joydir. Metodistning vazifasi– jamgarilgan tajribaga «jon ato qilish», tushunarli qilish, tarbiyachilarni bolalar bilan ishlashda ularni ijodiy qo'llashga o'rgatishdir. Pedagogika kabinetida to'g'ri yo'lga qo'yilgan ish barcha xodimlarning metodik tayorgarligini oshirishga, xususan, bolalarni xar tomonlama rivojlantirish vazifalarini xal qilishga yordam beradi.

Pedagogik kabinetining asosiy vazifasi metodik yordam ko'rsatish, ularning goyaviy-siyosiy va ilmiy-metodik saviyalarining, pedagogik mahoratlarining o'sishi uchun sharoit yaratishdir. Bolalar MTTdagi pedagogika kabineti, shuningdek ilg'or pedagogik tajriba to'planadigan, umumlashtiriladigan va tarqatadigan boshlang'ich markaz hamdir. Kabinetning muxim vazifalaridan biri tarbiyachilarga o'z mehnatlarini ilmiy asosda tashkil qilishlarida yordam ko'rsatishdir. Pedagogika kabineti bu vazifalarni xal etishi uchun metodist kabinetdagi materiallar mazmuniga oshirilgan talablar qo'yishi, uni tizimlashtirish va puxta o'ylab chiqishi kerak.

Pedagogika kabineti ishining eng muxim tomonlaridan biri maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlariga mustaqil o'qishlarini yaxshilashda yordam ko'rsatishdir.

Metodika kabineti ishida katta o'rinni yosh tarbiyachi bilan ishlash egallashi kerak.

**Nazorat savollar.**

1. Katta – tarbiyachiga ta'rif bering?
2. Katta – tarbiyachining ta'lim tarbiyaviy ishlarga rahbarligini misollar bilan tushuntiring?
3. Ilg'or ish tajribalarni aniqlash usullari?
4. Pedagogik kengash nima va uni o'tkazishdagi katta tarbiyachining roli?
5. Pedagogik xodimlar bilan ishlash uslublarini yoriting?

**MTTda ta'lim tarbiya jarayonini rejalashtirish**

O'quv-tarbiyaviy jaraèn «O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha èshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari» asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'quv-tarbiyaviy jaraènni o'quv yili bo'yicha tashkil qiladi. O'quv-tarbiyaviy jaraèn guruhning kundalik ish tartibiga tayanadi va unda pedagog tomonidan rejalashtirilgan kundalik harakatlar, bolalar o'yinlari, bo'sh



[illegible] o'quv-tarbiyaviy faoliyat turlari navbatma-navbat amalga oshiriladi.

O'quv-tarbiyaviy jaraèn ta'lim va ijtimoiy ehtièjlar (salomatlik, ovqatlanish [illegible]) ehtiyojlarini qondirish maqsadida bolaning èshi va individual rivojiga [illegible] o'quv rejaga muvofiq olib boriladi. O'quv-tarbiyaviy jaraèn bola [illegible] atrofidagi muhitdan kelib chiquvchi yagona bir butun mavzuga [illegible]. O'quv-tarbiyaviy jaraènni rejalashtirish ta'lim sharoitlariga bog'liq [illegible] integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillaridan tarkib topadi.

O'quv-tarbiyaviy faoliyat guruhning kundalik ish tartibiga tayanadi va unda [illegible] tomonidan rejalashtirilgan kundalik harakatlar, bolalar o'yinlari, bo'sh [illegible] va o'quv-tarbiyaviy faoliyat turlari navbatma-navbat amalga oshiriladi.

O'quv-tarbiyaviy faoliyatda quyidagi rejalashtirish turlari mavjud:

Yillik mavzuviy;

Haftalik.

Rejalashtirishda faoliyatning maqsadlari, mavzusi, mazmuni va turlari [illegible]. Faoliyat turini tanlashda nafaqat o'quv-tarbiyaviy faoliyatning [illegible] maqsadlari, balki rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlar, faoliyat [illegible] va turlarini integratsiyalash ham hisobga olinadi.

Rejalashtirishda kun tartibini hisobga olish zarur. Kun tartibi ish sur'atini [illegible] va bolaga bir faoliyatdan boshqasiga oson o'tishda èrdam berishi lozim. [illegible] tutish joizki, o'yin maktabgacha èshdagi bolalarning asosiy faoliyati [illegible]. Kun tartibini to'zishda kunduzgi uyqu, dam olish vaqti va sayrga [illegible] vaqti hisobga olinadi.

***Yillik mavzuviy reja.***

Yillik mavzuviy rejada har bir èsh guruhi uchun oy mavzulari va hafta [illegible] aks ettiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotsi hudud èki boshqa [illegible] hisobga olgan holda o'zining yillik mavzuviy rejasini to'zishga [illegible]. Mazkur mavzuviy reja maktabgacha ta'lim tashkilotining Pedagogik [illegible] tasdiqlanadi.

***Haftalik reja***

Haftalik reja yillik mavzuviy rejaga asoslanadi va haftaning kichik mavzulari, [illegible], mazkur mavzu bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Haftalik reja barcha rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlarni belgilash, [illegible] markazlarni tayèrlash, mashg'ulotlarni hafta mavzusiga mos ravishda [illegible] yo'naltirilgan. Hafta mavzusi barcha erkin faoliyat markazlari orqali [illegible]. Haftalik rejada guruhdagi va sayr vaqtidagi didaktik va harakatli [illegible] rejalashtiriladi. Bolalar bilan olib boriladigan ishning mazmuni va [illegible] faoliyat turi (faol faoliyat / passiv faoliyat; individual faoliyat / kichik

guruhda, katta guruhda; tarbiyachi rahbarligi ostida o'tadigan faoliyat / bola rahbarligi ostida o'tadigan faoliyat) va uni o'tkazish joyi (xona ichidagi faoliyat / ko'chadagi faoliyat)ni hisobga olgan holda rejalashtirilishi kerak.

Haftalik reja xilma-xil va moslashuvchan bo'lishi lozim. Boshqacha aytganda, ob-havo o'zgarishi va bolaning qiziquvchanligini hisobga olgan holda rejalashtirilaètgan faoliyat boshqasiga almashtirilishi èki faollik vaqti biroz ko'proq èxud kamroq vaqtga mo'ljallanishi mumkin. Masalan, agar tarbiyachi bahorgi gullagan bog'ga borishni rejalashtirgan bo'lsa-yu, ob-havo juda èmg'irli bo'lsa, bu tadbirni xonada o'tkazishning imkoni bo'lgan boshqa tadbirga almashtirishi mumkin.

Haftalik reja – bu tarbiyachining ish jurnali va mashg'ulotlar konspekti. Tarbiyachining ish jurnali quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

- titul varag'i;
- guruhning iliq va sovuq davrdagi kun tartibi;
- ertalabki badantarbiya kompleksi;
- guruhda sentyabrdan avgustgacha bo'lgan ta'lim jaraènini rejalashtirish tarkibiga ertalabki suhbat, sayr, kunning ikkinchi yarmi kiradi;
- haftalik ish tahlili;
- ilovalar.

Mashg'ulotlar konspektlarida maqsadlar, faoliyatning qisqacha ta'rifi, zaruriy jihozlar ifodalanadi. Mazkur konspektlar tavsiyaviy harakterga ega va tarbiyachi tomonidan ijodiy o'zgartirilishi mumkin.

**Maktabgacha ta'lim vazirining 2019 yil 30 avgustdagi 155-sonli buyrug'i asosida tarbiyachining pedagogik hujjatlarini yuritish tartibi.**

**05 - Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi**

**05-01** O'zbekistan Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi 1-MH-son buyrug'i bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligida 3 iyulь 2018 yilda 3032-son bilan ro'yhatdan o'tgan) ―O'zbekistan Respublikasi ilk va maktabgacha ta'lim èshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari hamda O'zbekistan Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 7 iyuldagi 4-onli xay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan ―Ilk qadamI Davlat o'quv dasturi.

O'zbekistan Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan ―Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jaraènini mavzuli rejalashtirishI qo'llanmasi har bir tarbiyachi ishlaètgan guruh èshiga mos ravishda ta'minlangan bo'lishi shart.

**05-02** Tarbiyachining shaxsiy ish rejasi (Ish jurnali) Jurnalning titul



[illegible] keyingi betga tavsiyalar joylashtirilgan bo'lib, tarbiyachi bu [illegible] faoliyati davomida foydalanishi mumkin. Keyingi sahifada [illegible] joriy o'quv yilida o'z oldiga qo'ygan **asosiy vazifalari** èritiladi. [illegible] vazifalar tashkilotning dolzarb vazifalaridan kelib chiqqan holda olinadi. [illegible] tarbiyachi o'zining pedagogik salohiyatini oshirish uchun amalga [illegible] bo'lgan, markazlar faoliyatini boyitishga qaratilgan, zamonaviy [illegible], rejalashtirilgan tadbirlar, ota-onalar, pedagoglar bilan hamkorlikdagi [illegible] èritiladi.

[illegible] èshiga va MTTning ish vaqtiga qarab **kun tartibi** belgilanadi. Bir oy [illegible] **ertalabki badan tarbiya** komplekslari rejalashtirilib, 1-15 sanagacha [illegible] mashklar, 16-31 sanalarda predmetlar bilan ertalabki badan tarbiya [illegible] bajarilishiga e'tibor qaratilishi lozim. Ertalabki badantarbiya mashqlarini [illegible] daftarga èzib borish èki oldindan kartotekalar tayèrlab olish maqsadga [illegible].

Keyingi varaqlarda tarbiyachining **ta'limiy-tarbiyaviy** faoliyati aks ettirilib, [illegible] mavzusi, davr ko'rsatiladi. Ertalabki doirada bolalar bilan olib boriladigan [illegible] suhbat, o'yinlar, ertalabki badan tarbiya kompleksining tartib raqami [illegible].

**Markazlardagi faoliyatlarga o'zgartirish kiritilgan takdirda,** o'sha [illegible] nomi va mavzu, unga kerakli jihozlar èziladi. Markazlardagi faoliyatlar [illegible] holatlarda bu joy bo'sh qoladi.

**Umumiy guruh bo'lib ishlash** - bu frontal mashg'ulot bo'lib, unga nutq [illegible], matematika, savodga o'rgatish, rus va uzbek tillari, ingliz tili, jismoniy [illegible] hamda musiqa mashg'ulotlari kiradi. Tarbiyachi tomonidan mutaxassislar [illegible] kelishgan holda ushbu frontal maashg'ulotlarni o'tish vaqti belgilanadi va [illegible] tomonidan tasdikdanadi.

[illegible] tarbiyachilarga frontal mashg'ulotlarni to'liq ochib èzish, tajribaga ega [illegible] tarbiyachilarga esa frontal mashg'ulotlarni tezis sifatida èritib berish [illegible]. Frontal mashg'ulotni èzish daftari rahbariyat tomonidan tasdiqlanadi va [illegible] olinadi.

Ish jurnalining **sayr** bo'limi 5 qismdan iborat. Bu qismlarda tarbiyachi eng [illegible] kuzatilaètgan ob'ektni èritishi, ob'ektga mos bo'lgan mehnat turini, [illegible] o'yin, ixtièriy o'yinlarni rejalashtiradi. Tarbiyachi bolalarni ixtièriy [illegible] qilgan vaktda, asosiy harakat turlarini mustahkamlashga muhtoj [illegible] bolalar bilan ishlaydi va ularda sakrash, yugurish, tirmashib chiqish, [illegible], irg'itish, turli usullarda yurish va boshqa harakatlar bo'yicha olgan [illegible] mustahkamlaydi.

Ish jurnalidagi **kunning ikkinchi** bo'limi bolalar bilan yakka ishlash, badiiy adabiètlar, o'yin va faoliyatlar qismlariga bo'lingan bo'lib, unda tarbiyachi bola bilan qaysi mavzuda yakka ishlashini, o'qib beriladigan, sahnalashtiriladigan, xikoya qilib beriladigan, èd olinadigan asarlar nomini, syujetli-qoidali, ta'limiy, stol ustida o'ynaladigan, rivojlantiruvchi o'yinlar, tug'ilgan kunlar, uchrashuvlar, kug'irchok teatrlari, to'garaklar va boshka ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatlar rejalashtiriladi.

**Kechki sayrda** esa tarbiyachi kuzatish, ixtièriy o'yinlar, ota-onalar bilan suhbat qismlarini rejalashtiradi. Jurnalning davomida **bolalar faoliyatini tashkil etishdagi o'zgarishlar** bo'limi kiritilgan bo'lib, unda tarbiyachi kun davomidagi faoliyatlarda o'zgartishlar kiritgan bo'lsa, bu haqda albatta ma'lumot èzib qo'yadi. Masalan: Kun sovuq bo'lganligi uchun rejalashtirilgan ekskursiyaning o'tkazilmaganligi. Ish jurnalida ―Hafta yakuni‖ bo'limi bo'lib, u 4 qismdan iborat:

-**"Bolalar ilgari nimani bilishar edi?"** - Bu savolga tarbiyachi xafta davomida berilaètgan mavzular haqida bolalarning qanchalik tushunchalari borligini èzadi;

-**"Bolalar nimani bilishdi?"** - Savoliga tarbiyachi xafta davomida bolalar tomonidan markazlar va umumiy guruhlarda ishlash jaraènlarida olgan yangiliklarini èzadi;

-**"Bolalar nimani bilishni xoxlaydilar?"** - Bu savolga tarbiyachi bolalarda hosil bo'lgan savollar, qiziqishlardan kelib chiqqan holdagi mavzularni kiritadi;

-**"Kelgusi xaftaga goyalar"**- da esa tarbiyachi bolalar qiziqishlari va xohishlari asosida tashkil etiladigan faoliyatlarni èzadi.

Ish jurnalidagi xaftalik ish rejasining so'nggida rejaning qay holatda èzilganligi bo'yicha **maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbariyati (rahbar, metodist)ning tavsiya va ko'rsatmalari** beriladi. Bu tarbiyachiga kelgusi xafta ish rejasini tuzishda metodik èrdam bo'lib hisoblanadi.

Ish jurnali maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan tasdikdangan, imzolangan, tikilgan, muxrlangan bo'lishi shart

**Nazorat savollari**

1.Ta'lim - tarbiya jarayoni nima maqsadda rejalashtiriladi?

2. Rejalashtirishning afzalliklari nimada?

3. Tarbiyachining qanday ish hujjatlari bor va ular qanday yuritiladi?

4. Turli guruhlarda mashg'ulot jadvallari qanday tuziladi?



## MAKTABGACHA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH VA MOLIYAVIY TA'MINLASH

*Maqsad: Talabalarda* O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini [illegible] tizimi, maktabgacha ta'limni tashkil qilish va moliyalashtirish [illegible] haqida *ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.*

**Kutiladigan natija:** Talabalar O'zbekistonda maktabgacha ta'lim [illegible] rivojlanish tizimi vazifalarini, uzluksiz ta'limni tashkil etish [illegible] tamoyillarini va tashkilotni rivojlantirish yuzasidan istiqbol [illegible] belgilash bo'yicha moliyaviy vazifalarini amalga oshirishni [illegible] va amaliyoda tatbiq etish ko'nikmalari shakllanadi va faoliyatida [illegible].

**Jihoz:** Tarqatmalar, rasmlar va markerlar.

**Dars metodi:** ―6x6x6‖ metodi‖ , kichik guruhlarda ishlash metodi

**Amaliy topshiriq:**

1. [illegible] metodi orqali savol-javob o'tkazish.
2. Muammoli vaziyat **metodi**
3. [illegible] metodi asosida ―Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlanish [illegible] sxema, jadval yoki klasterlarni yaratish

Maktabgacha ta'lim tizimini loyihalashtirish Respublika xalq xo'jaligi rejasi [illegible] amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti mustaqil ravishda [illegible] va sotsial rivojlanish rejasini ishlab chiqadi. Maktabgacha ta'lim [illegible] yo'nalishi bo'yincha faoliyat natijalariga e'htiyojini aks ettiruvchi va [illegible] o'rtacha yillik sonini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qilidigan [illegible] raqamlari ko'rsatkichlari, byudjet va tarmoq moliya normativlari orqali [illegible] tutib turish va rivojlantirish ajratilgan byudjet va tarmoq [illegible] maktabgacha ta'lim tashkilotlari byudjet xisobiga (Boshqa [illegible] yoki shu bilan ta'minlashning tarmoq manbalari xisobiga [illegible] davlat buyurtmasi.

[illegible] bilan ta'minlashning byudjetga tarmoq normativi;

[illegible] jamg'armasi normativi daromadlarini taksimlashning birichi [illegible] ishlab chiqarish va sotsial rivojlanish jamg'armasi normativi;

[illegible] ajratmalari jamg'armasi normativi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti reja, moliya, mexnat, intizomiga va [illegible] mexnat intizomiga qat'iy roiya qilishga majburdir. Rejalashtirish. [illegible] Maktabgacha ta'lim Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisod

instituti, Moliya vazirligi, Sogliqni saqlash Vazirligi, Davlat standartlari tomonidan ishlab chiqiladi

**Ilmiylik printsipida** Xalq xo'jaligi rejasiga asoslanib Maktabgacha ta'lim vazirligining ilmiy nuqtai nazardan davlat rejasiga asoslanib, Maktabgacha ta'lim vazirligining ilmiy nuktai nazarda Davlatimiz tomonidan ko'rsatib berilgan Qonun, qaror, direkutiv-yul yo'riqlari asosida rejalashtirishdir. Joylarning tashabbuslari bilan – idora, jamoa tashkilotlari. Maktabgacha tashkilot yerdan suvdan foydalanish, tabiatni muxofaza qilish, qurilish, aholiga ijtimoiy soxasini rivojlantirish, mexnat resurslaridan foydalanish, xodimlar soni, va maktabgacha ta'lim tashkiloti xuquqi doirasidan tashkiriga chiqadigan boshqa soxalari bo'yicha o'z rejasini xalk deputatlari kengashi bilan muvofiqlashtiradi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti **byudjet yoki tarmoq moliya printsipi** asosida faoliyat ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pul bilan ta'minlashning xisob birligi sifatidan o'rtacha yillik xisobda bir bola olinadi. Byudjet yoki tarmok moliya normativlari vazirlik va ijoralar tomonidan o'z tasarrufidagi tashkilotlar uchun maktabgaca ta'limi vazirligi, moliya vazirligi, Iqtisod nistituti ishlab chiqqan metodik tavsiyalarga muvofiq ishlab chiqiladi.

M.T. tashkiloti qo'shimcha pul mablag'lari quyidagilardan shakllanadi.

1. Bajarilgan ish ko'rsatilgan xizmat uchun moddiy xarakterdagi tizimlar.
2. Davlat shirkat va jamoat korxonalari va axoli buyurtmasi buyicha tuzilgan shartnomalar.
3. Bo'sh turgan yordamchi xonalar, inshootlar, uskunalarni ijaraga berishda tushgan mablag'lar.
4. Ixtiyoriy badallardan va davlat va shirkat, jamoa korxonalari va tashkilotlaridan shuningdek, ayrim fukarolardan shungan moddiy kiymatlar.
5.Boshqa tizimlar.

Quyidagi jamg'armalar shakllanadi:

a) ish xaqi jamgarmasi va sotsial rivojlanish; b) ishlab chiqarish;

v) valyuta jamg'armasi.

M.T. Tashkiloti o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasida Maktabgacha ta'limni vazirligi QoraQalpog'iston Maktabgacha ta'limi vazirligi tomonidan o'tkazilayotgan yagona siyosiy printsiplarga amal qiladi. Bu byudjet, banklar, ta'minotchilar va boshqa kontraktlar, shuningdek, tasarrufida turgan maktabgacha ta'limi bo'limlari, korxonalar, tashkilotlar, tashkilotlar oldidagi o'z majburiyatlarini vaqtida bajarilishi uchun ma'suldir.

**Rejalashtirish. Istiqbol va joriy turlardan iborat.**



**Istiqbol rejada** 10 yoki 5 yillarga muljallanadi. Bu maktabgacha ta'limi moliyaviy ekonomiya bo'limlarda va uzoq muddatga mo'ljallangan rejalarda aks etadi. **Joriy rejalashtirish.** Bu xar yili amalga oshiriladigan moliyaviy xujalik ishlaridir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va yuqori bo'limlarning munosabati, reja, boshqarish, Davlat korxonasi birlashmasi to'g'risidagi maktabgacha ta'limida xo'jalik mexanizmining asosiy qoidalari doirasidagi qonunning ayrim qoidalariga rioya qilish asosida ish yuritadi. Yuqori bo'lim muassassi qonunchiligida belgilangan xuquqlari doirasidagina ko'rsatma berilishi mumkin. Yuqori bo'limning tashkilot faoliyatini qonunchilikki rioya qilinishi, sotsiologik mulkining bajarilishini nazorat qiladi. Tashkilotining ishlab chiqarish va moliyaviy xo'jalik faoliyatini nazorat qilib va bajariladigan xuquqqa ega bo'lgan boshqa tashkilotlar tomonidan manfaatdor tashkilotlarni jalb qilgan hamda 1 yilda 1 marotaba kompleks ravishda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xarajat smetalari tashkilotni saqlashga mo'ljallangan mablag'ining xajmi qaysi maqsadga sarflanishi va kvartallar bo'yicha taksimlanishi belgilab beradigan asosiy xujjat xisoblanadi. Ana shu smetaga asoslanib byudjetga bolalar tashkilotining moliyaviy extiyoji uchun pul ajratish ko'zda tutiladi va mablag' ajratiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari vazirliklar idoralar, xalk deputatlari kengashlari ko'rsatmasiga binoan ularga buysungan korxonalar tashkilotlar, xalk deputatlari tomonidan xalk xo'jaligi rejasida belgilab berilgan bolalar kontingenti doirasida tuziladi.

**I. Mavzu yuzasidan topshiriq**

Savol-javobl asosida mavzuga doir quyidagi savollarga javob qaytaring

1. Maktabgacha ta'limni rejalashtirishning asosiy bosqichlarini yoritib bering.
2. Rejalashtirishning qanday turlarini bilasiz.
3. Xalk xujaligi rejalari loyixalarini tuzish taritbi kanday? MTB – tomonidan rejalashtirish asoslari nimalardan iborat?
4. Smeta – nima?
5. Smeta xarajatlarni tuzish taritbi qanday?
6. Mavsumiy va Yozgi soglomlashtiruvchi smetalari qanday va kim tomonidan tuziladi

**2. Talabalar uchun topshiriq. 1-vaziyat.**

Maktabgacha ta'lim yo`nalishida taxsil olayotgan bir guruh Talabalar o`qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni bajarish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotiga tashrif buyurdilar. O`qituvchi ularga Maktabgacha ta'limda ta'limni

tashkil etishda

Ta'lim to`g`risidagil Qonunning bajarilishini sharxlashni vazifa qilib belgilab bergan edi. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgan Talabalar tarbiyachilar bilan yuqoridagi topshiriq yuzasidan savol-javob o`tkazdilar, lekin ayrim tarbiyachilardan o`zlarini qoniqtiradigan javob ololmadilar. ―Ta'lim to`g`risidagil Qonunning bajarilish holatini tahlil qilishda muammoga duch keldilar.

**2-vaziyat.** Har doim ham mehnat qilish mashaqqatli kechadi. Zero, uni tashkil etish uchun juda ko_p jismoniy yoki aqliy mehnat sarf qilinadi. Biroq, donishmandlardan biri: ―Mehnat men uchun – ma'naviy ehtiyojl degan fikrni bildirgan. Sizningcha, bu fikr to_g_rimi?

1. Nahotki mashaqqatli mehnat ma'naviy ehtiyojni qondirish vositalaridan biri bo_lsa?

2. Qanday sharoitda mashaqqatli bo_lsa-da, mehnat ma'naviy ehtiyojga aylanishi mumkin?

3. Sizning fikringizcha, mehnatning qanday turi (jismoniy yoki aqliy mehnat) ko_proq ma'naviy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi?

4. . Siz ham donishmandning yuqorida keltirilgan o_gitini o_zingiz uchun shior qilib olishingiz mumkinmi?

**III.** Talabalar **uchun topshiriq**

―Ijodiy ishl metodi asosida ―Maktabgacha ta`lim tashkilotlarini rivojlanish tizimil mavzusida sxema, jadval yoki klasterlarni yarating.

**Foydalanish uchun adabiyotlar:**

Xorijiy davlatlarida va O_zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishi ( 4soat )

*Maqsad: Talabalarda* O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlanish tizimi, Xorijiy davlatlarida maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishi vazifalari haqida *ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.*

Kutiladigan natija: Talabalar O'zbekistonda va xorijda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlanish tizimi vazifalarini, uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillarini va tashkilotni rivojlantirish yuzasidan istiqbol yo'nalishlarini belgilash bo'yicha vazifalarini amalga oshirishni o'rganib oladilar va amaliyoda tatbiq etish ko'nikmalari shakllanadi va faoliyatida qo'llaydilar.

Jihoz: Tarqatmalar, rasmlar va markerlar.

Dars metodi: Savol javob metodil , kichik guruhlarda ishlash metodi Amaliy



topshiriq:

1. Keys stsdi I metodi.
2. Muammoli vaziyat metodi
3. Ijodiy ishl metodi asosida ―Xorijda maktabgacha ta`lim tazimining rivojlanish lmavzusida sxema, jadval yoki klasterlarni yaratish

Xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini bir qator davlatlar misolida ko'rib chiqamiz.

Yaponiya - juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog'liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so'nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash siyosati eng muhim o'rin tutadi.

Maktabgacha ta'lim tizimi

Maktabgacha ta'limga Yaponiyada katta e'tibor beriladi, chunki psixologlarning ta'kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70% ni, qolgan 30% ni butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi - ularning hayotlarining maqsadlaridir.

Yaponlar bolaning erta voyaga yetishi tarafdoridirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg'u beradi. Masalan, 1 yoshda - o'ziga ishonch hissini uyg'otish, 2 yoshda - amaliy san'at qo'l mehnatini ko'rsatish, 3 yoshda - burch hissini tarbiyalash, 4 yoshda - yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o'rgatish, 5 yoshda - liderlik hislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o'rgatish. Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O'g'ilga oilaning bo'lajak tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadilar. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlaydilar.

Yaponiya bog'chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruhlar - ―xanllarga bo'ladi. Bu bolalarga bog'chada ―o'z ish o'rnil ajratiladi, ular o'z xanlariga nom tanlaydilar. SHu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o'rgatadilar. Bu guruhdagi har bir bola guruhda o'z o'rniga ega bo'lishi lozim. Bunday xanlar keyingi ta'lim bosqichida ham qo'llaniladi. O'rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko'nikish uchun har 5 oyda o'zgartirib turiladi. Yaponiya bog'chalariga 3-5 yoshdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog'chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy

qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko'nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'la olishni o'rgatishdan iborat.

SHuningdek, og'zaki nutq, so'zlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatishga ham katta e'tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o'yinlari, rassomlik kabi shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg'otiladi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 60% bolalar jalb etilgan. Boshlang'ich ta'limga erta qabul qilishga o'tish maqsadida 4-5 yoshdagi bolalarning barchasini bolalar bog'chasiga jalb qilish ko'zda tutilmoqda.

Bolalar bog'chasi Yaponiyada vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi-bolani maktabga tayyorlashdir. Bu yerda rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar o'tiladi. Individuallik, u qanchalik yaxshi bo'lmasin, bolalarni o'ziga jalb qilmaydi, bolalar jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi.

Germaniya davlati ta'lim tizimi

Germaniya Federativ Respublikasi 16 ta mustaqil Federativ yerlardan (viloyatlar) iborat bo'lib, har biri shakliga ko'ra turlicha bo'lgan ta'lim tizimiga ega. Ta'lim tashkilotlari asosan davlat tasarrufida bo'lib, ular uchun ta'lim dasturiga tegishli bo'lgan davlat ko'rsatmalari mavjud.

Federal hukumatning xuquqlari asosiy qonunlarni qabul qilishda, jumladan moliyalashtirish masalalarida chegaralangan. Ta'limdagi xarajatlar haqida quyidagilarni aytish mumkin:

- birorta Federal Yerlar davlat umumta'lim, kasbiy o'quv yurtlarida o'qish uchun pul barcha Federal yerlarda o'quvchilarni uydan maktabga, maktabdan uyga tashuvchi avtobuslarni o'z hisobidan beradi;
- deyarli barcha o'quvchilarga darslik va o'quv qo'llanmalarni qiymatining ozgina qismiga beriladi;
- ma'lum toifadagi o'quvchilar va talabalarga mavjud federal qonunlarga ko'ra davlat moddiy yordam ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim tizimi Germaniya ta'lim tizimida muhim bosqich hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim bolalar bog'chasida (K1'pNegdag1ep) amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga 3-6 yoshdan maktab yoshigacha borishadi. Rivojlanishdan orqada qolgan yoki yoshi mos bosqichga yetmagan bolalar maktabgacha sinflarda (nem. ^ogNazzep) va maktablar qoshidagi bolalar bog'chasida (nem. Vsli1k1pNegdag1ep) tahsil oladilar. Bu bog'chalar



alohida FE qoidasiga ko'ra yoki maktabgacha sektorga yoki boshlang'ich ta'lim sektoriga bo'ysinadi.

Maktabgacha ta'lim majburiy emas, lekin ko'pgina FEda rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun majburiy hisoblanadi. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalari, xususiy shaxslar, diniy tashkilotlar zimmasida. Germaniyada 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydilar.

Bolalar bog'chasi olmonlar boshlab bergan va ko'pgina xorijiy mamlakatlar tomonida o'rganilib, qabul qilingan tashkilotdir. U yuqorida ta'kidlaganimizday, davlat tizimiga emas, balki yosh avlodni qo'llab-quvvatlash tashkilotlari tizimiga kiradi. 1996 yildan boshlab bolalar bog'chasiga qatnash uchun xuquqiy me'yorlar ishlab chiqildi. Bolalar bog'chasiga farzandlarni berish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga qatnash uchun ota-onalardan ularning daromadiga qarab ma'lum miqdorda to'lov olinadi.

Maktabgacha bolalar bog'chasi tayyorlov sinflari va kirish guruhlari maktab ta'limining birinchi bosqichiga kiradi.

Sekin asta differentsiallashgan ta'lim tizimi, ya'ni har bir o'quvchiga uning qobiliyati va o'qishdagi turlicha yo'nalishiga ko'ra moslashuvchan yondashuv kiritilmoqda.

Umuman olganda Germaniya ta'lim tizimi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

4. Elementar ta'lim: maktab ta'limining 1-bosqichiga tegishli bo'lib, maktabgacha tashkilotlar kiradi. Asosan bular bolalar bog'chalari, tayyorlov sinflari va kirish guruhlari bo'lib, bu yerlarga bolalarning qatnashishi 3 yil davomida ota-onalar xohishiga ko'ra ixtiyoriydir.

5. Ta'limning birinchi bosqichi. (RptazSHGe) boshlang'ich maktab, unga 6 yoshdan qatnay boshlaydi. O'qish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil. Bu bosqichdagi ta'limning maqsadi - bolalarga ta'limning ikkinchi bosqichidagi u yoki bu maktabda ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat.

Janubiy koreya ta'lim tizimi

Janubiy Koreya Respublikasi ko'plab tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortmoqda, sababi bu davlat postindustrial tsivilizatsiya yutuqlarini egallagan Osiyo - Tinch okeani regionining noyob DavlatlariDan biridir. Koreyaliklar

bajarilishi shart bo'lgan asosiy vazifa - o'z an'anaviy madaniyatini saqlash, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'z madaniy-siyosiy identivlik, SHarqning an'anaviy qadriyatlari va orientirlari bilan bog'lashga intilish deb hisoblaydilar. Bu davlatning ta'lim tizimi YuNISEF ekspertlari xulosasiga ko'ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida "eng samaralisi" deb tan olingan.

Maktabgacha ta'lim

Janubiy Koreyada bolalar bog'chasi umumta'lim turiga kirmaydi. Ota-onalar farzandlarini xususiy maktabgacha tashkilotlarga beradilar. Bu tashkilotlarda mashg'ulotlar koreys tilida, ingliz tilida, ba'zilarida faqat ingliz tilida olib boriladi. Bolalar bog'chasiga 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi oilalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bog'chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o'tiladi. Koreys bog'chalarida bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta e'tibor beriladi. Bolalar yoshi orasidagi farq 3 yilgacha bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich_ta'lim. Janubiy Koreyada bolalar (6 yoshdan oshgan) 7 yoshdan 13 yoshgacha boshlang'ich maktabga boradilar. O'qish muddati 6 yil, majburiy va bepul.

AQSH ta'lim tizimi

- Amerika Qo'shma shtatlarida ta'lim tizimining tuzilishi quyidagicha: bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya tashkilotlari;

- 8 - sinflargacha bo'lgan boshlang'ich maktablar (bunday maktablarda 6 yoshdan 13 yoshgacha o'qiydilar);

- 9 - 12 - sinflardan iborat o'rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat.

Amerika Qo'shma SHtatlarida navbatdagi ta'lim bosqichi oliy ta'lim bo'lib, u 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlar hamda dorilfununlardir. AQSHda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o'quv yurtlari davlat, jamoa tasarrufida, xususiy va diniy tashkilotlar ixtiyorida bo'lishi mumkin.

Amerikada 3 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi bilan onalar shug'ullanadilar, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. 5 yoshdan esa «Kinder garde» deb ataluvchi tayyorlov tashkilotlarida ta'lim boshlanadi. Boshlang'ich maktab 6 yoshdan to 13- 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Bu boshlang'ich maktablarda umumiy savodxonlik va kasbga yo'naltirish vazifalari hal etiladi. Sinfdan-sinfga ko'chish o'quvchining o'zlashtirganlik darajasiga bog'liq. Boshlang'ich ta'lim turli shtatlarda turlicha belgilangan (4, 5, 6, 8 yil).

3. Maktabgacha ta'limning asosiy mazmuni, maqsad va vazifalari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi —2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidalgi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta'minlashda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim- tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta'lim tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishlarini izchil davom ettirish maqsad qilib olindi. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi ishlab chiqildi.

Ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda va ular quyidagilarda namoyon bo'lmoqda: maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining xuquqiy-me'yoriy asosi takomillashmoqda; maktabgacha ta'lim tashkilotlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi turlariga o'tmoqda; nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'i kengaymoqda; ta'limning ilg'or texnologiyalari joriy etilmoqda; xodimlar malaka oshirish tizimi takomillashmoqda; qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining muqobil shakllari joriy etilmoqda.

**Bolalar bog'cha- maktabi**




Maktabgacha ta'limning mazkur Kontseptsiyasi uning 2017 yilgacha bo'lgan vazifalari, strategiyasi, maqsad va tamoyillarini aniqlab beradi.

Kontseptsiyaning xuquqiy asosini quyidagi me'yoriy-xuquqiy hujjatlar tashkil etadi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, —Ta'lim to'g'risidalgi Qonun, —Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va ta'lim sohasidagi boshqa

huquqiy-me'yoriy hujjatlar.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. U bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga qiziqishni shakllantirish maqsadini ko'zlagan holda, olti-etti yoshgacha oilada hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladi. Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalarini tatbiq etishda jamoat va homiy tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtirok etadilar.

Maktabgacha ta'lim-bolaning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda uning jismoniy va psixik rivojlanishini ta'minlovchi, uni uzluksiz ta'limning keyingi bosqichi - maktabga borishiga zamin yaratuvchi, har tomonlama *maqsadli* yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayonidir.

Maktabgacha ta'lim o'zining shakl va usullaridan qat'iy nazar quyidagi *vazifalarni* bajarishi lozim:

- bolalarning jismoniy va psixik sog'ligini mustahkamlash;
- bolalarni milliy, umuminsoniy, qadimiy va madaniy qadriyatlarga jalb etish;
- bolaning aqliy, intellektual salohiyatini rivojlantirish;
- milliy an'analar va udumlar asosida yuksak ahloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirish;
- bolalarni tizimli va maqsadli ravishda maktabda ta'lim olishga tayyorlash, ularning individual xususiyatlari va iqtidorini rivojlantirish.

Yuqorida bayon etilganlar shunga guvohlik beradiki, O'zbekiston Respublikasidagi maktabgacha ta'lim tizimi bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, davlat va jamiyat talablariga binoan har tomonlama rivojlantirilishini ta'minlashi lozim.

Maktabgacha yoshning xususiyati shundan iboratki, ushbu davrda aynan umumiy rivojlanish ta'minlanadi, natijada kelajakda har qanday ijtimoiy bilim, Maktabgacha ta'lim tizimining qayta tashkil etilishi - bu, avvalambor, maktabgacha ta'lim tashkilotsiga ko'proq mos keluvchi tartibni yaratish. Bundan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tashkilotsi bola ta'lim-tarbiyasida davlatning asosiy talablarini qondira oladigan tashkilot sifatida qabul qilinishi kerak

**Mavzu yuzasidan topshiriq**

—Savol-javobl asosida mavzuga doir quyidagi savollarga javob qaytaring.

1. Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimining o'ziga xosliklarini tushuntiring.
2. Yaponiyada maktabgacha ta'lim tizimi haqida ma'lumot bering.
3. Germaniyada maktabgacha ta'lim tizimi haqida gapiring.
4. Janubiy Koreyada maktabgacha ta'lim tizimi haqida gapirib bering.



5. Kanada davlati maktabgacha ta'lim tizimining o'ziga xosliklari haqida ma'lumot bering
6. Belgiya maktabgacha ta'lim tizimidagi farqni ayting.
7. Frantsiyada maktabga tayyorlash tizimi haqida ma'lumot bering.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarorining mazmun-mohiyati haqida so'zlab bering
9. Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalari haqida ma'lumot bering

***Maqsad:*** *Talabalarda* maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlanish tizimi, Smeta –davlat moliyaviy xujjatlarni tuzish va moliyaviy ta'minlash vazifalari haqida *ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.*

**Kutiladigan natija:** Talabalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlanish tizimi vazifalarini, Smeta harajjatlarini to'ri taqsimlash, va tashkilotni rivojlantirish yuzasidan istiqbol yo'nalishlarini belgilash bo'yicha vazifalarini amalga oshirishni o'rganib oladilar va amaliyoda tatbiq etish ko'nikmalari shakllanadi va faoliyatida qo'llaydilar.

Jihoz: Tarqatmalar, rasmlar va markerlar.

Dars metodi: Savol javob metodil , kichik guruhlarda ishlash metodi Amaliy topshiriq:

1. Keys stsdi I metodi.
2. Muammoli vaziyat **metodi**
3. Ijodiy ishl metodi

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga muvofiq xarajatlar guruhlari bo'yicha, 4 gurux xarajatlarining to'liq yoyilmasini va xisob-kitoblarni o'z ichiga olgan holdagi ilova bilan birgalikda, shuningdek mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha tuziladi.

Ilova xarajatlar smetasining ajralmas qismi bo'lib, smetasining prognoz xisob-kitoblarini asoslaydi va xisobot tuzish maqsadida foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari bo'yicha xarajatlar smetasi erkin almashtiriladigan valyuta va so'mda xarajatlar guruhlari bo'yicha, boshqa xarajatlarning to'liq yoyilmasi va qisob-kitoblarni o'z ichiga olgan xoldagi ilova bilan birgalikda mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha tuziladi.

Harajatlar smetasini tuzish bo'yicha ishlarni tashkil etish davomida O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpoqiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli xokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari o'zlariga bo'ysunuvchi tashkilotlarga tegishli xalq deputatlari Kengashi sessiyasining

byudjetni tuzish tartibi va muddati to‘qrisidagi qaroridan va moliya organining ushbu masala bo‘yicha ko‘rsatmalaridan kelib chiqib, kelgusi yil uchun smetalarni tuzish tartibi va muddatlari to‘g‘risida ko‘rsatmalar beradilar.

Buning uchun O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpoqiston Respublikasi vazirliklari va idoralari, tegishli xokimiyatlarning boshqarma va bo‘limlari o‘zlariga qarashli tashkilotlarning raqbarlari xamda tegishli xodimlari kengashini chaqiradilar va xarajatlar smetasini tuzish tartibi va muddatlari to‘qrisida yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadilar, ularga tashkilotlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga va ularga xarajatlar smetasini tuzish masalalari bo‘yicha qonunchilik talablarini tushuntiradilar, byudjet mablaqlari bo‘yicha xarajatlar smetasi qisob-kitoblarini albatta qonunchilikka muvofiq kelishi, xarajat qilishda moliya intizomiga, iqtisod qilish tartibiga rioya qilish xaqida ko‘rsatmalar beradilar, shuningdek xarajatlar smetasini tuzish xamda blankalarni to‘ldirish texnikasi masalalari bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadilar.

Bir vaqtning o‘zida o‘zlariga qarashli tashkilotlarga ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida (sinflar, o‘quvchilar, bolalar, shifoxonalarda joy-kunlar, bola-kunlar soni va boshqalar) kelgusi yil uchun ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini yozma ravishda xabar qiladilar.

Xarajatlar smetasi bo‘yicha xarajatlarni qisoblab chiqish mablaqlarga bo‘lgan extiyojga muvofiq iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini va iqtisod qilishning qat'iy tartibini amalga oshirishni qisobga olgan xolda amalga oshirilishi shart xarajatlarni xisoblab chiqishda quyidagilarga amal qilish kerak:

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Xukumatining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek qoraqalpoqiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, tegishli xokimiyatlarning ularga berilgan xuquq va vakolatlar doirasida qabul qilingan qaror va farmoyishlariga;

byudjet tashkilotlarining belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar me'yorlariga;

tovar va xizmatlarni davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va tariflariga.

Jumladan:

- harajatlar smetasiga ish xaqi uchun mablaqlar qonunchilik bilan belgilangan maoshlari va ish xaqi stavkalari va ularga qo‘shimcha to‘lovlardan, amaldagi namunaviy shtatlar va me'yorlarga rioya qilishdan kelib chiqib kiritiladi. Ishbay usul bilan bajariladigan ishlar uchun ish xaqi xarajatlar smetasiga byudjet yiliga xarajatlar smetasida ko‘zda tutilgan ish xajmlaridan



kelib chiqib kiritiladi;

- pedagog xodimlar ish qaqi uchun mablaqlarni ajratishda, qonunchilikda belgilangan ish qaqi stavkalaridan va o‘quv rejasiga muvofiq daftar tekshirish, sinf raqbarligi va boshqalar uchun qo‘shimcha qaq to‘lashni qisobga olgan qolda tuzilgan tarifikatsiyalardan kelib chiqilishi lozim;

- tibbiyot xodimlari ish qaqi uchun mablaqlarni ajratishda, ish xaqi stavkalari va qonunchilikka muvofiq meqnatga xaq to‘lash shartlarini qisobga olgan qolda tuzilgan tibbiyot xodimlari tarifikatsiyalaridan kelib chiqilishi lozim;

- oliy o‘quv yurtidan keyingi ta'limda ta'lim oluvchilarni stipendiya xarajatlari belgilangan stipendiyalar miqdori va stipendiya ta'minoti tartibidan kelib chiqqan qolda qisoblanadi;

- meqnatga qaq to‘lash jamqarmasidan yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lash harajatlari harajatlar smetasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq belgilangan stavkalarda, qonunchilikka muvofiq yagona ijtimoiy to‘lov to‘lanadigan barcha to‘lov summalaridan kelib chiqqan qolda kiritiladi;

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy suqurta qilish bo‘yicha suqurta mukofotini to‘lash xarajatlari harajatlar smetasiga qonunchilikda belgilangan tartibda ish beruvchining barcha xodimlarining o‘tgan yilgi ish xaqining qaqiqiy harajatlaridan kelib chiqqan xolda kiritiladi;

- xo‘jalik harajatlari, jumladan, kommunal xizmatlar uchun harajatlar limitlar doirasida kommunal xizmatlar uchun baqo va tariflarni qisobga olgan qolda qisoblanadi;

- telefon va boshqa telekommunikatsiya xizmatlari xarajatlari abonent raqamlari soni va xizmatlar uchun tasdiqlangan tariflaridan kelib chiqib xisoblanadi. Bunda, limitdan oshiq foydalanilgan shaxarlararo (davlatlararo) so‘zlashuvlar uchun aloqa xizmatlari, internet bo‘yicha xizmatlar va boshqa aloqa xizmatlari harajatlari byudjet tashkilotlarining harajatlar smetasida tegishli moliya organlari bilan kelishilgan qolda o‘zlarining faoliyat xususiyatlaridan va ushbu xizmatlarga bo‘lgan talabdan kelib chiqib ko‘zda tutiladi;

- davolash, bolalar va boshqa ijtimoiy soqa muassasalarida ovqatlanishga ketadigan harajatlar tashkilotlarning qar bir turi uchun tasdiqlangan ovqatlanish kunining o‘rtacha yillik sonidan va natural me'yorlaridan kelib chiqib qisoblanadi;

- dori-darmonlarga ketadigan harajatlar qonunchilikda belgilangan pul

harajatlari me'yoriga qarab:

- statsionarlarda - qar bir joy-kunga, shifoxonalarda - shifokorga qar bir kirishga belgilanadi;

- ijtimoiy-madaniy tashkilotlarni ayrim guruhi uchun kiyim-kechak, poyabzal, choyshab, yotish anjomlari va boshqa yumshoq buyumlar sotib olishga ketadigan harajatlar, moddiy ta'minotning me'yorlari asosida, lekin ajratilgan mablaqlar doirasida qisoblanadi;

- suv, o'rmon xo'jaligi va boshqa tashkilotlarni saqlash harajatlari ularning bajarayotgan ish me'yori va qajmidan kelib chiqqan qolda aniqlanadi;

- inspektsiya va qo'riqlash faoliyati bilan boqliq xizmatlar to'lovi harajatlari tashkilotlar va ushbu xizmatlarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomaga muvofiq aniqlanadi;

- tashkilotlarning binolar, inshootlar va transport vositalaridan foydalanish, binolar va transport vositalari, shuningdek boshqa davlat mulklari ijarasi bilan boqliq harajatlari belgilangan limitlar va natural ko'rsatkichlardan kelib chiqib aniqlanadi;

- xizmat safarlari bilan boqliq harajatlar tashkilotlarning oldiga qo'yilgan vazifalaridan, shuningdek qonunchilikda belgilangan me'yorlardan kelib chiqqan qolda aniqlanadi;

- epizodik kasalliklarga qarshi tadbirlar va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga (chigirtkalar, tut parvonasi va boshqalar) qarshi kurashish bilan boqliq harajatlar prognoz ish qajmlari va kimyoviy preparatlarga bo'lgan eqtiyojlar, shuningdek bajariladigan ish turlaridan kelib chiqqan qolda aniqlanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan harajatlar, shuningdek Davlat byudjeti harajatlarining iqtisodiy tasnifi bo'yicha boshqa harajatlarni aniqlashda boshqa ko'rsatkichlar va uslublar qo'llanishi mumkin, ularning asoslanganligi harajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazuvchi tegishli moliya organlari tomonidan tekshiriladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan va tegishli davlat boshqaruv organlari (bosh bo'linma sifatidagi byudjet tashkiloti) huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar bo'yicha quyidagi alohida hollarda jamlanma harajatlar smetasi tuzilishi mumkin:

bir turdagi kichik tashkilotlar bo'yicha - veterinar uchastkalar va punktlar qamda boshqa tashkilotlar bo'yicha;

bir turdagi yirik tashkilotlar bo'yicha, qachonki ularga xo'jalik xizmatlarini ko'rsatish xo'jalik xizmatlarni ko'rsatuvchi maxsus guruqlar orqali markazlashtirilgan qolda amalga oshirilsa;



fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bo'yicha;

ozodlikdan maqrum etilgan joylardan qaytgan shaxslarga ijtimoiy moslashuv markazlari xamda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-xuquqiy yordam ko'rsatish markazlari bo'yicha.

Markazlashtirilgan buxgalteriyalar tashkil etilgan tegishli davlat boshqaruv organlari (bosh tashkilotlar) raqbarlari va tegishli xudud qokimlari (ular vakolat bergan mansabdor shaxslar) jamlanma xarajatlar smetasi bo'yicha byudjetdan ajratilgan mablaqlarni taqsim qiluvchilar bo'lib xisoblanadilar.

Jamlanma harajatlar smetasi, xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarning raqbarlaridan olingan buyurtmalar asosida qamda markazlashtirilgan buxgalteriyada mavjud bo'lgan qisob va qisobot, shuningdek iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlariga muvofiq markazlashtirilgan buxgalteriya tomonidan tuziladi.

Jamlanma xarajatlar smetasini tuzish uchun buyurtmalar xokimiyatlarning tegishli boshqarma va bo'limlari tomonidan belgilangan shakllar yoki ko'rsatkichlar ro'yxati bo'yicha harajatlarning guruqlari bo'yicha va ilovalarni qamda smetalarga qilingan qisob-kitoblarni ilova qilgan qolda tashkilotlar tomonidan taqdim qilinadi.

Buyurtmalarda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

isitish, yoritish, suv ta'minoti harajatlarini xisoblash uchun zarur natural ko'rsatkichlar;

sotib olish uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar va jiqozlar ro'yxati;

kapital va joriy ta'mirlash bo'yicha asosiy ishlar ro'yxati;

o'rmon xo'jaligi tashkilotlarining bajaradigan ishlari xajmi;

qonunchilikka muvofiq belgilangan kadastr yuritish bo'yicha ishlar xajmi va boshqa ko'rsatkichlar xisobi;

bino va inshootlarni kapital ta'mirlash bo'yicha manzilli ro'yxatga kiritish uchun qisob-kitoblarning asoslanganligi;

byudjetdan mablaqlar ajratishni asoslash uchun boshqa kerakli qisob-kitoblar.

Tashkilotlar tomonidan berilgan buyurtmalar markazlashtirilgan buxgalteriyalar tomonidan tegishli tashkilotlarning vakillari ishtirokida oldindan ko'rib chiqiladi xamda jamlanma xarajatlar smetasini tuzishda xisobga olinadi.

Markazlashtirilgan buxgalteriya tomonidan tuzilgan jamlanma xarajatlar smetasining loyixalari tegishli tashkilotlar raqbarlari ishtirokida ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Tashkilotlarning xarajatlar smetasi uch nusxada tuzilib, tashkilotning raqbari yoki uning o'rinbosari (birinchi imzo xuquqiga ega shaxs), tashkilot bosh

xisobchisi yoki uning o'rinbosari (ikkinchi imzo xuquqiga ega shaxs), shuningdek moliya-iqtisod bo'limi boshliqi (shtatlar jadvaliga muvofiq moliya-iqtisod masalalari bo'yicha mutaxassis) tomonidan imzolanadi xamda belgilangan tartibda moliya organida ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng:

birinchi nusxasi - tashkilotda qoladi;

ikkinchi nusxasi - tegishli moliya organiga taqdim qilinadi;

uchinchi nusxasi - yuqori tashkilotga taqdim qilinadi (zarur xollarda).

Tegishli moliya organlari xarajatlar smetasini chuqurroq o'rganish maqsadida tashkilotlarning xarajatlar smetasini tuzish va ijro etishning istalgan bosqichida ularning qo'shimcha qisob-kitoblarini talab qilishga xaqli.

Markazlashtirilgan buxgalteriyalar tomonidan xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarning xarajatlar smetasi tashkilotlar bilan markazlashtirilgan buxgalteriyalar bosh (katta) xisobchilari yoki iqtisodchilari ishtirokida tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi va qoraqalpoqiston Respublikasi vazirliklari, idoralari va xokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlari markazlashtirilgan xolda amalga oshiriladigan xarajatlar bo'yicha ularning o'zini saqlash uchun xarajatlar smetasidan tashqari tashkilotning markazlashtirilgan tadbirlari uchun xarajatlar smetasini tuzadilar. Bunda, O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpoqiston Respublikasi vazirliklari, idoralari va xokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlari tomonidan markazlashtirilgan xolda bir necha tadbirlar (tizimdagi barcha tashkilotlar bo'yicha qo'riqlash xizmatini to'lash, xizmat kiyimini sotib olish, yagona axborot-kompyuter tizimiga xizmat ko'rsatish, seminarlar o'tkazish va boshqalar) bo'yicha xarajatlar amalga oshirilayotganda, xarajatlar smetasiga xar bir to'lanadigan markazlashtirilgan tadbirlar bo'yicha xisob-kitoblar ilova qilinadi.

Kelgusi yilga ochilishi kerak bo'lgan tashkilotlarni tashkil etish, saqlash bo'yicha xarajatlar smetasi tegishli vazirliklar, idoralar xamda tegishli xokimiyatlarning boshqarmalari, bo'limlari tomonidan xar bir tashkilotga aloqida, meqnatga xaq to'lash shartlari va faoliyat ko'rsatayotgan shunga o'xshash tashkilotlarda mavjud bo'lgan xarajatlarining o'rtacha me'yorlaridan kelib chiqqan xolda tuziladi.

Bunda, yangi tashkilotlarni saqlash xarajatlari ushbu tashkilotlar faoliyatining boshlanishi mo'ljallanayotgan muddatlardan kelib chiqqan xolda qisoblanadi.

Xarajatlar smetasini ko'rib chiqish

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpoqiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli xokimiyatlarning boshqarmalari, bo'limlari va xarajatlar smetalarini tasdiqlash xuquqiga ega bo'lgan boshqa tashkilotlar, O'zbekiston



Respublikasi "Byudjet tizimi to'qrisida"gi qonuniga muvofiq ularga yetkazilgan ajratilgan mablaqlar xajmlari, belgilangan tartibda rejalashtirilgan yil uchun tasdiqlangan Davlat byudjeti parametrlari doirasida o'z qaramoqidagi tashkilotlarning kelib tushgan xarajatlar smetalarini sinchiklab ko'rib chiqishni ta'minlaydilar.

Tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan xarajatlar smetalari zarur xollarda tegishli tashkilotlarning raqbarlari ishtirokida ko'rib chiqiladi. Bunda, xarajatlar smetalarini ko'rib chiquvchi tashkilotlar quyidagilarga majbur:

qonunchilik talablariga, shuningdek kelgusi yil smetalarini tuzish bo'yicha ko'rsatmalarga qat'iy amal qilishni ta'minlash;

iqtisod qilish tartibiga amal qilgan xolda xarajatlar smetalarida talab etilmaydigan tadbirlar uchun mablaqlar ajratishga yo'l qo'ymaslik;

aloqida tadbirlarni o'tkazish muddatlari va ularni moliyalashtirish imkonini ta'minlashni xisobga olgan xolda xarajatlar smetasi bo'yicha ajratilgan mablaqlarni chorak (oy)larga taqsimlashni ta'minlash;

qisob-kitoblar va asoslantirishlar bilan tasdiqlanmagan summalarni xarajatlar smetalarida qabul qilishga yo'l qo'ymaslik.

Agar tashkilotlarning xarajatlar smetalarini ko'rib chiqish natijasida O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpoqiston Respublikasi vazirligi, idorasi bo'yicha, xokimiyatning boshqarma, bo'limi bo'yicha jami xarajatlar summasi yoki ish xaqi, ish xaqiga ajratmalar, kapital qo'yilmalar va xarajatlarning boshqa turlari bo'yicha xarajatlar summasi qabul qilingan byudjet va tegishli moliya organlari tomonidan ularga yetkazilganiga nisbatan ortiq bo'lsa, vazirlik, idora, qokimiyatning boshqarma va bo'limi raqbari aloqida tashkilotlarning xarajatlar smetalari bo'yicha xarajatlarini tegishincha qisqartirishi lozim.

O'z qaramoqidagi tashkilotlarning xarajatlar smetalarini, markazlashtirilgan xarajatlar uchun xarajatlar smetalari va vazirliklar, idoralar, qokimiyatning boshqarma va bo'limini saqlash uchun xarajatlar smetalarini ko'rib chiqqandan keyin O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpoqiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, qokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlari jismoniy ko'rsatkichlar (sinflar, koykalar miqdori, xodimlar soni va shu kabilar) bo'yicha jamlanma qisob-kitoblarning ilovasi bilan birga Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga muvofiq bo'lim, kichik bo'lim, bob va moddalar kesimida jamlanma xarajatlar smetalarini tuzadilar.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpoqiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, qokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlari tashkilotlarning smetalari bo'yicha ishlarni yakunlashi bilan O'zbekiston Respublikasi, qoraqalpoqiston Respublikasi Moliya vazirliklariga va tegishli moliya

organlariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maqkamasi, qoraqalpoqiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va qokimiyatlar tomonidan belgilangan muddatlarga kelgusi yil byudjeti bo'yicha quyidagi materiallarni taqdim etadilar:

barcha smetalar bo'yicha xarajatlar yiqindisini byudjet tasnifining bo'limlari, kichik bo'limlari, boblari va xarajat moddalari qamda yilning choraklari (oylari) bo'yicha bo'lingan qolatda;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shaklga muvofiq tashkilotlar kesimida setlar, shtatlar va kontingentlar bo'yicha umumlashtirilgan ko'rsatkichlar.

Bir vaqtni o'zida, moliya organining talabiga asosan aloqida tashkilotlar bo'yicha tekshirish va tanishib chiqish uchun, keyinchalik moliya organi qaytarib beradigan xarajatlar smetasiga ilovalar va qisob-kitoblar taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va qududiy moliya organlari taqdim etilgan materiallarni jamlangan xarajatlar smetasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti tasdiqlanayotganda belgilanadigan umumiy xarajatlar qajmiga, belgilangan ish qaqi, ish beruvchining ajratmalari, kapital qo'yilmalar va boshqa xarajatlar turlari bo'yicha amal qilinganligini, shuningdek Davlat byudjetini tuzish bo'yicha qonunchilik talablarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiradilar.

Ushbu talablar bajarilmagan taqdirda moliya organlari vazirliklar, idoralar, qokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlariga, tasarruflaridagi muassasalarning smetalari bo'yicha xarajatlarini qisqartirishni taklif qiladilar.

Vazirliklar, idoralar, hokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlari tomonidan norozilik yuzaga kelsa, umumlashtirilgan smetalarga aniqlik kiritish masalasi bo'ysunuviga qarab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maqkamasi, qoraqalpoqiston Respublikasi Vazirlar Kengashi yoki tegishli qokimiyatlar tomonidan qal etiladi.

Umumlashtirilgan smetalar tekshirilganidan va zarur bo'lgan qollarda ularga o'zgartirishlar kiritilganidan keyin O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va qududiy moliya organlari tashkilotlarga umumlashtirilgan smetalarning tegishli byudjetga kiritilgani qaqida xabar beradilar va ayrim tashkilotlar bo'yicha tekshirishga olingan xarajatlar smetalarini qaytarib beradilar.

Tumanlar, shaqarlar (shaqarga bo'ysunadigan tumanlar) tegishli qokimiyatlarining boshqarmalari va bo'limlari shu byudjetlarda turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetalarini mazkur Nizomda ko'rsatilgan tartibda



ko'rib chiqadilar va mablaqlarni tuman, shaqar byudjetiga taqsimlangandan so'ng tuman va shaqar moliya bo'limi xabar qilgan summalar doirasida xarajatlarni qabul qiladilar.

**3. Xarajatlar smetasini tasdiqlash**

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, Qoraqalpoqiston Respublikasi byudjeti va maqalliy byudjetlar tasdiqlanganidan keyin, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va qududiy moliya organlari tashkilotlarga ularning umumlashtirilgan smetalari bo'yicha choraklar kesimidagi taqsimotini, shuningdek ish qaqiga, ish beruvchilarning ajratmalariga, kapital qo'yilmalarga va boshqa xarajatlar summasiga byudjetda belgilangan eng yuqori miqdorlarini ajratib ko'rsatgan qolda xabar beradilar.

Shahar moliya bo'limlari bundan tashqari shaharga bo'ysunadigan tuman hokimiyatlarining bo'limlariga, yuqorida ko'rsatilgan xarajatlarni Xalq deputatlari shahar Kengashi sessiyasi tomonidan tasdiqlangan ularning byudjetlari hajmlari doirasida ajratib ko'rsatib, xabar qiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti tasdiqlangandan so'ng unga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi va qoraqalpoqiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli qokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlari o'z tasarruflarida bo'lgan tashkilotlar xarajatlar smetalariga kerakli tuzatishlar kiritadilar.

Shundan keyin O'zbekiston Respublikasi va qoraqalpoqiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli qokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlari ular tomonidan ilgari belgilangan tashkilotlar smetalari bo'yicha yillik mablaqlar miqdorlarini byudjet bo'yicha barcha smetalar xarajatlari umumiy summalariga mos keladigan qilib aniqlik kiritadilar.

Bunda, tegishli tuzatishlar o'zlarida qoladigan nusxalarga kiritiladi.

Shundan keyin O'zbekiston Respublikasi va qoraqalpoqiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli qokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlari belgilangan yillik byudjetning choraklar (oylar) bo'yicha taqsimotiga amal qilgan qolda, qajmlari byudjet bilan qar bir chorakka (oyga) aloqida belgilangan xarajatlarning umumiy summasi, shuningdek ish qaqi, ish beruvchilarning ajratmalari, kapital qo'yilmalar va boshqa turdagi xarajatlar summasi byudjetning tasdiqlangan choraklar (oylar) bo'yicha taqsimotiga to'qri kelishini qisobga olgan qolda tashkilotlarning xarajatlar smetasi bo'yicha qabul qilingan yillik xarajatlar summasini choraklar (oylar) bo'yicha bo'lishlari kerak.

Tashkilotlarning xarajatlar smetalarida tasdiqlangan xarajatlarni yillik va choraklik (oylik) summalari, tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan

xarajatlar smetalarining ikkinchi nusxasiga o'tkaziladi.

Xarajatlar smetasini tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Qoraqalpoqiston Respublikasi Jo'qorqi Kengesining yoki tegishli viloyatlar, shaharlar, tumanlar Xalq deputatlari kengashlari sessiyalarining byudjet haqidagi qarori qabul qilingan kundan boshlab ikki hafta muddat ichida (agar boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa) va tegishli byudjetlarda turuvchi tashkilotlar uchun xarajatlar tasnifi moddalari bo'yicha bo'lingan qolda amalga oshiriladi qamda smetalarni tasdiqlagan tashkilot raqbari (yoki raqbar o'rinbosari) imzosi bilan, tasdiqlangan kuni ko'rsatilgan qolda, shuningdek ushbu tashkilotning muqri smetaning barcha nusxalariga bosilib, bir paytning o'zida xarajatlar smetasi bo'yicha umumiy summasini yuqori o'ng burchagida shtatdagi xodimlarning meqnatga qaq to'lash jamqarmasining umumiy summasini ajratib ko'rsatgan qolda rasmiylashtiriladi.

Xarajatlar smetalarida byudjet mablaqlarini yil choraklari (oylari) bo'yicha taqsimoti tegishli byudjetlarning daromadlari va xarajatlari choraklar (oylar) bo'yicha taqsimotini qisobga olgan qolda amalga oshirilishi kerak.

Tashkilotlarning xarajatlar smetalari, shuningdek markazlashgan xarajatlar smetalari tasdiqlangandan so'ng choraklar (oylar) kesimidagi xarajatlarni yillik umumlashmasi byudjet tasnifining bo'limlari, kichik bo'limlari, boblari va iqtisodiy tasnifi bo'yicha choraklarga (oylarga) bo'lingan qolda aniqlanadi va tegishli moliya organiga taqdim etiladi.

Shu bilan bir vaqtda setlar, kontingentlar va shtatlar bo'yicha umumlashtirilgan ko'rsatkichlar taqdim etiladi.

Umumiy smetalar tasdiqlangandan so'ng markazlashgan buxgalteriyalar bu smetalar bo'yicha moliyalashtiriladigan tashkilotlarga quyidagilarni xabar qiladilar:

shtatlar va tashkilot xodimlari ish qaqi stavkalari qaqidagi ma'lumotlar;

tashkilotlarning xo'jalik eqtiyojlariga rejalashtirilayotgan yilda ajratiladigan yoqilqi miqdori, elektroenergiya va suv bo'yicha natural ko'rsatkichlar;

byudjet mablaqlari doirasida sotib olishga mo'ljallangan inventarlar va asbob-uskunalar ro'yxati;

kapital va joriy ta'mirlash bo'yicha asosiy ishlar ro'yxati;

hokimiyatlarning tegishli moliya boshqarmalari va bo'limlari tomonidan, yuqori moliya organlari bilan kelishilgan qolda belgilangan tashkilotlarga xabar beriladigan ko'rsatkichlar va shakllari ro'yxati.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va qududiy moliya organlari tomonidan umumlashtirilgan xarajatlarni va aloqida xarajatlar smetalarini tasdiqlangan byudjetga, shuningdek byudjetni tuzish bo'yicha



qonun qujjatlariga muvofiq kelishi tekshirib ko'riladi.

E'tirozlar bo'lmagan taqdirda, moliya organi xarajatlar umumlashmasining birinchi betida "Kelishilgan" degan belgi qo'yadi va muqr bilan tasdiqlagan qolda xarajatlar umumlashmasining bir nusxasini tegishli vazirlik, idora, qokimiyatlarning boshqarma va bo'limlariga qaytaradi.

Agarda xarajatlar umumlashmasi bo'yicha e'tirozlar bo'lganda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va qududiy moliya organlari, O'zbekiston Respublikasi va qoraqalpoqiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli qokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari raqbarlaridan xarajatlar umumlashmasi va tegishincha aloqida tashkilotlarning xarajatlar smetalariga tegishli tuzatishlar kiritishni yozma talab qiladilar.

Alohida va umumiy xarajatlar smetalarining bir nusxasi vazirliklar, idoralar, tegishli hokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlarida qat'iy qisob hujjatlari tariqasida saqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va qududiy moliya organlari tekshirilgan umumlashtirilgan xarajatlar smetalari asosida, byudjetda ko'zda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun asos bo'lib qisoblanadigan choraklarga (oylarga) bo'lingan tegishli byudjet xarajatlari yillik yoyilmasini tuzadilar.

**Byudjetdan tashqari mablaqlar bo'yicha**
**Smetalarni tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash**

Tashkilotlar ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shaklda byudjetdan tashqari mablaqlar bo'yicha smetani qar yili tuzadilar va tasdiqlaydilar. Bunda, tashkilotlar byudjetdan tashqari mablaqlar tushumlarini va xarajatlarini rejalashtirishni qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiradilar.

Tashkilotlar quyidagi byudjetdan tashqari mablaqlar bo'yicha smetalarni tuzadilar:

Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamqarmasi;

Tibbiyot muassasalarini moddiy raqbatlantirish va rivojlantirish jamqarmasi;

ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushumlar;

qonunchilikda belgilangan boshqa barcha byudjetdan tashqari mablaqlar, jumladan, vazirliklar va idoralarning byudjetdan tashqari jamqarmalariga yo'naltirilayotgan davlat bojlari, yiqimlar va soliq bo'lmagan to'lovlardan, ma'muriy va moliyaviy jazolardan ajratmalar.

Byudjetdan tashqari mablaqlar bo'yicha, Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamqarmasi va Tibbiyot muassasalarini moddiy raqbatlantirish

va rivojlantirish jamqarmasi bundan mustasno, smetalar tegishli moliya organlarida xarajatlar smetasi uchun belgilangan muddatlarda va tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.

Byudjetdan tashqari mablaqlar bo'yicha smetalarni tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash tashkilotlarning xarajatlar smetasi uchun mazkur Nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Byudjetdan tashqari mablaqlar bo'yicha smetada byudjetdan tashqari mablaqlar tushumlarining qajmi va ushbu mablaqlardan foydalanish yo'nalishlari qonunchilik talablaridan kelib chiqqan qolda aniqlanadi.

Byudjetdan tashqari mablaqlar bo'yicha smetalarning daromad qismiga byudjetdan tashqari mablaqlarning qonunchilikka muvofiq barcha shakllanish manbalari bo'yicha kutilayotgan mablaqlar tushumi va moliya yilining boshiga mablaqlar qoldiqi kiritiladi.

Qonunchilikka muvofiq byudjetdan tashqari mablaqlar bo'yicha smetalar qisobidan xodimlar birliklari saqlangan qollarda, smetaga mazkur Nizomning III bobida ko'rsatilgan tartibda tuzilgan shtatlar jadvali ilova qilinadi. Bunda, ro'yxatdan o'tkaziladigan byudjetdan tashqari mablaqlar bo'yicha smeta bilan birga shtatlar jadvali qam ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim qilinadi.

**Mavzu yuzasidan topshiriq**

—Blits-so_rovl metodi asosida quyidagi savollariga javob qaytaring:

1.Xarajatlar smetasini tuzish tartibi haqida tushuncha bering?

2. Xarajatlar smetasini ko'rib chiqish deganda nima nazarda tutiladi?

3. Xarajatlar smetasini tasdiqlash vazifalari nimalardan iborat?

4. Byudjetdan tashqari mablaqlar bo'yicha smetalarni tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibini izohlab bering?

**Amaliy mashg'ulot. MTTda ta'lim tarbiya jarayonini rejalashtirish**

**Ishning maqsadi:** Maktabgacha ta'lim muassasalarda ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish bo'yicha metodik ko'rsatmalar: tarbiyachilarning ish hujjatlari va ularning yuritilishi,har bir yosh guruhida hafta davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni va har bir mashg'ulot qancha davom etishi, bir xaftalik rejaning yoritilishi, faoliyat markazlarida ishlashni rejalashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish xaritasi taxlilini belgilash tartibi, bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish usullarini yoritib berish.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni bilim darajasini ko'tarish uchun avvalo pedagoglar kasb salohiyatini oshirish, ta'lim jarayoni mazmuni va sifatini takomillashtirish, ota-onalar o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini jonlantirish zarur. Maktabgacha yoshdanoq bolalarda tegishli hajmda bilim, ko'nikma, malakalari hosil qilinadi.

**05-03** Bolalar davomatini qayd etish daftari (tabelь, filьtr, patronaj va ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar) Tarbiyachi tomonidan yuritiladigan tabelь, filьtr va patronaj daftari bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, ular bolalarni qabul qilish va qatnovini nazorat qiluvchi xujjatlar hisoblanadi. Daftarda ota-onalar haqidagi ma'lumotlar ham kayd etiladi. Daftarlar umumiy bitta bo'lishi èki 4 ta daftar alohida yuritilishi mumkin, alohida yuritilganda, ularning har biriga 05-03 raqami qo'yiladi. Daftarlarning yuritilish tartibi quyidagicha:

**Bolalar davomatini qayd etish daftari** èsh guruhlarida bolalar qatnovini har kuni soat 9.00 dan kechiktirmay belgilab boriladi va kelgan bolalarning umumiy soni chiqarib qo'yiladi. Oy yakunida ro'yhatdagi bolalar kelgan, kelmagan kunlarining umumiy soni chiqariladi va natijalar umumlashtiriladi. Tahlilda ro'yhat bo'yicha bolalar soni, ushbu oy davomida kelgan va umuman kelmagan bolalarning aniq soni èziladi. Ushbu tahlil asosida bola kuni bajarilishi aniqlanadi. Umumiy bolalar kuni va bola kelmagan kunlarning sababli va sababsiz soni èziladi. Tahlil qilgan tarbiyachining familiyasi va imzosi, hamshira tomonidan bolalar sonining xaqqoniyligini tasdiqlab imzo qo'yiladi. Tashkilot rahbari oy davomida yuritilgan davomat va tahlilni nazoratdan o'tkazib, imzo va muxr qo'yadi.

Tabelь daftari tikilgan, sahifalangan, muxrlangan, rahbar tomonidan imzolangan bo'lishi kerak

**Filьtr daftari:** Tarbiyachi bolalarni qabul qilish vaqtida har bir bolaning ota- onasi bilan bola salomatligi haqida qisqacha suhbatlashadi, birlamchi tibbiy nazoratdan o'tkazadi. Filьtr daftarida tana harorati, teri tozaligi, bosh tozaligi(pedikulèzga tekshiruv) va ota-onadan olingan so'rovnoma natijalari belgilanadi. Bolaning filьtr nazorati ota-ona oldida o'tkaziladi.

Bola uch kun kelmagan takdirda filьtr nazoratini tashkilotning tibbièt xodimlari tomonidan o'tkazilishi va ota-onadan bolaning tashkilotga kelmaganlik sababini tasdiqlovchi tegishli xududiy davolash muassasasi tomonidan berilgan maxsus shakldagi tibbiy ma'lumotnoma taqdim etilishi talab etiladi. Filьtr daftari tikilgan, sahifalangan, muxrlangan, rahbar tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

**Patronaj daftari:** har bir èsh guruhida tarbiyachi tomonidan oyma-oy yuritiladi. Bola tashkilotga kelmagan kunlarning uchinchi kuni tarbiyachi oilaga tashrif buyurib (èki telefon orqali), bolaning tashkilotga kelmaslik sababini aniqlaydi. Bola uzoq muddat kelmagan taqdirda, kelmagan kunlarning

ettinchi kuni ikkinchi patronaj va o'n to'rtinchi kuni uchinchi patronajning o'tkazilishi va har bir patronaj qilingan kunning sanasi hamda kelmaslik sababi èzib borilishi lozim. Uch kun va undan ortiq tashkilotga qatnamagan bolaning tashkilotga kelgan kuni maktabgacha ta'lim tashkiloti tibbièt xodimi(shifokori èki hamshirasi) tomonidan kelmagan kunlar uchun taqdim etilgan tibbiy ma'lumotnoma asosida nazoratdan o'tkazib, qabul qilishnishi va patronaj daftariga imzo qo'yiladi. Bola keyingi oy ham tashkilotga kelmagan holatda tarbiyachi ushbu bolani yana belgilangan tartibda patronaj daftariga ro'yhatga oladi. Patronaj daftari tikilgan, sahifalangan, muxrlangan, rahbar tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

Ota-onalar haqidagi ma'lumotlar daftari: ushbu daftarga bolaning familiyasi, ismi, sharifi, tug'ilgan sanasi, uy manzili, telefon raqami, ota-onasining familiyasi, ismi, otasining ismi, ularning ish joylari haqidagi ma'lumotlar kiritiladi va qo'shimcha ma'lumotlar olinganda, daftarga qayd etib boriladi. Ota-onalar haqidagi ma'lumotlar daftari tikilgan, sahifalangan, muxrlangan, rahbar tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

**05-04. Bolalarning rivojlanish xaritalari** Guruhdagi bolalarning rivojlanish xaritasini to'ldirish uchun uchs s ikldan iborat bo'lgan kuzatuv olib boriladi: dastlabki (o'quv yili boshida), oraliq va yakuniy.

Dastlabki kuzatuv o'quv yili boshida o'tkaziladi (taxminan sentyabrь oyi mobaynida). Bu bosqichda har bir bolaning boshlang'ich imkoniyatlari aniqlanadi, uning shu davrgacha erishgan yutuqlari belgilanadi. Tarbiyachi ta'lim soxalarini o'zlashtirish bo'yicha mavjud bo'lgan muammolarga ham e'tibor qaratadi, bolaning qanday sifatlari qo'llab-quvvatlashni talab etishini, har bir bola uchun qanday vazifalar dolzarbligini aniqlaydi. Keyin bolaning ayni davrdagi èshini xisobga olgan holda uning rivojlanish soxalari bo'yicha yutuklari haritasi to'ldiriladi.

Oraliq kuzatuv birinchi yarim yillik oxirida (dekabrь, yanvarь) o'tkaziladi. Bu monitoringni o'tkazishdan maqsad bolaga nisbatan tanlangan metodikaning tug'riligini aniqlash, rivojlanish dinamikasini belgilashdan iborat. Mazkur kuzatuv natijalariga ko'ra, tarbiyachi boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda, zarurat tug'ilgan holatlarda pedagogika jaraèniga tuzatishlar kiritishi mumkin.

O'quv yili oxirida (may oyida) tarbiyachi yakuniy kuzatuv o'tkazadi.

Mazkur kuzatuv asosida yil boshida qo'yilgan vazifalar qanday xal qilingani baholanadi, mazkur bola rivojida kutilaètgan yangi natijalarni hisobga



olgan holda keyingi pedagogik jaraèndan ko'zda tutiladigan maqsadlar belgilanadi.

Kuzatuv o'tkazishda quyidagi tamoyillarga tayanish lozim:

- kuzatuv bola uchun odatiy sharoitda amalga oshiriladi va bolaga èrdam berishga yo'naltirilgan bo'ladi;
- bola rivoji borasida yanada holis tasavvur hosil qilish uchun kuzatuv kamida ikki hafta (*yoki oy*) mobaynida olib boriladi;
- tarbiyachi bola to'g'risidagi ma'lumotlarni ota-onalar èki muassasaning boshqa xodimlari bilan suhbatlar jaraènida olishi mumkin;
- tarbiyachi bolaning moyilliklari, qiziqishlariga, uning muloqot qilish va bilim olish xususiyatlariga e'tibor qaratishi lozim.

**O'quv yili oxirida** tarbiyachi yakuniy pedagogik kengashiga bolalar tomonidan o'quv dasturi o'zlashtirilishining sifat darajasi to'g'risida hisobot èzadi va unda bolalar tomonidan tegishli natijalarga erishilmagan bandlar hamda ular nega bajarilmaganligi sabablariga to'xtalib o'tadi (ba'zi metodikalar o'zlashtirilmagani, tarqatma materiallar, adabiètlarning etarli bo'lmagani, guruh texnika vositalari bilan etarli darajada ta'minlanmagani, bolaning betob bo'lgani va darslarni o'tkazib yuborgani, ota-onalarning faol bo'magani va h.k.). Ushbu natijalar asosida sabablarni bartaraf etish borasidagi ishlar rejalashtiriladi va mazkur guruh uchun kelasi yilga mo'ljallangan vazifalar belgilanadi.

Keyinchalik pedagog (tarbiyachi) bola yutuqlari haritasini yiliga kamida 3 marta to'ldiradi va erishilgan natijani tegishli belgi (✔) bilan belgilaydi. Kuzatuv rivojlanishning barcha sohalari bo'yicha olib boriladi. Agar u èki bu bilim olish sohasida indikator «ishlamasa», pedagog (tarbiyachi) daftar hoshiyalariga tegishli belgilar qo'yishi lozim. Bu bola rivojlanishini kuzatish kundaligini yuritishda èrdam beradi. Mazkur tashxis (diagnostika) asosida pedagog (tarbiyachi) ruhshunos (psiholog), logoped, jismoniy tarbiya bo'yicha yo'riqchi va boshqalar bilan hamkorlikda bolaning yutuqlarini ajratadi, shuningdek, ta'lim sohalarini o'zlashtirishning salbiy tomonlarini aniqlaydi. Olingan natijalarga mos ravishda ta'lim jaraèniga tuzatishlar kiritiladi, shuningdek, individual ish rejalashtiriladi va uni amalga oshirish borasidagi vazifalar belgilanadi. O'quv yili oxirida (odatda may oyida) ushbu harita bo'yicha yakuniy kuzatuv o'tkaziladi.

**3 dan 5 èshgacha bo'lgan bolaning rivojlanish haritasi** Bolaning familiyasi, ismi ______________________________

Tug'ilgan sanasi ______________________________

MTMga qabul qilingan sana ______________________________

Kuzatuv boshlangan sana________________________________

Kuzatuv boshidagi èshi__________________________________

Kuzatuv yakuni sanasi__________________________________

**1 Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish**

**1.1 *Yirik motorika***

1 Turli usullarda yuradi (to'g'ri, erkin, ko'rsatilgan yo'nalishda)

2 Muvozanatni saqlagan holda chopadi

3 O'z joyida ikki oèqda sakraydi

4 Oldinga harakatlangan holda sakraydi

5 YOy ostidan emaklab o'tadi

6 Badantarbiya vaqtidagi mashqlarni qaytaradi

7 Uch g'ildirakli velosipedda uchadi

8 Sport narvoni bo'ylab yuqoriga va pastga

9 Kolonna, doiraga to'g'rilanishi mumkin

10 Oèq uchida, tovonda, orqa bilan, oèq kaftining tashqi tomonida va tizzasini baland ko'targan holda yuradi

**6-7 èshdagi bolaning maktabga tayèrlik haritasi**

**№ Rivojlanishning kutilaètgan natijasi Bajaradi**

**doimo ko'pincha ba'zan Hech qachon**

**1 Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish**

1.1 o'z imkoniyatlari va èshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish me'èrlariga mos ravishda jismoniy faollik ko'rsatadi

1.2 turli harakatchanlik faolligini uyg'un ravishda va maqsadli bajarishni biladi

1.3 turli haètiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan foydalanadi

1.4 o'z harakatlarini hissièt va sezgi organlari èrdamida boshqaradi

1.5 shaxsiy gigiena ko'nikmalarini qo'llaydi

1.6 xavfsiz haètiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi

**2 Ijtimoiy-hissiyrivojlanish**

2.1 o'z «Men»i va boshqa insonlarning haètiy
faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi



2.2 o'z hissiètlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi

2.3 o'zgalarning hissiètlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi

2.4 kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi

2.5 murakkab vaziyatlardan amaliy chiqish yo'llarini topadi

**3 Nutq, muloqot, o'qish va èzish ko'nikmalari**

3.1 nutqni eshitadi va tushunadi

3.2 o'z nutqida to'g'ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi

3.3 ikkinchi tilni o'rganishga qiziqish namoèn qiladi

3.4 ikkinchi tilni egallash bo'yicha dastlabki bilimlarini ko'rsatadi

3.5 badiiy adabièt asarlariga qiziqish namoèn qiladi

3.6 so'zning lug'aviy, bo'g'inli va fonetik to'zilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi

3.7 turli ma'no shakllarini mustaqil ravishda to'zish va so'zlab berishni biladi

3.8 èzishning dastlabki ko'nikmalari va vositalaridan foydalanishni biladi

**4 Bilim olish jaraènining rivojlanishi**

4.1 bilim olishga faol qiziqishni namoèn etadi

4.2 o'quv va haètiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi

4.3 predmetlar, voqealar va ko'rinishlar o'rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi

4.4 raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni haètda qo'llaydi

4.5 makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi

4.6 elementar matematikhisoblashlarni amalga oshiradi

4.7 atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko'rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi

4.8 atrof-muhitga nisbatan ehtiètkorona va g'amxo'r munosabatni namoèn etadi

**5 Ijodkorlik**

5.1 san'at va madaniyatga qiziqish bildiradi

5.2 milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik haètning bir qismi sifatida idrok etadi

5.3 milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik haètning bir qismi sifatida idrok etadi

5.4 olingan bilim va ko'nikmalardan turli haètiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini to'zish va tatbiq qilish uchun foydalanadi

5.5 insonning dunèni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi

MTTdagi bolalarning maktabga tayèrligiga oid mazkur harita ta'lim jaraènining muvaffaqiyatliligi va samaradorligini aniqlash, pedagoglarning professional malakasini oshirish, ta'lim jaraèni holati sifatini boshqarish imkonini beradi.

O'quv yili yakuniga etganidan so'ng maktabga tayèrlov guruhi bo'yicha o'tkazilgan monitoringga asosan amalga oshirilgan ishlar samaradorligi aniqlanadi, kutilaètgan natijalar bilan taqqoslash ishlari o'tkaziladi, muammolar, ularni hal qilish yo'llari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotining keyingi o'quv yiliga mo'ljallangan ustuvor vazifalari belgilanadi.

**05-05. Pedagoglar bilan o'zaro hamkorlik ish rejasi** Ushbu hamkorlik rejasi mutaxassislar orasida o'zaro yuritilib, bir-birlarini to'ldirishga qaratilgan. YA'ni, tarbiyachi tashkilotda faoliyat yuritaètgan pedagoglar, ota-onalar, bolalar hamda xodimlar uchun turli xildagi tavsiya, mahorat maktablari, trening mashg'ulotlari, faoliyatlari davomida uchrashi mumkin bo'lgan noxush holatlarning oldini olish, ishlash uchun qulay sharoit yaratish bo'yicha bir yillik reja tuziladi.

Ushbu rejani bajarish mutaxassislar hamkorligida amalga oshirilishi lozim.

*Namuna* **T.r Reja mavzusi Muddat Utkazish shakli Bajarilganligi haqida ma'lumot**

**Nazorat savollari**

1. Ta'lim - tarbiya jarayoni nima maqsadda rejalashtiriladi? 2. Rejalashtirishning afzalliklari nimada?

3. Tarbiyachining qanday ish hujjatlari bor va ular qanday yuritiladi? 4. Turli guruhlarda mashg'ulot jadvallari qanday tuziladi?

**Mudira ishining mazmuni . Mudiraning tarbiyaviy ishlarga rahbarlik qilishi. ( 4 soat amaliy)**

**Ishning maqsadi:** Talabalarni mudira ishining mazmuni, mudiraning tarbiyaviy ishlarga rahbarlik qilishi, Mudiraning lavozim tasniflarni va majburiyatlarni, tarbiyalanuvchilarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish vazifalarni o'rganadilar;

**Kutiladigan natija:** Talabalar tashkilotni rivojlantirish yuzasidan istikbol yo'nalishlarini belgilash bo'yicha ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishni o'rganib oladilar, maktabgacha ta'lim soxasiga oid normativ-xujjatlarni



amaliyotga to'laqonli tatbiq etish ko'nikmalari shakllanadi va faoliyatida qo'llaydilar.

**Jihoz:** Tarqatmalar, rasmlar va markerlar.

**Dars metodi:** —CHorraxal metodi, —CHarxpalakl texnologiyasi **Amaliy topshiriq:**

1. —CHorraxal metodi orqali savol-javob o'tkazish.
2. —Mudiraning tarbiyaviy ishlarga rahbarlik qilishi bo'yicha fikrlaringiz.

Talabalar fikri yig'iladi. Tahlil qilinadi.

—CHarxpalakl texnologiyasi. Talabalar qaysi guruhda ishlashlariga qarab guruhlarga ajratiladi. Tarqatma material beriladi.

Har qaysi guruh dasturda berilgan ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishda usullaridan foydalanish. Mudira ish faoliyatini o'rganadilar. Taqdimot o'tkaziladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining faoliyatiga umumiy raxbarlik qilish; Maktabgacha ta'lim tashkiloti mudiri u faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi,Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenta farmon, farmoyishlari va qarorlari, Xukumat qaror va farmoyishlarini, davlat dasturlari asosida kabul kilingan Maktabgacha ta'limi vazirligi (keyingi o'rinlarda —Vazirlikldeb yuritiladi) hamda uning xududiy boshqaruv organlari, buysinuviga qarab Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, Toshkent shahar va viloyatlar xokimlari (keyingi urinlarda —Maxalliy xokimiyat organlaril deb yuritiladi)ning karorlari, buyruqlari, tadbirlari va bopща xujjatlarda maktabgacha ta'lim tashkiloti (keyingi urinlarda —tashkilotl deb yuritiladi)ga berilgan tegishli ijrosini tulik bajarilishini ta'minlash. Tashkilotning Ustaviga muvofiq faoliyatini tashkil etish; tashkilot joylashgan xududda maktabgacha ta'lim tashkillotlarni takomillashtirish, tashkilotning moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash faoliyatini samarali tashkil etish; tashkilotni yuqori kompetentli, maxoratli va malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash; bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish; maktabgacha ta'lim soxdsiga oid normativ-xujjatlarni amaliyotga tulakonli tatbik etish; tuman (shaxdr) maktabgacha ta'lim bo'limining Kengashi, ishlab chiqarish yig'ilishlarida, Maxalliy xokimiyat organlari yig'ilishlarida ishtirok etish hamda ularga tashkilot faoliyatiga

taallukli masalalar bo'yicha xujjatlarni tayyorlash va tizimni rivojlantirish yuzasidan takliflar kiritish;MTT faoliyatini rejalashtirish, yillik va istikbol ish rejalarini ishlab chikish; MTTning ish rejalari, ukuv-mavzu rejalari, yillik takvim ukuv dasturlarini tasdiklash; tashkilot pedagog va mutaxassislarining ish rejalarini ko'rib chikish va tasdiklash, ularni tulakonli va sifatli ijro etilishi ustidan nazorat olib borish; tashkilotni rivojlantirish yuzasidan istikbol yo'nalishlarini belgilash bo'yicha buyruqlar kabul qilish, ularni tuman (shaxar) maktabgacha ta'lim bo'limining ish rejasi bilan muvofiklashtirish; vakolati doirasida xodimlarni ishga kabul qilish va mexnat shartnomasini bekor qilish va mexnat munosabatlari yuzasidan tegishli buyruqlarni chiqarish; xududda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish manfaatlari yo'lida maxalla fuqarolar yig'inlari, xuquqni muxofaza qiluvchi va jamoat tashkilotlari hamda xududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar bilan o'rnatilgan tartibda o'zaro hamkorliklarni yo'lga qo'yish; maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'limga qamrovini oshirish, ayniksa 6 yoshli bolalarni to'liq qamrab olish orqali boshlangich ta'limga sifatli tayyorlash choralarini ko'rish;

Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogika va axborot texnologiyalarini xususan, tashkilot faoliyatida maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimi (EMIS)ni joriy etish;

Maktabgacha ta'lim tashkiloti, uning tarbiyalanuvchilari, pedagoglari va ta'lim-tarbiya jarayoni tugrisidagi axborotlarni o'z vaqtida muntazam ravishda maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot tizimi (EMIS)ra kiritib borish;

Tashkilotga bolalarni kabul qilish, kabul kilingan bolalar yoshi va kontingentidan kelib chikib, xar yilning avgust oyida buyruq asosida yosh guruxlarni shakllantirish;

Tashkilot tomonidan dam olish kunlarida va ish vakti tugagandan sung belgilangan dasturdan tashkari faoliyat ixtisosligi bo'yicha qo'shimcha pullik xizmatlar ko'rsatish (bola parvarishlash, karab turish, maktab ta'limiga tayyorlash va bonшalar) bo'yicha ota- onalardan so'rovnomalar o'tkazish va so'rovnoma natijalariga ko'ra pullik xizmat ko'rsatilishini yo'lga qo'yish;

ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda umumiy asosiy kompetentsiyalar va rivojlanish sohalari kompetentsiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratish;

tashkilotning pedagogik kengashi va umumiy ishlab chikarish yig'ilishlariga

raislik qilish; tashkilot —Ko'zatuv kengashilning dastlabki yig'ilishini tashkil



etish, —Ko'zatuv kengashilga tashkilot faoliyatini takomillashtirish,

xolati, daromadlar va xarajatlar, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'laridan foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berib borish;

—Ko'zatuv kengashil bilan tashkilotda faoliyat ko'rsatayotgan ilg'or ish tajribali, faol xodimlarni rag'batlantirish yuzasidan tuman (shaxar) maktabgacha ta'lim bo'limiga taklif kiritish;

tashkilotni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mablag' xisobini qilish va yillik xarajatlar smetasini to'zilishida tuman (shaxar) bo'limiga taklif kiritish;

tashkilot binosini ta'mirlash va jixozlash uchun mablag' ajratilishi yuzasidan tuman (shaxar) maktabgacha ta'lim bo'limiga gakliflar kiritish;

Maktabgacha ta'lim jamg'armasi tomonidan ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogika va axborot texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, faoliyatni

takomillashtirishga yo'naltiriladigan tadbirlarni tashkil etishga ajratiladigan mablag'larning samarali va li sarflanishini ta'minlash;

Tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoniga —O'zbekiston Respublikasining ilk va

maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga kuyiladigan Davlat talablaril hamda davlat o'quv dasturlarini joriy etilishi hamda mazkur xujjatlarda belgilangan vazifalarning to'laqonli bajarilishida pedagog va xodimlarning mas'uliyati va javobgarligini oshirish;

maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogika va axborot texnologiyalarni joriy etilishini ta'minlash;

xorijiy ilg'or ish tajribalarni urganish va amaliyotga tatbik; etish yuzasidan pedagoglarga maslahatlar va ko'rsatmalar berish;

tashkilotda ochiq mashg'ulotlar, seminarlar, ko'rik-tanlov, musobaqalar o'tkazishga raxbarlik qilish;

tashkilotda huquqbo'zarlik, uyushgan jinoyatchilik, korruptsiya, giyoxvandlik va boshqa zararli odatlardan saqlanish, uning oldini olish choralarini ko'rish bo'yicha ota-onalar va jamoatchilik urtasida keng qamrovli targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirish;

jamoada —Ichki mexnat tartibi qoidalaril va —Jamoat shartnomasilga qat'iy rioya etilishini ta'minlash, sog'lom rakobatli muxitni yaratish;

tashkilot xodimlari urtasidagi vazifalar taksimotini belgilash, zaruriyatga qarab tegishli o'zgartirishlar kiritish, ish taqsimoti asosida xodimlarining huquq va majburiyatlarini belgilash;

tashkilot xodimlariga vakolati doirasida topshiriqlar berish va ularning

bajarilishini nazorat qilish, xodimlarning kasbiy va metodik salohiyatini oshirish choralarini tashkil etish;

tashkilot faoliyatiga tegishli barcha axborotlarni tahlil qilish, xisobotlar tayyorlash va ijro intizomini doimiy nazorat qilish;

ish yuritish va xujjatlar aylanish tizimi asosida tuman (shaxar) maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan berilgan xujjatlar va topshiriklarning o'z vaktida ijro etilishini, xujjatlar aylanishi, taxlil va nazorat qilishning yagona tizimini amalga oshirilishini ta'minlash;

tashkilot pedagog va mutaxassis kadrlarni kayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xodimlar attestatsiyasini hamda ular tomonidan mexnat intizomiga rioya kilinishini nazorat qilish;

o'z vakolati doirasida eng faollarini rag'batlantirish, intizomiy jazo choralarini qo'llash masalalarini ko'rib chikish, jamoada sog'lom ma'naviy muxitni shakllantirish;

tashkilot ilg'or tajribali pedagog kadrlar nomzodini Davlat mukofotlari bilan takdirlashga tuman (shaxar) maktabgacha ta'lim bo'limiga taklif kiritish;

tashkilotda sog'lom va xavfsiz ratsional ovqatlantirish ishlarini tashkil etish hamda sanitariya qoidalariga mos ravishda ovqatlantirishni tashkil etish uchun zarurbo'lgan mablag' ajratish choralarini ko'rish;

tashkilot brokeraj komissiyasi faoliyatini nazorat qilish;

tashkilot faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq murojaatlar bo'yicha fukarolarni qabul qilish, tashkilotga kelib tushgan xat, ariza va shikoyatlar hamda murojaatlarni belgilangan tartibda ko'rib chikish va ijrosini \

to'liq ta'minlash;

maktabgacha ta'lim tashkilotda sifatli tibbiy xizmatni tashkil etish; xududiy sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda ishlash;

tashkilot xodimlari va tarbiyalanuvchilarining tibbiy ko'rikdan o'tkazilishini nazorat qilish;

oilada bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ota-onalar bilan ishlash;

tashkilotda sanitariya qoidalari va gigiena normalariga, mexnatni muxofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilishni ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim tizimiga oid normativ-huquqiy xujjatlar va ularning mazmun-moxiyatini;

Maktabgacha ta'lim pedatogikasi, psixologiyasi va maktabgacha yoshdagi bolalar fiziologiyasini;

tuman (shaxar) maktabgacha ta'lim bo'limi bilan faoliyat uzviyligini ta'minlashni;

maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish manfaatlari yo'lida maxalliy



xokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari, ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish usullarini;

bolaning individual extiyojlarini xisobga olgan xolda ―Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari‖ hamda ―Ilk qadam‖ davlat o'quv dasturi va variativ (muqobil) dasturlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalarini amaliyotga tatbiq etish va o'zluksiz takomillashtirib borish yo'llarini;

tashkilot xodimlariga yuklatilgan vazifalarning o'z vaqtida, sifatli bajarilishini nazorat qilishni, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish usullari, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibini;

jamoa shartnomasida belgilangan talablarga qat'iy rioya etish hamda jamoada sog'lom raqobatli ma'naviy-muxitni shakllantirish, ahillik va inoqlikni mustaxkamlash orqali faoliyat yuritishni;

O'zbekiston Respublikasining sanitariya-gigiena talablariga, mexnat konunchiligi asoslariga, mexnatni muxofaza qilish, texnika va yongin xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni.

ta'lim va moddiy-texnika bazasini buxgalteriya xisobi, saqlash va to'ldirish, sanitariya-gigiena va mexnat muxofazasi qoidalarini bajarish, xujjatlarni xisobga olish va saqlash, MTTning Ustavida belgilangan faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha moddiy va moliyaviy resurslarni jalb kilinishini ta'minlash.


















**Amaliy mashg'ulot. Uslubchining liderlik va rahbarlik xususiyatlari. (4 soat amaliy)**

**Ishning maqsadi:** Talabalarni uslubchining liderlik va rahbarlik xususiyatlari tarbiyaviy ishlarga rahbarlik qilishi, uslubchining lavozim tasniflarni va majburiyatlarni, tarbiyalanuvchilarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish vazifalarni o'rganadilar;

**Kutiladigan natija:** Talabalar tashkilotni rivojlantirish yuzasidan istikbol yo'nalishlarini belgilash bo'yicha ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishni o'rganib oladilar, maktabgacha ta'lim soxasiga oid normativ-xujjatlarni amaliyotga to'laqonli tatbiq etish ko'nikmalari shakllanadi va faoliyatida qo'llaydilar.

**Jihoz:** Tarqatmalar, rasmlar va markerlar. **Dars metodi:** —Blits so'rovl metodi,

Amaliy topshiriq:

1. Keys stadi metodi
2. Ijodiy ish. Mavzu yuzasidan krasvord tuzish

Katta tarbiyachi:

maktabgacha bolalar tashkilotidagi ta'lim-tarbiyaviy ishga metodik rahbarlikni amalga oshiradi;

Davlat talablarilning bajarilishini ta'minlaydi va nazorat qiladi, ta'lim-tarbiyaviy ishning tog'ri uyushtirilishi uchun javobgar;

ilgor pedagogik tajribani o'rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi, pedagogik

kengashda ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi; maktabgacha ta'lim tashkilotidagi metodik kabinetning ishini tashkil qiladi; bolalarning yoshlariga muvofiq pedagogik qo'llanmalar va o'yinchoqlarni tanlaydi.

Ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni tatbiq qilish, turli yosh guruhlari tarbiyachilari, shuningdek maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab ishida ketma-ketlilikni ta'minlash bo'yicha ishni uyushtiradi.

Katta tarbiyachi oliy pedagogik ma'lumotga (maktabgacha pedagogika fakulteti) ega bo'lgan pedagog tayinlanadi.

O'z hamkasblarining xurmatini qozonishi va ularga o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlarida yordam berish uchun katta tarbiyachi qanday rahbarlik sifatlariga ega bo'lishi kerak?

Katta tarbiyachi faqat yaxshi nazariy tayyorgarlikkagina emas, balki bilimlarni amalda ko'llash ko'nikmasiga xam ega bo'lishi zarur.

Tajribali katta tarbiyachining tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondoshishi:

g'oyalarini umumlashtira bilish, maqsadga muvofiq ishlash, xar bir tarbiyachining imkoniyat va qobiliyatlarini xisobga olishga qarab farqlanadi. Katta tarbiyachi talablarni qo'yishda talabchan va qat'iy bo'lishi kerak.

Rahbarning o'ziga buysinuvchilar bilan muloqotning emotsional-irodaviy tomonini ifodolovchi bu sifatlar rahbarlik uslubining muhim xislatini - talabchanlikni xosil qiladi. Yuksak talabchanlikni sezgirlik, xayrixoxlik, odamlarga xurmat bilan birga kushib olib borish zarur.

Talabchanlik – bu qattiqqullik degan gap emas. Buyruqlar, qattiq tanbexlar, xayfsanlarning foydasidan ko'ra zarari ko'proq va bu odatda rahbarning kuchligidan emas, balki zaifligidan dalolat beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim-tarbiyaviy faoliyatining samaradorligi, uning obro'si ko'p jixatdan pedagoglar kollektivining jipslashganligiga, eng avvalo butun maktabgacha tashkilot rahbari yadrosida birlik va o'zaro tushunishning mavjudligiga bogliq bo'ladi.

Tarbiyachilarning aniq intizomi va ishda uyushqoqligini ta'minlash; kollektivda jamoatchilik fikrini, tarbiyachilarning bir-birlarining kamchiliklariga tanqidiy munosabatini shakllantirish, mexnat aktivligi va ijodiy ishlash extiyojini rag'batlantirish; qabul qilingan qarorlar yechimini ta'minlash kabi sotsial – psixologik masalalarini xal qilish katta tarbiyachi uchun birmuncha murakkablik qiladi.

Xar bir yosh mutaxassis – ishini endi boshlayotgan yosh tarbiyachi maslshatlar olib turishi uchun unga murabbiy – tajribalirokqva obro'liroq tarbiyachini biriktirish lozim.

Yosh mutaxassisning kasb maxoratini egallab olishi osonlik bilan



bo'lmaydi. Mana shuning uchun ham yosh pedagogni ishning ilg'or metodlari va usullarini egallashga, o'z bilimlarini doimo to'ldirib borishga, erishilganlar bilan cheklanmay, tarbiya sirlarini egallash ishtiyoqini singdirishga yo'llash katta tarbiyachining vazifasi hisoblanadi.

Katta tarbiyachining doimiy xujjatlari qatoriga guruhlardagi ta'lim-tarbiyaviy va sog'lomlashtirish ishlarini nazorat qilish daftari (jurnali) ham kiradi. Unda katta tarbiyachi uzining guruhlarda bolalarning oquv, o'yin, mexnat faoliyatlarini o'rganishga doir ishini; tarbiyachilar ishining sifatini;

bolalarning dasturining turli bo'limlari bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarining analizi; bolalarning xulq-atvor madaniyati, ma'naviy-irodaviy sifatlarini, kollektivda yashash ko'nikmalarini egallaganlik darajalari va shu kabilarni aks ettiradi. Katta tarbiyachi tarbiyachilar ishidagi ijobiy momentlarni va kamchiliklarni qayd etadi, ularning qiyinchiliklari va muvaffaqiyatsizliklari sabablarini analiz qiladi hamda ishni yaxshilashning konkret yo'llarini ko'rsatadi.

Pedagogik kengash kollektiv pedagoglari fikrini ifodalovchi, bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy masalalarni kollegial ko'rib chiqadigan doimiy ishlovchi organ, metodik maxorat maktabi va ilgor tajriba minbaridir.

Maktabgacha ta'lim tashkilot mudiri pedagogik kengash raisi xisoblanadi. Pedagogik kengashga quyidagi masalalar: bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar darajasini oshirish, ularni xal qilish yo'llarini izlash; tashkilot ish tajribasiga pedagogika fanining yutuqlari va ilg'or pedagoglar tajribasini joriy qilish; tarbiyachilarning pedagoglik mahoratini oshirish, ularning ijodiy aktivligini rivojlantirish kiritiladi.

Pedagogik kengash: Maktabgacha ta'limi Vazirligi, maktabgacha ta'lim bo'yicha buyruq, nizom va boshqa normativ xujjatlarini; maktabgacha tashkilotning yillik ish rejasini; bolalar sogligini mustaxkamlash tadbirlarini; xar bir yosh guruhi bo'yicha «Ilk qadam davlat o'quv dasturi »ning sifatli bajarilishi jarayonini; ish tajribasiga joriy qilish maqsadida tarbiyachilarning ilg'or tajribalarini; maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishning aktual masalalarini, tarbiyachilarning nazariy va metodik tayorgarliklarini oshirish masalalarini va maktabgacha tashkilot faoliyatining boshqa masalalarini muxokama qiladi.

Pedagogik kengashlar kun tartibini belgilashda barcha qatnashchilarni qiziqtiruvchi tematikning tematikaning kengligini aktualligini ta'minlash zarur. Faqat shundagina pedagogik kengashda ish muhiti xukm suradi, masalalar muxokamasi sermaxsul va aktiv bo'ladi.

Pedagogik kengash tarkibiga: katta tarbiyachi, tarbiyachilar, musiqa

rahbari, maktabgacha tashkilotga xizmat ko'rsatuvchi vrach, katta xamshira, kasaba uyushmasi, ota-onalar komitetining raisi kiradi. Pedagogik kengash yig'ilishiga jamoat tashkilotlarining vakillari, maktablar o'qituvchilari, maktabgacha tashkilotda tarbiyanuvchilarning ota-onalari taklif etilishi mumkin.

Pedagogik kengash maktabgacha tashkilotning yillik ish rejasiga kiritilgan va pedagoglar pedagogik kengash tomonidan tasdiqlangan reja bo'yicha ishlaydilar.

Pedagogik kengash ishning muvafaqiyat ko'p jixatdan pedagoglar jamoasi muhokamasiga qo'yilgan masala qanchalik savodli va jiddiy tayyorlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik kengashning yig'ilishi har kvartilda bir marta o'tkaziladi, zaruriyat tug'ilganda navbatdan tashqari yig'ilish chaqirilishi mumkin. Muxokamaga ko'pi bilan 2-3 masala qo'yiladi, pedagogik kengash ishdan tashqari vaqtda o'tkaziladi.

Pedagogik kengash qarorining loyihasini ma'ruzachi (MTT mudiri yoki katta tarbiyachi) oldindan tayyorlaydi.

**Ilg'or pedagogik tajribani umulashtirish.**

Tarbiyachilarning eng yaxshi tajribalarini o'rganish, barcha ilg'or tajribalarini analiz qilish va amaliyotga joriy etish maktabgacha talimda metodik ishining asosi bo'lishi kerak.Tajribani o'rganish va umumlashtirish guruhlardagi tarbiyaviy ishlar xolatini tizimli tarzda analiz qilinishini nazarda tutadi. Tajribani o'rganishning asosiy yo'llaridan biri guruhlarga rejali tarzda kirish va pedagogik jarayon xamda rejim momentlarining turli jixatlarini kuzatishdir. Ana shu kuzatishlar asosida tarbiyachining ishi, bolalarning xatti-xarakatlari va xilma-xil faoliyatlari xaqida tasavvur tarkib topadi.

Katta tarbiyachining kuzatishlari maxsus daftarida fotoyozuv, tanlab yozish va shu kabilar tarzida qayd etiladi.

**Pedagogik kabinetining ishi.**

Maktabgacha ta'limdagi butun metodik ishning markazi pedagogika kabinetidir. Pedagogik jarayoni uyushtirish, ota-onalar bilan ishlash, pedagogik maxoratlarini oshirish va mustaqil oqishlarini tashkil qilishda tarbiyachilarga amaliy yordam ko'rsatishdagi yetakchi rol pedagogika kabineti zimmasidadir.

Pedagogika kabineti bolalar tashkiloti an'analari jamg'ariladigan joydir. Metodistning vazifasi– jamgarilgan tajribaga «jon ato qilib» tushunarli qilish, tarbiyachilarni bolalar bilan ishlashda ularni ijodiy



qo'llashga o'rgatishdir. Pedagogika kabinetida to'g'ri yo'lga qo'yilgan ish barcha xodimlarning metodik tayorgarligini oshirishga, xususan, bolalarni xar tomonlama rivojlantirish vazifalarini xal qilishga yordam beradi.

Pedagogik kabinetining asosiy vazifasi metodik yordam ko'rsatish, ularning goyaviy-siyosiy va ilmiy-metodik saviyalarining, pedagogik mahoratlarining o'sishi uchun sharoit yaratishdir. Bolalar MTTdagi pedagogika kabineti, shuningdek ilg'or pedagogik tajriba to'planadigan, umumlashtiriladigan va tarqatadigan boshlang'ich markaz hamdir. Kabinetning muxim vazifalaridan biri tarbiyachilarga o'z mehnatlarini ilmiy asosda tashkil qilishlarida yordam ko'rsatishdir. Pedagogika kabineti bu vazifalarni xal etishi uchun metodist kabinetdagi materiallar mazmuniga oshirilgan talablar qo'yishi, uni tizimlashtirish va puxta o'ylab chiqishi kerak.

Pedagogika kabineti ishining eng muxim tomonlaridan biri maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlariga mustaqil o'qishlarini yaxshilashda yordam ko'rsatishdir.

Metodika kabineti ishida katta o'rinni yosh tarbiyachi bilan ishlash egallashi kerak.

**Mavzu yuzasidan topshiriq**

1. —Blits-so_rovl metodi asosida quyidagi savollariga javob qaytaring:
2. Katta – tarbiyachiga ta'rif bering?
3. Katta – tarbiyachining ta'lim tarbiyaviy ishlarga rahbarligini misollar bilan tushuntiring?
4. Ilg'or ish tajribalarni aniqlash usullari?
5. Pedagogik kengash nima va uni o'tkazishdagi katta tarbiyachining roli?
6. Pedagogik xodimlar bilan ishlash uslublarini yoriting?

**2. Keys bayoni**

Bolalar bogchasidagi rasm darsida tarbiyachi yozuv taxtasiga ikkita rasm chizib, bolalardan rasmning qay biri ularga yoqqanini so'radi. Bolalar rasmlarxaqidagi fikrlarini ketma-ket ifodalay boshlashdi. Navbat Boburga (4 yosh) kelganda, u ikkilanib qoldi. Tarbiyachi: - Vaqtimiz kam. Agar u senda bo'lsa, miyangni ishlatginda, tezrod javob ber! Bobur javob bera olmadi. Tarbiyachi unga —O'tir o'rningga!l, dedi va mashg'ulotni davom etgirdi. Bolalardan biri: —Voy, bilmasvoyl, -dedi.

**Keysga savol-vazifa:** Tarbiyachining xatti-harakatlarini baholang. **Tahlil:**

**3 - topshiriq Mavzu yuzasidan krasvord tuzing.**

**Nazorat qilishning usul va uslublari. Nazorat qilishda rahbarning boshqaruv uslubi.**

**Ishning maqsadi.** Talablarni maktabgacha ta'limi bo'limlari va

maktabgacha ta'lim tashkilotlarini nazorat kiliqning asosiy maksadi, vazifalari, ularni tashkil etish usul – uslublari bilan tanitirish, rahbarlik ustidan nazorat kilishga nisbatan qiziqish, ishlarga xolisona baxo berishning mohiyatini tushunishga o'rgatish. **Kutiladigan natija:** Talabalar tashkilotni rivojlantirish yo'zasidan istiqbol yo'nalishlarini belgilash bo'yicha ta'lim-ta'lim vazifalarini amalga oshirishni o'rganib oladilar, maktabgacha ta'lim sohasiga oid normativ-xujjatlarni amaliyotga to'laqonli tatbiq etish ko'nikmalari shakllanadi va faoliyatida qo'llaydilar.

**Jihoz:** Tarqatmalar, rasmlar va markerlar. **Dars metodi:** ―Blits so'rovl metodi,

Amaliy topshiriq:

1. Keys stadi metodi
2. Ijodiy ish.

Nazorat qilish – deganda – Davlat nazorati, maktabgacha ta'limi bo'limlari tomonidan rahbarlikning qaror formasiga aytiladi.

Bu – Mustaqil Davlatimizning qaror, xukumat, ko'rsatma, yo'l – yo'riqlarini, «Maktabgacha ta'limi to'g'risidagi Qonun» asoslarini bajarilishini, maktabgacha ta'limi yoki tashkilotlar tomonidan, maktabgacha ta'lim tizim ahvolini tekshirish, shuningdek, maktabgacha ta'lim bilan bog'liq bo'lgan ariza, imkoniyat, iltimoslarni tekshirishdir.

Bu - har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti ishidagi kamchiliklarni yo'qotish choralarini ko'ruvchi, pedagogik, ta'lim – ta'limviy, pedagogik ish sifatini o'stirishda aniq - amaliy yordam ko'rsatuvchi tekshirish formasidir. Uslubchi– nazorat qilishning metodologik asosini – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Maktabgacha ta'limni rivojlantirish Kontseptsiya»sida ko'rsatib berilgan ilmiy jixatdan asoslangan g'oyalar egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Davlat xokimiyatining tizimi - Xokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va uni nazorat qiluvchi printsiplariga asoslanadi. Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoy adolat va qonuniylik printsiplari asosida amalga oshira borib, maktabgacha ta'lmi bo'limlarida nazorat ishlarini amalga oshirishda asosiy negiz bo'lib xizmat qiladi.

Nazorat qilishda - qonunlarning ustunligi shuni anglatadiki, bunda barcha joriy qonunlar va me'yoriy - xuquqiy xujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofik bo'lishi talab etiladi.

Maktabgacha ta'lmi bo'limlarida – nazorat – amalga oshiradi Rahbar



faoliyatini baholovchi bosh mezon – uning ishini tashkil qila bilish qobiliyatidir. Rahbar ishini shunday tashkil qilsinki, odamlar: «Xa bu maktabgacha farovonligi yo'lida gamho'rlik qiluvchi va uni hamma narsadan yuksak qo'yuvchi rahbar, deya olsin».

Nazorat qilishda – boshqarishni obdon puxta o'ylangan tizimini ishlab chiqish, o'tmishni ma'suliyat bilan taxlil etish – kelajak yo'lini talab borishini, utkir muammolarni tortinchoklik bilan emas, balki ruyrost ochib tashlash kerakli uktiradi. «Eskicha yondashish, eskicha fikr yuritish zamonini bizlar unutishimiz lozim».

Nazorat qilishning asosiy vazifalari kuyidagiga:

- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishda eng yaxshi formalarin aniqlash va amaliyotga tatbik etish;
- Maktabgacha ta'lim boshqarish darajasini usirish;
- Maktabgacha ta'lim dasturi talabalarni amalga oshirish asosida maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishni davlat nazoratidan utkazish;
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ishini maksadga muvofik tekshirish;
- Ularning ishidagi kamchiliklarni yo'qotish choralarini topish va ularga amaliy yordam berish
- Ishdagi ijobiy tomonlarni o'rganish, umumlashtirish, ommalashtirish, ragbatlantirish;
- Rahbarning xodimlar bilan ishlash malakalarini usishtirish usishdan nazorat ishlarini tashkil etish;

Maktabgacha ta'lim xodimlariga ta'lim – ta'lim ishini yanada rivojlantirishda metodik yordam kursatishdan iboratdir.

Maktabgacha ta'limi Vazirligining Maktabgacha ta'lim boshkarmasi o'z kamogidagi avtonom, viloyat va ularning joylaridagi bo'limlarini, pedagogik bilim yurtlarini, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini nazorat qilish xukukiga egadir. Maktabgacha ta'limi bo'limlari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari nazorat qilish ilmiylik, xayot bilan boglik printsiplari asosida amalga oshiriladi. Aniqlangan kamchiliklarni to'zatish bo'yicha amaliy yordam kursatish hamda uning bajarilishini doimo tekshirib turish bilan yakunlanadi.

III. Nazorat qilishning samaradorligiga erishishning muxim talabalaridan:

- Tekshirishning rejali bulishi; va sistemaliligi.
- Ish axvolini analiz qilishning - har tomonlama va ilmiy – pedagogik chukurliligi;
- Ishlarga baxo berishning ob'ektivligi; va xulosalarning isbotlanganligi;

- Tekshirishni o'z vaktida boshlash va tugatish;
- Takliflarning bajarilishini nazorat;
- Kontrolning yordam berish bilan kushib olib borilishi;
- Har kaysi masalaga aloxida yondashish. (fark kilmok).
- Talabchanlik bilan pedagogik taktni kushib olib borish.

Tekshiruvchi shaxs shuni unutmasligi kerakki, tekshiruvchi – nazoratchiman deb magrurmasligi, - tekshiruvchi – rahbar xodimlarga kupol, kattikkul muomalada bulib, uning shaxsiyatiga tegmasligi;

Tekshirish natijada topilgan kamchiliklarni, hamkorlik printsipida xal etish

Eng muximi, Mexnat kollektivlarida ish olib boradigan maktabgacha nazoratchilarining keng tarmogiga tayanadigan bunday nazorat tizimi jamiyatining salbiy xodisalaridan musaffo qiladigan chinakam kudratli kuch bulishini ta'minlaydi.

Nazorat qilishini sistemali utkazish uchun (mavsumiy, doimiy yoki tashkilotlarga karashli bulgan) maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun inspektor – nazoratchi tomonidan 5 yilga muljallangan istikbol reja to'zilib, shahar yoki noxiya maktabgacha ta'limi mudiri tomonidan tasdiklanadi. Bunda tekshirish muddati aniq kursatiladi.

Asosan, nazorat qilishda turli shundagi, maxsus ahamiyatga molik bulgan tashkilotlar (akliy jixatdan, jismoniy jixatdan zaif, kamchiligi bulgan, nutkida kamchiligi bulgan), (logopedik), sanatoriya ishidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tekshirilib, nazorat qilish maksadi shu turiga karab belgilanadi. Nazorat qilish muddati: tashkilotdagi guruhlarning soniga karab, tekshirish turiga karab esa 10 kundan oshmasligi kerak.

SHahar, noxiya maktabgacha ta'limi bo'limlarini nazorat qilish 5 yilda bir marta utkaziladi. Nazorat qilish ishiga eng ilgor tajribali, o'z ishini ustasi bulgan maktabgacha ta'lim xodimlaridan iborat bulgan brigada sostavini to'zilib, bunda mudiralar, katta – ta'limlar, tarbiyachilar, meditsina – tibbiyot hamshiralari, metodik kabinet xodimlari, malaka oshirish instituti xodimlari, jamoatga nazoratchilardan tashkil topadi. Nazorat qilishning brigada sostavi – tarkibini, uning rejasini, muddatini tegishli maktabgacha ta'limi bo'limlari tomonidan tasdiklanadi.

Nazorat qilishga nazoratchining tayyorgarligi:

- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tekshirish oldidan tekshiriladigan tashkilotlari maktabgacha ta'limi bo'limlari tomonidan belgilanadi, buning uchun yuqori boshkarma tomonidan «Ruxsatnoma» xati olinadi.
- Bizning institutimiz tomonidan esa Toshkent shahar maktabgacha ta'limi maktabgacha ta'lim boshkarmasiga ma'lumotnoma yuboriladi.



Bunda tekshiriladigan noxiya, tashkilotlarning nomi-nomeri kursatiladi. Keyin Noxiya maktabgacha ta'limi bo'limi mudiri nomiga «Ruxsatnoma» xati olinadi

- Tekshirish shahar, xokimiyat – shahar kumitalari tomonidan bulsa, tekshirish uchun «eslatma-savollar» to'ziladi, shu orkali muassa ishi tekshiriladi.
- Tekshirishi lozim bulgan tashkilot xakida maktabgacha ta'limi bo'limidan ma'lumot olish; Bunda nazoratiga tashkilot xakida dastlabki ma'lumotlar berilib, bogchaning maktabgacha ta'limi mikyosida tutgan o'rin, uning butun faoliyatini aks ettiruvchi xujjatlar bilan tanishiladi;
- Tekshirish rejasi to'zilib, tekshirish muddati, kim tomonidan tekshirilayotganligi kursatiladi. (Bu talaba – amaliyotchilar uchun).

Nazorat qilishga tayyorgarlik bu – davlatimizning «Maktabgachatalim» bo'yichao', ko'rsatma, buyruq, instruktiv va direktiv xujjatlarini yana bir bor ko'zdan kechirib chiqishni nazoratchidan talab qiladi.

Bu – «Maktabgacha ta'lim» dasturining hamma punktlarini yana bir bor chuqur o'rganishini; talab qiladi.

Shu o'rinda biz, yuqorida aytib o'tilgan xujjatlarni «Direktiv» va Normativ xujjat nima ekanligini tushunib olishimiz lozimdir.

Direktiv xujjat – bu – yo'l – yurik, ko'rsatma, ya'ni yuqori bo'limlar tomonidan kuyi bo'limlarga yoki rahbarning o'z xodimlariga bergan ko'rsatma, yo'l – yuriqlariga aytiladi.

Normativ xujjat esa – normalar qoidasiga asoslangan xujjatdir.

Masalan: Bolalarning yoshi bo'yicha yosh guruhlariga to'g'ri taksimlash, xodimlarni shtab normasi bo'yicha ishga kabul qilish, smeta bo'yicha harajatlarni taksimlash – sarflash, bolalarning ovkatlantirish normalari, tarbiyachilarning oylik ish xaklari va x.k. iborat. SHuningdek maktabgacha xujalik rejalarida ko'zda tutilgan ijtimoiy maktabgacha ta'lim rivojlantirish bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarning bajarilishi; Maktabgacha ta'limi bo'limlari tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim xodimlariga beriladigan imtiyozlardan

foydalanishi normalari kiradi.

Demak, nazorat qilishni tashkil etish, unga tayyorgarlik tekshiruvchilardan o'z ustida ko'proq ishlashni, g'oyaviy – siyosiy va ilmiy yetuklikni, tashkiliy – pedagogik – metodik ishlarning moxirona o'z ishida qo'llashni talab etadi. IV. Nazorat qilishni mazmunli – sistemali amalga oshirishda nazorat qilishning olib borish bosqichlari muxim ahamiyat kasb etadi.

Ular quyidagilar:

- Tekshirish rejaini to'zish va tasdiklatish;
- Tekshirishning maqsadi va vazifalari to'g'risida muddirani ogohlantirish
- Ishning borishi harakterlovchi xukumatlarni o'rganish (xisobot, akt va x.k)
- Tashkilot xodimlari bilan suxbat;
- Maktabgacha ta'lim boshqarish ishni o'rganish, uning xolatini analiz qilish;
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ishni tanlangan xolda tekshirish;
- Maktabgacha ta'limni tashkil etish va uni rivojlantirishda ijobiy natijalari tajribalarin aniqlash; ularni amalda tatbik etish yo'llarin ishlab chiqish; tavsiyanomalar ishlab chiqish;
- Aniqlangan kamchiliklarni analiz qilish, ularni yuqotish uchun ko'rsatmalar, amalda yordam berish. Jamoada muxokama qilish;
- Tekshirish yakunlari bo'yicha ma'lumotnoma yoki akt to'zish;
- Bajarilgan ishlar bo'yicha boshkarma, bo'lim, (amaliyot rahbari oldida xisobot berish).

Bu bosqichlarni amalga oshirish maksadida biz nazorat qilishning usul va uslublarini o'rganamiz. Nazorat qilishning asosiy usul va uslublari kuyidagilar xisoblanadi:

- Bolalar xayotini uyushtirish mashgulotlari, rejimining turli jarayonlarini kuzatish va analiz;
- Pedagogik va moliyaviy xujalik ish xujjatlarni o'rganish va analiz qilish;
- Bolalar ishlarini analiz qilish;
- Mudira, tarbiyachilar, ota – onalar va bolalar bilan (ularning bilimi, ongi, nutkining rivojlanishini aniqlash maksadida) suxbatlashish;
- «Pedagogik kengash», «Ishlab chikarish majlislarida» ota-onalar kengashlarida ishtirok etish;
- Jamoat tashkilotlari vakillari bilan suxbatlashish; dan iborat.

Bu usul, uslublari qo'llash – nazorat qilish turiga, kaysi guruhda ta'limviy jarayonning kaysi kismi yoki tashkilot moliyaviy – xujalik ishlarining kaysi tomonlari tekshirishga, nazoratchining mutaxasisligi va ish tajribasiga boglikdir.

- Bu kun qirrali ussularin qo'llash – maktabgacha ta'lim ishini har tamonlama o'rganishda goyat ahamiyatli-dir.

a) Kuzatish usuli – bu pedagogik jarayonidagi qiyinchiliklarni yo'qotish va ta'lim –tarbiyaviy yutuq va kamchiliklarin, ishdagi ish sifatini o'stirish ta'minlaydi.

Kuzatish – pedagogik jarayonini, metodik va moliyaviy-xujalik faoliyatining axvoliga to'g'ri baxo beradi va kerakli xulosalar chikaradi.



Frontal – yangi tekshirish turida bu usul kun davomida tekshirilayotgan pedagogik jarayonini o'z ichiga oladi, bunda: rejali, ta'lim – ta'lim ish mazmunini va turli ta'lim ishini muvofiklashganligi, maishiy xayotda bolalar xayotini va ta'limsini tashkil etish, ukuv-ta'lim usul-uslublarini tashkil etish, bolalarning o'yini, mexnati faoliyatlari kuzatiladi.

Tematik nazorat turida esa – kuzatish usuli tanlangan temaga va uning harakteriga boglikdir. Agar axvoli kuzatilayotgan bulsa, unda tekshiruvchi mashgulotlarini chukur kuzatadi, uning dastur mazmuniga, to'zilishiga, metodikasiga chukur ahamiyat beradi.

o'yin – jarayonini kuzatayotganda – diqqatni o'yin turiga, o'yin uchun sharoit, bolalarning munosabatlariga va tarbiyachining o'yinga rahbarligiga karatadi. Pedagogik ishlarini kuzatishdan aniq, yaqqol tushuncha hosil qilmasa qo'shimcha yoki takroriy kuzatish o'tkazish kerak.

Tashkiliy-pedagogik faoliyatini kuzatishda:

Mudiraning ishinini to'g'ri tashkil etganligiga, uning ta'limviy va xo'jalik ishlari bir tekisda olib berishga, kollektiv bilan munosabati, tarbiyachi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar bilan suxbatning mazmuniga, ota-onalarin kabul qilish tartibiga karatish kerak.

Kuzatishda – kuzatilayotgan jarayonining, rejim jarayonlardagi aniqlilik, rejimni bo'zilishi, bolalar-ning bilm darajasini, ularning oxlok normalari, tarbiyachining dastur talabalarini va metodikaning egallaganligi va boshkalarga ahamiyat berish kerak. Kuzatish – jarayonida shu narsa ayon buladiki, tarbiyachining yetarli darajadagi mutaxassisligini, bu kuzatilayotgan kunda tarbiyachining tayyorgarlik ko'rganligi uning ishtagi ribasi sayozligi, bolalar kollektivini tashkil eta olmasligi, uning uta xayojanlanishi tormozlanib kolish namoyon buladi. Moliyaviy xo'jalik ishdagi kamchiliklar mudiraning tartibsiz, pala-partish, ish yuritishdan ham kelib chiqish mumkin.

Taxlil qilish – tarbiyachi va mudiraga qanday yordam berish va ulardan qanday qilib talab qilish kerakligini belgilab beradi.

Kuzatish turlicha harakterga ega bulib, nazoratchi bu jarayonlarni amalga oshirish uchun tekshirish reja sxemasini tuzadi.

Har bir ayniqsa yosh nazoratchilar uchun bunday kuzatish sxemasini tuzib ishlash – bu jarayonni puxta, mazmunli, har tomonlama keng olib borishini ta'minlaydi. Bunday kuzatish sxemasini yukligi, tekshirishning yo'zaki, mazmunsiz, ishlarga nisbatan baxo berishda yo'zakichilikka olib keladi.

Oldindan o'ylangan rejali kuzatish – tashkilotdagi ilgor ish tajribalarini o'rganadi, umumlashtiradi va boshqa tashkilotlarga tashvikot qiladi. Kuzatishda tarbiyachi yoki mudira tomonidan xato, kamchilik kilinayotgan bulsa,

nazoratchi aloxida individual kuzatishdan sung, ularning shaxsiyatlariga tegmasdan, shoshilmasdan, tinch xolatda, kamchiliklarni oldini olish choralarini kursatib, tushuntirib berishi, metodik yordam kursatish kerak. Agar kuzatish jarayonida bolalar sog'ligi va xayotiga xavf soluvchi xato kamchiliklar bo'lsa, u vaktida nazoratchi aralashuviga sabab buladi. Kuzatish jarayonida kuzatish daftariga yozib boriladi. (Sxemaga karab tushuntirish).

Kuzatishni yana ham mukammalrok izoxlash maksadida kuyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Ish xujjatlarini o'rganish;
2. Bolalar sogligini izoxlovchi materiallar;
3. Ta'lim-ta'limviy ish rejalarini o'rganish;
4. Tarbiyachichilarning kundalik daftarlarini (ilk yosh guruhi).
5. Bolalar ishlarini analiz qilish;
6. Pedagogik kengash, ishlab chikarish, ota-onalar majlislarining qarorlarini o'rganish;
7. Moliyaviy-xo'jalik ish xujjatlarini o'rganib chiqish;

Bular tashkilot xakida tularok tushuncha berish mumkin. Buning uchun nazoratchi – mudira, shifakor (meditsina-tibbiyot hamshirasi) va tarbiyachilarga tegishli ish xujjatlarini tayyorlashlarini ogoxlantiradi.

Pedagogik ish xujjatlarini o'rganishda, tarbiyachi tomonidan «Maktabgacha ta'lim dasturi» talabalarning bajarilishi, didaktik printsiplardan foydalanishi, dasturning asta-sekinlik bilan murakkablashtirib olib borilishi namoyon buladi.

Tarbiyachilarning kundalik kizikishlari, dastur talab daftarlaridan bolalarning usish alarini egallash jarayonlarini suratlari, ularning bilish mumkin.

Bolalar sogligini izoxlovchi materiallar – patronagi daftari, kundalik davomat, forma № 63,- tiddiyot hamshirasidan aniqlash mumkin. SHuningdek, kasallikni oldin olish ishlarini amalga oshiruvchi olimlar to'g'risida nazorat ishlarini amalga oshiradi.

Ta'lim ish rejalarini dasturga asoslanib xaftalik ish rejalarining sifati to'zilganligini, mashgulotlar jadvali, kvartal, istikbol, xaftalik ish rejalarning sifati, dastur maksadining sermazmunligini rejim jarayonlarda o'zbek maktabgacha milliy uminlarni, urf-odatlarni, «Odobnoma» ning mazmundorligi, bolalarning dunyokarashlarni ustiruvchi olimlarni yoritilishi, bolalarning nutk madaniyati usishda individual ishlash, ota-onalar bilan individual ishlarining mavzularining boyligi. Bolalarning ijodiy barkamollashuvida tarbiyachining roli aloxida kuzatiladi, o'rganiladi



Pedagogik va ota-onalar kengashlarining qarorlarini o'rganish esa yillik rejadagi asosiy masalalarni, o'rganilayotgan masalalarining aktualligi, ota-onalarining kizikishlaridan xabardor qiladi.

Suxbat usuli metodi – kuzatish jarayonidagi xujjatlarni o'rganishdagi, tushunarsiz bulgan jarayonlari aniqlash maksadida utkaziladi. Suxbat mazmuni va uning harakteri turlicha bulishi mumkin.

1. Guruhdagi bir kunlik pedagogik jarayonini kuzatish bo'yicha tarbiyachi bilan suxbat – muxokama utkazish;
2. Kuzatish natijalarini analiz qilish; (suxbat - analiz).

Suxbatlar tarbiyachining ta'lim jarayonlarida qo'llagan usullari xakida ham bulishi mumkin. Kuzatish jarayoni tugagandan sung utkaziladigan suxbatda mudira yoki katta tarbiyachi ishtirokida tarbiyachi ishiga baxo beriladi. Ishdagi yutuq va kamchiliklarga ob'ektivlik bilan yondoshish kerak, bunda nazoratchi avval – tarbiyachini u o'z ishi xakida tushuncha berib, ishiga baxo beradi, pedagogik ish jarayonidagi yangilik – yarata olish yo'llarini kursatib beradi. Mudira bilan suxbatda – tashkilotning moliyaviy – xujalik, tashkiliy – pedagogik, metodik, xodimlar bilan ishlash, masalalari bo'yicha utkaziladi. (Bu jarayonining mazmuni biz 4 – temada o'rganamiz).

Tashkilot vrachi yoki tibbiyot hamshirasi bilan buladigan suxbat orkali bolalar sogligi, kasalliklarin oldin olish ishlarini utkazilishi xakida, vrachning ish rejasi bo'yicha suxbat o'tkaziladi.

Ota-onalar va qo'mita raislari bilan suxbat-chogida, ularning istak-takliflari, talablari, ularning muassasiga kursatayotgan yordami, bogchaning oilada bolalarni ta'limlashga kushayotgan xissalari xakida bulishi mumkin.

Bolalar ishlarini analiz qilish – guruhning va aktiv bolalarning har tomonlama usishi, bolalarning bilm, kunikma va malakalarini yetarligini aniqlovchi omildir.

Bolalar ishlarini saklash, bolalarning extiyotkorligini aniqlash goyat katta ahamiyatga egadir. Bolalar ishlarini analiz qilishda – ishlarining soni, mazmuni, takrorlanmasligi, dastur talablariga javob berish muximdir.

Bu jarayonni utkazishda guruh-tarbiyachisining ishtiroki darkor.

Tekshiruvchi shaxs kuzatishda tarbiyachiga turli maslaxatlar berib boradi. Masalan: kurish-yasash, kul mexnati, tasviriy faoliyat.

Yuqoridagi usullardan foydalanib nazoratchi tashkilot ishini atroflicha, chukur o'rganib chiqishini ta'minlaydi.

Guruh tarbiyachisining ishini avval tarbiyachisining o'zi bilan muxokama kilinadi keyin pedagogik kengash ishiga olib chiqiladi. Yutuq

kamchiliklar, taklif va muloxazalar ochikchasiga – oshkora xolda tushuntiriladi. Kerakli yo'llanma, ko'rsatma va metodik yordam o'z vaktida kursatiladi. Bolalarning bilim-saviyalarini, ko'nikma va malakalari bilish maqsadida guruhda – savol-javob – anketa – savollariga – javob olish usulini ham utkazish muxim ahamiyatga egadir. Bu jarayon kvartallar orasidagi utkan vaktda dastur talablarini bajarilganligi va tarbiyachining kay tarzda yetkaza olganligi bolalarning bilm doirasi, dunyokarashi, ijodiy usishi, kabi bulgan murakkab psixologik-ruxiy rivojlanishi uchun eng muxim omil bulib xizmat qiladi.

Nazoratchi – yuqorida bayon etilgan printsiplarni tashkilotda amalga oshirishini nazorat qilish va bajarishini tekshirish, kabul kilingan avvalgi qarorlarni ijrosini kurish maksadida. «Pedagogik kengash» ishiga katnashadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotsida bolalarning xayotiy, jismoniy va ruxiy soglomligi uchun, har bir bolaning yoshi va shaxsiy xususiyatlariga mos keluvchi emotsional va tulakonli rivojlanishi, bolalarni ta'limlash va ta'lim berishning tanlangan tizimi samaradorligi uchun yaratilgan shart – sharoitlarni yaratishda, ta'limviy jarayonin psixologik ta'minlash ruxshinos yoki psixologik xizmatini yaratish tashkil etish ishida metodik yordam kursatadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida rahbar xodimlar va tarbiyachilarning pedagogik metodlar va usullarni mustakil ishlab chiqish va ulardan o'z pedagogik faoliyatida foydalanish imkoniyatlarini yaratib berish yo'li bilan ularning pedagogik ijodiyotiga bulgan xukukini ta'minlaydi.

Tashkilotda bo'ladigan ishlab chiqarish majlislariga qatnashib – tashkilotning mexnat jamoasi maktabgachachillik asosida o'z-o'zini boshqarish printsipiga muvofik, uning faoliyati bilan bog'liq bulgan barcha masalalar xal etilishi, bularning davlat va jamiyat manfaatlariga rioya kilingan xolda bulishini nazorat qiladi. Nazoratchi, yuqorida bayon qilingan vazifalarin xal etish maksadida. Umumiy va guruh ota-onalar majlislariga katnashib, bola tarbiyasi bo'yicha eng muammoli masalalarin xal etilishini kuzatadi va ilmiy asoslangan yordamni amalga oshiradi. Ota-onalarni tashkilot ishiga ko'proq jalb etish maksadida «Jamiyatimizda oilaning tutgan urni», O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi qonunlarida, ham oila va bola ta'limsiga davlatimiz tomonimizdan gamxurlik asoslarini keng yoritib berish kerak. Bu ham tashkilot ishini joilashtirishda o'zining ijobiy tomondan ta'sir etadi. Keng jamoatchilik bilan tashkilot to'g'risida uning ishiga jamoatchilik tomonidan kursatilayotgan amaliy yordam to'g'risida suxbat tashkil etadi.

Nazoratchi, yuqorida ko'rsatib o'tilgan usul-metodlardan foydalanib, tashkilotni frontal va tematik tekshirishni amalga oshiradi.



**Mavzu yo'zasidan topshiriq**

Blits-so_rovl metodi asosida quyidagi savollariga javob qaytaring:

1. Nazorat qilish – deganda nimani tushunasiz?
2. Nazorat qilishning maqsadi va vazifalarini izoxlang.
3. Nazorat qilishga nazoratchining tayyorgarlik nimalardan iborat?
4. Nazorat qilishning usullarini izohlang.
5. Nazorat qilish bosqichlari qaysilar?

**Keys bayoni**

Bolalar bogchasidagi rasm darsida tarbiyachi yozuv taxtasiga ikkita rasm chizib, bolalardan rasmning qay biri ularga yoqqanini so'radi. Bolalar rasmlarxaqidagi fikrlarini ketma-ket ifodalay boshlashdi. Navbat Boburga (4 yosh) kelganda, u ikkilanib qoldi. Tarbiyachi: - Vaqtimiz kam. Agar u senda bo'lsa, miyangni ishlatginda, tezrod javob ber! Bobur javob bera olmadi. Tarbiyachi unga —O'tir o'rningga!l, dedi va mashg'ulotni davom etgirdi. Bolalardan biri: —Voy, bilmasvoyl, -dedi.

**Keysga savol-vazifa:** Tarbiyachining xatti-harakatlarini baholang.

**Tahlil:**

**Keys bayoni**

Katta guruhda bayram munosabati bilan uyushtiriladigan tadbirda tarbiyachi Botirdan o'ziga berilgan she'rni o'qishni so'radi. Botir she'rni tutilib o'qidi. To'g'ri o'qishga qanchalik harakat qilmasin, ifodali o'qiy olmadi. Tarbiyachi biroz kutib turdi va Botirga —SHe'rni yod olmabsan! Senga qachon bergan edim. Ertaga oying bilan gaplashaman! Sening ta'ziringni berishim kerakka o'xshaydil, - dedi. O'rtoklari kulib yuborishdi.

**Keysga savol-topshiriq:** Tarbiyachi Botirni o'rinli koyidimi?

**Tahlil:**

**Keys bayoni**

Abdusamad (3 yosh) doimo onasiga suykalib qo'lidan tutishini, quchishini istaydi. Agar onasining oldiga birov kelsa, uni itarib yuboradi va baqirib yig'laydi.

**Keysga savol-vazifa:** Sizning harakatlaringiz qanday bo'ladi?

**Tahlil:**

**Talabalar uchun topshiriq**

Ijodiy ishl metodi asosida —Nazorat qilishning usul va uslublarilmavzusida sxema, jadval yoki klasterlarni yarating

**Pedagogik kengash shakllari.**

**(4 soat amaliy)**

**Ishning maqsadi.** Talablarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan Pedagogik kengashni boshqarish va tartibli yuritish, zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish vazifalarni o'rganadilar;

**Kutiladigan natija:** Talabalar tashkilotni rivojlantirish yuzasidan istikbol yo'nalishlarini belgilash bo'yicha ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishni o'rganib oladilar, maktabgacha ta'lim soxasiga oid normativ-xujjatlarni amaliyotga to'laqonli tatbiq etish ko'nikmalari shakllanadi va faoliyatida qo'llaydilar.

**Jihoz:** Tarqatmalar, rasmlar va markerlar. **Dars metodi:** ―Blits so'rovl metodi,

**Amaliy topshiriq:**

**Keys stadi metodi**

**Ijodiy ish. Mavzu yuzasidan krasvord tuzis**

I. Pedagogik kengash.

Pedagogik kengash yiliga 4 marta o'tkaziladi : avgust oyida - belgilovchi, oktyabr, yanvar, may oylari.

Belgilovchi pedagogik kengashda quyidagi masalalar ko'riladi :

MTT qamda guruhlarning yangi o'quv yilga tayyorgarligi (mavzuli tekshiruv yakunlari)

Ustoz- shogirdl pedagoglarini biriktirish;

Pedagoglarni ish joylariga biriktirish;

Guruxlardagi ta'lim- tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish va riantlarini belgilab olish;

MTVning ―MTTdagi ish xujjatlarini yuritilishilga oid 155- sonli buyruqini o'rganish; (MTV va TShMTBB tomonidan o'quv yili uchun tushgan yangi xujjatlar)

MTTning o'quv yili ish rejasini muqokama qilish va tasdiqlash;

Tarbiyalanuvchilarining Davlat talablarini bajarish monitoringi masalasi uchinchi (yanvar oyi) xamda to'rtinchi (may oyi) pedagogik kengash kun tartibiga kiritiladi

Tibbiy pedagogik kengashlar o'quv yilida 2 marotaba (dekabr, iyun) ilk yosh (2 yoshdan- 3 yoshgacha) guruxlari uchun o'tkaziladi (ilk yosh guruxlar sonidan qat'iy nazar).



Tibbiy pedagogik kengashda quyidagi masalalar muxokama etiladi :

Ilk yosh gurx bolalarining jismoniy qamda nerv- psixologik rivojlanishlar ;

Bolalarning moslashuvi;

Tarbiyachnning ma'lum mavsumda (sentyabr- dekabr), (yanvar- may) olib borilgan ishlar yuzasidan xisobotini tinglash;

Ilk yosh gurux bolalarining jismoniy qamda nerv- psixik rivojlanishiga oid kelasi mavsum uchun tadbirlarni tasdiqlash.

Tibbiy pedagogik kengashni o'tkazishda mudira, metodist, shifokor, hamshira, psixolog, ilk yosh gurux tarbiyachisi (tarbiyachilari) ishtirok etadilar. qar bir ilk yosh guruxi uchun aloxida bayonnoma rasmiylashtiriladi.

II. Umumiy ishlab chiqarish yig'ilishlari.

Tashkilotda umumiy ishlab chiqarish yig'ilishlari o'quv yili davomida 2 marta o'tkazilishi rejalashtiriladi. (avgust, may)

(Zaruratga ko'ra, rejadan tashqari qam o'tkazilishi mumkin).

III. Ishlab chiqarish yig'ilishlari qar oyda bir marta o'tkaziladi.

Muqokama qilinadigan masalalar:

- ta'lim-tarbiya ishlari, pedagogik jarayonni nazorat ishlarining yakuni, ovqatlantirish, soqlomlashtirish, tashkilot moddiy-texnika bazasini boyitish bo'yicha olib borilayotgan ishlar, obodonlashtirish-ko'kalamzorlashtirish, yuqori tashkilotlar topshiriqlarini bajarish, kelgan hujjatlar bilan tanishtirish, yillik ish rejada belgilangan vazifalar ijrosi va q.k.

IV. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasi:

Bayram tadbirlari;

Maqalla, qomiy, jamoat tashkilotlari bilan qamkorlik ishlari;

Maktab bilan qamkorlik;

Ota-onalar yig'ilishi;

1.Umumiy ota-onalar yig'ilishi (kun tartibiga 3 masala rejalashtiriladi)

2. Guruh ota-onalar yiq'ilishi (yillik ish rejada qar bir yosh guruhlari uchun 2 ta masala belgilanadi. 3-masala guruh pedagoglari tomonidan rejalashtiriladi: mn | ota- onalar qo'mitasi a'zolarini saylash, ularni xisoboti, mavsumiy bayramlarga tayyorgarlik va kabilar )

―Soq'lom avlod uchunl dasturi asosida ta'lim-tarbiya, soqlomlashtirish, tashkiliy ishlar rejasi.

V. Ta'lim mazmuni va metodik xizmatni takomillashtirish:

1. Metodik kengash (Amaliy va nazariy seminarlar). (Nazariy va amaliy seminarlar tashkilot va pedagogik jamoaning sharoitidan kelib chiqqan qolda o'quv yili davomida 2 ta rejalashtiriladi). Mavzular tarbiyachilar tomonidan berilgan takliflar asosida rejalashtiriladi.

2. Pedagoglarning malakasini oshirish ish rejasi.

(Kursdan keyingi qisobot, 3 yillik istiqbol ish rejasini tuzish, ish yo'nalishini belgilab olish)

3. Pedagoglar uchun metodik maslahatlar:

Pedagoglar uchun maslahatlar - metodist (metodist shtati bo'lmagan qolatlarda mudir) tomonidan tashkil etilib, unda mudira, metodist, psixolog, shifokor, musiqa raqbari, ilqor pedagoglar tomonidan mavzu bo'yicha maslahatlar;

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va tayanch dasturi asosida tashkil etish bo'yicha maslahat va tavsiyalar;

tashkilotni Davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasiga tayyorgarlik ishlari;

pedagog xodimlar attestatsiyasiga tayyorgarlik.

4. Ochiq mashqulotlarni kuzatish.

O'quv yili davomida barcha guruhlarda pedagogik jamoa bilan kuzatiladigan mashqulotlar (mashqulot mavzusi, o'tkazilish sanasi, mas'ul belgilanadi) rejalashtiriladi.

Ustoz-shogirdl maktabi:

yosh mutaxassislarni ilqor pedagoglarga biriktirish;

yosh mutaxassislar uchun maslahatlar tashkil etish;

Ustoz-shogirdl ish rejasini tuzish (O'quv yili davomida ikki marta ishlab chiqarish yig'ilishida muqokama qilinadi).

6. Pedagogik jarayonni nazorat qilish.

O'quv yili davomida frontal, tematik, qiyosiy, epizodik, ogoqlantiruvchi nazorat turlari olib boriladi (qiyosiy, epizodik va ogoqlantiruvchi nazorat turlari bo'yicha taqlillar ishlab chiqarish yig'ilishlarida muqokama qilinadi).

7. Ilqor ish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish.

Pedagogning ilqor ish tajribasi 2 yil o'rganiladi, 3 yili ommalashtiriladi, o'rganish - ishlab chiqarish yig'ilishlarida, ommalashtirish - pedagogik kengashda muqokama etiladi.

To'garaklar faoliyati qaqida ma'lumot.

To'garak nomi

To'garak raqbarining ismi sharifi

Kuni, vaqti

Bolalar soni

Metod xonani jiqozlash.

Tadbirlar nomi

Muddat

ma'sul



VI. Tashkilotning moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash. Xo'jalik ma'muriy ishlar.

Tadbirlar nomi

Muddat

ma'sul

VII. Yozgi soqlomlashtirish ishlari.

Joriy o'quv yilini tugatish va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 1 iyun yozgi soqlomlashtirish ishlarini boshlash maqsadida MTTning ichki buyruqi chiqariladi. Tashkilotning —Kun tartibi mavsumga moslashtiriladi. Chora-tadbirlar rejasi belgilanadi.

VIII. Tibbiy ishlar rejasi.

Tibbiy ishlar —Toshkent shaxar maktablari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari tibbiy xodimlari qaqida Nizom asosida ish olib boriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalariga tibbiy yordamni tashkil etish rejasini tuzib, OP bosh vrachi tomonidan tasdiqlatiladi va ushbu reja asosida ish olib boriladi.

**Pedagogik kengash hujjatlari va bayonnomalari**

1. Pedagogik kengash bayonnoma daftari raqamlangan, shunurlangan MTT mudirasi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

2. Mudiraning o'tgan pedagogik kengashi bajarilishi qaqida qisqacha qisoboti.

3. Pedagogik kengashda olingan mavzu asosidagi materiallar, qisobotlar, ma'ruzalar, taqdim etilgan ko'rgazmali qurollar, test va trening o'yinlar namunalari, baqolash mezonlari va yakuniy xulosalar.

Pedagogik kengash tartib raqami, mavzusi, kun tartibidagi masalalar, uni o'tkazish muddati, mas'ul va bajarilishi qaqida ma'lumot.

Pedagogik kengash o'quv yili davomida qar chorakda 1 marta o'tkaziladi. Zaruratga ko'ra rejadan tashqari qam o'tkazilishi mumkin.

Saqlanish muddati 3 yil

**Seminar bayonnomalari va hujjatlar.**

Seminar bayonnomalari va hujjatlar.ta'lim mazmuni va metodik xizmatni takomillashtirish: Metodik kengash (Amaliy va nazariy seminarlar). Tashkilot sharoitidan kelib chiqqan qolda o'quv yili davomida 2 ta rejalashtiriladi. Nazariy va amaliy seminarlar mavzulari pedagogik jamoaning sharoitidan kelib chiqqan qolda rejalashtiriladi. Mavzular tarbiyachilarning tomonidan berilgan takliflar asosida rejalashtiriladi. Seminar bayonnomasi seminar mavzusidan kelib chiqqan qolda yoziladi. Beriladigan vazifalar aniq yoritilgan bo'lishi lozim. Yiqma jildda seminar materiallari va bayonnomadan ko'chirma bilan shakllantiriladi.

Saqlanish muddati 3 yil

**Tibbiy-pedagogik kengash hujjatlari va bayonnomalari.**

1. Bayonnoma daftari raqamlangan, shnurlangan va MTT mudira tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

2. hamshiraning tibbiy soqlomlashtirish jarayoniga qaratilgan mavzular asosidagi materiallar to'plami. Berilgan tavsiyalar, ma'ruzalar yiqma jildi saflanishi shart.

3. Tarbiyachilar tomonidan mavzu asosida tayyorlangan hujjatlar yiqma jildi (ma'ruza, qisobotlar, nerv- psixologik kartalar)

Saqlanish muddati 3 yil

**Umumiy ota-onalar yig'ilishi bayonnomalari**

1. Umumiy ota-onalar yig'ilishi maktabgacha ta'lim tashkilotsida o'quv yilining boshi (sentyabr, may) va yakunida o'tkaziladi. Yig'ilish kun tartibiga ko'rib chiqish uchun 3 masala kiritiladi.

2. Guruh ota-onalar yig'ilishi qar chorakda bir marta o'tkazish rejalashtiriladi (yillik ish rejada qar bir yosh guruhlari uchun 2 ta masala belgilanadi. 3-masala guruh pedagoglari tomonidan rejalashtiriladi).

Ota-onalar bilan o'tkazilgan yig'ilish bayonnoma daftari raqamlangan, tikilgan va tashkilot raqbari tomonidan muqrlangan bo'lishi lozim. Yiqma jildda yig'ilish o'tkazilganligi to'qrisidagi yig'ilish bayonidan ko'chirma va kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tayyorlangan materiallar bo'lishi lozim.

1. Bayonnoma daftari raqamlangan, shnurlangan va MTT mudira tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

2. Mavzu asosidagi ma'ruzalar, qisobotlar, tavsiyalar.

Saqlanish muddati 1 yil

Ota-onalar qo'mitasi (kuzatuv kengashi) bayonnoma va hujjatlari.

1. Bayonnoma daftari raqamlangan, shnurlangan va MTT mudira tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

2. Ko'rilgan masalalar asosidagi hujjatlarning yiqma jildlari ijrosi.

3. Kengash tomonidan qabul qilingan qarorlarning ijrosi qaqidagi qisobotlar.

Saqlanish mudti 3 yi

1. Pedagogik kengash bayonnoma daftari raqamlangan, shnurlangan MTT mudirasi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

2. Mudiraning o'tgan pedagogik kengashi bajarilishi qaqida qisqacha qisoboti.

3. Pedagogik kengashda olingan mavzu asosidagi materiallar, qisobotlar, ma'ruzalar, taqdim etilgan ko'rgazmali qurollar, test va trening o'yinlar



namunalari, baqolash mezonlari va yakuniy xulosalar.

Pedagogik kengash tartib raqami, mavzusi, kun tartibidagi masalalar, uni o'tkazish muddati, mas'ul va bajarilishi qaqida ma'lumot.

Pedagogik kengash o'quv yili davomida qar chorakda 1 marta o'tkaziladi. Zaruratga ko'ra rejadan tashqari qam o'tkazilishi mumkin.

Saqlanish muddati 3 yil

**Mavzu yuzasidan topshiriq**

Blits-so_rovl metodi asosida quyidagi savollariga javob qaytaring:

1.Pedagogik kengash va uning vazifalari aytib bering

2. Pedagogik kengash majburiyatlari nimalardan iborat izohlang

3. Pedagogik kengashni o'tkazish shakllari sanab bering.

**Keys bayoni**

Ikki yosh ona ko'chada bolalar bog'chasiga qatnaydigan o'z qizlarining xulq-atvorlari haqida bir-birlari bilan o'rtoqlashmokda: —Mening qizim osuda faol, mustaqil o'syaptimi, demak, xozirdan uni sport, musiqa, raqs to'garaklariga berishim, deb uylaymanl, ikkinchi ona: —Mening qizim xali ham bola. Katta bo'lgandan keyin xamma narsani o'zi sekin-asta qilishga o'rganadil.

**Keysga savol-vazifa:** Har ikkala onaning o'z qizlari tarbiyasiga yondashuvini taqqoslang.

**Ko'rsatma:** Ushbu muammoni hal etish uchun tarbiyaning turli usullarini tahlil va bolaning faolligi hamda uning mustaqil bo'lishining ahamiyati haqida xulosa qilish zarur.

**Manba:** O'zbekiston Respublikasida —Davlat maktabgacha Taълim muassasasi to'g'risidalgi Nizom, —Maktabgacha ta'lim —ilk qadam dasturi, —Maktabgacha ta'lim pedagogikasil, —Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash metodikasil.

**Tahlil:**

**Keys bayoni**

Bolalar bog'chasining o'rta guruhiga shu kunga qadar bolalar bog'chasiga qatnamagan 4 yoshli Anvar qabul qilindi. Anvar mashinachasini o'ynab bo'lgandan keyin uni xona o'rtasida qoldirib ketdi.

**Keysga savol-vazifa:** Ushbu vaziyatda tarbiyachi qanday yo'l tutishi kerak?

**Manba:** —Maktabgacha ta'lim pedagogikasil, —Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash metodikasil.

**Tahlil:**

**Ota – onalar bilan ishlashda tarbiyachining o'rni.**
**( 4 soat )**

**Ishning maqsadi:** talabalarga ota-onalar bilan shartnoma tuzish, ota-onalarning vazifalari, majburiyatlari, ota-onalar bilan hamkorlikda tadbirlar, ota-onalar majlisini o'tkazish tartibi haqiDa tushuncha berish.

**Kutiladigan natija:** Talabalar tashkilotni rivojlantirish yuzasidan ota onalar bilan ishlashda istiqbol yo'nalishlarini belgilash bo'yicha ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishni o'rganib oladilar.

**Jihoz:** Tarqatmalar, rasmlar va markerlar.
**Dars metodi:** —Blits so'rovl metodi,
**Amaliy topshiriq:**
**1.** T jadvalini toldirish

<u>Ota-ona quyidagi xuquqlarga ega:</u>

a) o'z bolalari uchun ta'lim-tarbiya shakllarini, davlat maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim berish tilini tanlash;

b) davlat maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarga ta'lim-tarbiya berish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini hamda bolaning shaxsiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishni talab qilish;

v) muassasa bilan tuzilgan shartnoma shartlarida belgilangan tartibda kun davomida o'ziga qulay bo'lgan vaqtda bolalarni davlat maktabgacha ta'lim muassasasidan olib ketish huquqiga ega.

g) ota-onalar qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

<u>Ota-onaning majburiyatlari:</u>

a) belgilangan normativlarga muvofiq bolaning davlat maktabgacha ta'lim muassasasida bo'lgan davri uchun badal to'lovini o'z vaqtida to'lash;

b) bolalarning to'laqonli ovqatlanishini, ularda shaxsiy gigiena ko'nikmalari shakllantirilishini qat'iy kuzatib borish, bolani davlat maktabgacha ta'lim muassasasiga ozoda kiyingan holda olib kelish.

v) Ota-onalar qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham olishlari mumkin.

Ota-onalar yig'ilishlari va uchrashuvlar odatda tarbiyachilar ham bolaning oila a'zolari ham MTTga qatnash bo'yicha o'zlarining boy tajribalariga ega hisoblanadilar. Bu tajriba ularning tarbiyachilar va ota- onalarning ishni hamkorlikda tashkil qilish masalasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Aksariyat hollarda, oila va muassasaning roli bu so'z keng ma'noda bir-biridan ajratilgan. Ota-onalar bolalarini muassasa eshigida qoldiradilar va bu eshik ortida nimalar bo'lishi haqida juda oz biladilar. Tarbiyachilar bolaga uning bog'chada bo'lgan davri uchungina javob berishga ko'nikadilar. Buning uchun ulardan oilalar bilan o'zaro aloqa o'rnatish talab qilinmaydi. SHuning uchun tarbiyachilar ham ota-onalar ham qanday qilib axborot almashuv, hamkorlikda rejalashtirishni amalga oshirish, bolalar guruhida birgalikda ishlashni bilmasliklari mumkin va buning natijasida yangi talablar oldida o'zlarini noqulay his qilishlari tabiiy. Bunday sharoitda tarbiyachilar va ota-onalarga MTT hayoti bilan hamkorlik masalasini tushuntirish birmuncha qiyin kechishi extimoldan xoli emas.

Lekin o'z davrida buyuk faylasuflardan biri Seneka —Har qanday o'zgarish -o'zgarishni xohlashdan boshlanadil degan edi. Ma'lumki, ota-onalar yig'ilishining bir necha ko'rinishlari bor: yo'l- yo'riq beruvchi, maslahat beruvchi, norasmiy va o'zaro qo'llab-quvvatlovchi. Yo'l-yo'riq beruvchi yig'ilishlar seminar shaklida o'tkaziladi. Qoida bo'yicha mutaxassis chetdan chaqiriladi va uning yordamida ota-onalarning qiziqishlari asosida tanlangan ma'lum mavzu muhokama qilinadi. Ayrim mavzular, masalan bolaning o'sishi va rivojlanishi ma'ruza tarzida ham taqdim etilishi mumkin. Boshqa mavzularni o'zlashtirish tajriba tariqasida amalga oshiriladi, bunda ota-onalar ayrim ko'nikmalar- masalan, munosabat, aloqa ko'nikmalarini egallaydilar. Bolalar bog'chasi ota-onalar qo'mitasining rasmiy yig'ilishi bir yilda to'rt marta o'tkaziladi. Bunday yig'ilishlarning maqsadi, axborot to'plash va ota-onalar o'rtasida o'zaro fikr almashishdir. Bu yerda ota-onalar ishtiroki bilan bog'liq uchrashuvlar, kechalar o'tkazish va boshqa tadbirlar rejalashtiriladi. Norasmiy yig'ilish yoki uchrashuvlar - bunday paytda ota-onalar o'z taassurotlarini o'zaro baham ko'radilar. Bunday uchrashuvlarni ota-onalarning o'zlari rejalashtiradilar va pedagoglarning qo'llab-quvvatlashi asosida tashkil etadilar. Bunday uchrashuvlarning shakli turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, turli tadbirlar, bayram kechalari va h.k.

O'zaro qo'llab-quvvatlash guruhi odatda bir qancha oilada muhokama uchun umumiy mavzu vujudga kelganda tuziladi. Aksariyat hollarda yo'l-yo'riq beruvchi yig'ilishda bir qancha ota-onalarda qaysidir mavzuga alohida qiziqish paydo bo'lib, o'sha mavzu bo'yicha yanada ko'proq axborot olishga intilish ortadi. Umumiy muammolarga ega bo'lgan oilalar tajriba va mulohaza almashgan holda birlashishlari va bir-birlarini qo'llab- quvvatlashlari mumkin. Qo'llab-quvvatlash guruhi faqat otalardan yoki onalardan yoki bo'lmasa yakka

holdagi ota-onalardan tuzilishi mumkin; rivojlanishda orqada qolgan bolalarning ota-onalar guruhi yoki bo'lmasa bolalarni asrab olgan ota-onalar guruhi ham paydo bo'lishi mumkin. Ota-onalar oilaviy xonada urashganlarida va o'z muammolarini muhokama qilganlarida norasmiy o'zaro qo'llab-quvvatlashning bir talay imkoniyatlari mavjudligi ko'zga tashlanib qoladi. Muvofiqlashtiruvchi ular uchun joy va sharoitni tashkil etgan holda bunday aloqani har tomonlama rag'batlantirishi lozim. Mahoratli pedagog tomonidan bolalar bog'chasi hayotiga erkaklarni ham jalb qilish, har bir bola ularning ham ardog'ida bo'lishini ta'minlash uchun butun kuch-g'ayratni ishga solish lozim. Ba'zan kun tartibi yoki birinchi uchrashuv onalar bilan bo'lgani sabab erkaklar bu ishdan chetda qolib ketadilar. Otalarni MTT bilan hamkorlikka jalb qilish taklifi olg'a surilayotgan ekan, buning uchun bolaning yaqinlari sirasidan bo'lgan erkaklarga mo'ljallangan maxsus tadbirlarni rejalashtirish kerak.

Barcha bolalarni otalari uchun tashkil etilgan tadbirga taklif qilish mumkin. Otalarning MTTdagi pedagogik jarayonlarga qay tarzda ishtirok etishlarini aniqlashtirish, ya'ni ular balkim, ustachilik qilishni, ovqat tayyorlashni biladilar yoki san'atdan mashg'ulot o'tkazish uchun xonani jihozlashga yordam berishlari mumkin. Mahoratli tarbiyachi bir-birlarini ma'naviy jihatdan qo'llab- quvvatlashlari uchun ikki nafar otani guruhga yoki yig'ilishga birgalikda kelishga taklif etadi, otalar bir-birlari bilan uchrashishlari va o'z bolalari to'g'risida fikr almashishlari uchun tadbir tashkil etadi. Oila bilan hamkorlik to'g'ri yo'lga qo'yilgan MTTlarda erkaklar uchun maxsus mashg'ulotlar tashkil etiladi. Bu mashg'ulotlarda tinglovchilar o'zlarini dadil his etadilar, otalarga o'z farzandlari bilan vaqtni qanday qilib qiziqarli o'tkazish mumkinligi haqida maslahatlar beriladi. Ota-onalar uchun quvnoq kechalar tashkil etiladi, va unga onalar ham, otalar ham taklif qilinadi. Ota-onalar yig'ilishlari uchun mavzularni tanlashda ularga quyidagi ro'yxat taqdim etilishi mumkin:

- bolaning o'sishi va rivojlanishi;
- qiyin xulq-atvorni qanday tuzatish mumkin; - bolaning ovqatlanishi;
- bolalar kasalliklari;
- o'yin orqali o'rgatish;
- shaxsiy qadr-qimmat hissini rivojlantirish; - nutqni rivojlantirish;
- o'yinchoqlarni tanlash va h.k.

So'rov varaqasi bilan ishlash chog'ida ko'rsatilgan seminar mashg'ulotlari mazmunini batafsilroq ochib berish talab etiladi. Masalan: ―Bolalarning xulq-atvorini shakllantirish metodlari‖ mavzuidagi seminarda



sizning bolangiz sizga ―yo'q‖ deb gapirsa yoki, misol uchun o'z tengdoshlari bilan yoqalashsa, unda qanday harakat qilish lozimligi kabi masalalar muhokama qilinadi. ―Bolaning ovqatlanishi‖ - bu seminarda muhokama mavzui 3-5 yoshdagi boalarning ovqatlanishini tashkil etishga talab va bu yoshdagi bolalar qanday ovqatlarni xush ko'rishi masalasiga qaratiladi. SHuni yodda tutish kerakki, mazmun qanchalik aniq ifodalangan bo'lsa, ota-onalar mazkur tadbir o'zlarini qiziqtiradimi, degan savolni oson hal etadilar va bu narsa ularning muhokamaga qatnashish ehtimolini oshiradi. Ota-onalar odatda ko'proq band bo'ladilar. Ularning ko'pchiligida qulay vaqtni aniqlab, shunga mos xolda hamda tezda o'zgartirish mumkin bo'lgan tarzda jadvallar tuzish zarurdir. Agar MTTda yig'ilish qulay vaqtda, yaxshi va zerikarli bo'lmay tashkil etilsa, ota-onalar yoki bolaning yaqinlari albatta keladilar.

Maktabgacha yosh bolaning bilish jarayoni xususiy amaliy yo'l bilan yuzaga keladi. Har bir bola kichik tadqiqotchi. U faollikni ko'radi, bola faoliyati qanchalik to'la va turli - tuman bo'lsa uning rivojlanishi shunchalik oson kechadi. SHuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolaning eng keng tarqalgan faoliyatlari - o'yin, kattalar va tengdoshlari bilan muloqat, predmetli, tasviriy, badiiy teatrlashgan faoliyat, mehnat jarayoniga dasturda katta o'rin berilgan. Aynan shu faoliyatlar jarayonida bolaning aqliy taraqqiyoti, hissiy- shaxsiy rivoji yuz beradi, ahloqidagi ehtiyotlik, mantiqiy tafakkur o'z - o'zini nazorat qilish, ijodiy tasavvur kabi hislatlar tarkib topadi. Tarbiyachining asosiy vazifasi bolalar kundalik hayotini qiziqarli ishlar, muammolar, g'oyalar bilan to'ldirish, har bir bolani mazmunli faoliyatga jalb etish, qiziqish, hayotiy faoliyatlarini qondirishidan iborat. Bolalar faoliyatini tashkil etar ekan, tarbiyachi har bir bolada tashabbuskorlikka intilish, turli hayotiy muammolardan to'g'ri yo'l topib chiqib keta olishga intilishini tarkib toptiradi.

Ota-onalar va MTT mutaxassislari foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni olish uchun. Kuzatish bolalarni, ularning qiziqishlari, yutuqlari, muloqot va o'zaro aloqa ko'nikmalarini, muammolarini, alohida ehtiyojlarini tushunishni hamda xulosalarning asosliligini ta'minlashga yordam beradi.

Pedagoglar ota-onalar bilan ishlash jarayonida oilaga bolalar, ularning kuchli va zaif tomonlari, alohida ehtiyojlari haqida ko'pr oq bilishga ko'maklashadi. Bunday ma'lumot almashuv chinakam hamkorlik muhitini vujudga keltiradi.

<u>Oilalar bilan hamkorlik ishlarini olib borish</u>

Bola rivojlanishining dastlabki bosqichlarida oilaning tutgan o'rni

beqiyosdir. Bolalar oilada tarbiyalanadi va unda yuz beradigan voqealar ularga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Kichkina bolalar oilaga juda bog'lanib qolgan bo'ladi, chunki oila:

- Ularning jismoniy jihatdan barkamol bo'lishini, ovqat, kiyim-kechak, uy-joy bilan ta'minlaydi, sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qiladi;

- Ularning hissiy bardamligini, jumladan, mehr ko'rsatadi, qo'llab-quvvatlaydi, nimaning yaxshiligi, nimaning yomonligini doimo eslatib turadi

- Ularning rivojlanishi shart-sharoitlarini ta'minlaydi.

Pedagoglar bolaning dastlabki tabiyachisi sifatida oilaning yetakchi rolini tan olishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Qisqa muddatli guruhga kelgunga qadar oila bolaga madaniyatni, muhim va eng zarur ko'nikmalarni singdirishga ulguradi. Bolani maktabga tayyorlash bola va oila o'rtasida shakllangan ana shu dastlabki munosabatlarga tayangan holda ota-onalarga qisqa muddatli guruhlar faoliyatining barcha jabhalarida ishtirok etishga imkon beradi.

Oilalarni jalb etish maktabga tayyorlash bo'yicha qisqa muddatli guruhlarda bolalarning bilim olish faoliyatini boyitishda, bola qiziqishlari va uydagi ta'lim-tarbiya natijalaridan foydalanishda muhim o'rin egallaydi. Bolalarning muvaffaqiyatli rivojlanishi va bilim olishida ikki ta'lim muhiti - uy va qisqa muddatli guruhlarning bir-biri bilan bahamjihatligi g'oyat muhimdir.

Oilalarda bolalarni maktabga tayyorlash ishlari turlicha olib boriladi. Ba'zi oilalarda bolalar bilan ko'p shug'ullanilsa ham, bu asosan o'quv mashg'ulotlaridir -husnixat yozuvi, alifbe o'rgatish, turli adabiyotlar o'qib berish bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ayniqsa muhim bo'lgan syujetli o'yinlar, harakat faolligi, tasviriy faoliyatga oid ishlar bilan shug'ullanmaydilar. Boshqa oilalarda bolani o'yinchoqlar va televizor bilan yakkama-yakka qoldirib, bu unga yoqadi va rivojlanishi uchun yetarli bilim beradi deb hisoblashadi. Natijada ayrim hollarda qisqa muddatli guruhlarga rivojlanishida muayyan muammolari, mustaqil faoliyatni yetarli darajada amalga oshira olmaydigan, maqsadga erishish uchun irodasi bo'sh, o'zaro hurmat, umumqabul qilingan me'yor va qoidalar asosida boshqalar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil eta olmaydigan bolalar qabul qilinadi. Bundan tashqari, ayrim bolalarda sensor ko'nikmalari, tasavvurlarining rivojlanmagani, hissiyot olamining qashshoqligi kuzatiladi. Uydagi ta'lim-tarbiyaning turli-tuman sharoitlari ta'sirida bolalar rivojlanishining alohida sohalari bo'yicha erishilgan natijalarning harxilligini qayd etish muhim. Qisqa muddatli guruhlarga kelayotgan bolalarga xos ana shu xususiyatlarni ta'lim jarayonida albatta



e'tiborga olish, ularni ota-onalar xohishiga binoan aqliy rivolashtirishga emas, balki umumrivojlantiruvchi vazifalarni hal etishga, bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga yo'naltirgan ma'qul.

Ijtimoiy-psixologik muhofaza, bola yutuqlarining muvaffaqiyati unga kim va qanday ta'sir etayotganiga bog'liq. Vaqtining katta qismini bola MTT va uyda o'tkazadi, shuning uchun pedagoglar va ota-onalarning ta'siri bir-biriga zid bo'lmasligi, aksincha, bola tomonidan ijobiy va faol qabul qilinishi kerak. Bunga pedagoglar va ota-onalar hamkor va hamfikr bo'lib, tarbiyaviy muammolarni bahamjihatlik bilan hal etish orqaligina erishish mumkin.

Pedagoglar ta'lim jarayonini tashkil etishda va bevosita pedagogik jarayonning o'ziga ota-onalarni jalb etishni, ularga bolalar bilan rivojlantiruvchi o'zaro aloqalar shakllarni o'rgatish, bolalarning ta'lim- tarbiyasiga doir metodik yordam berishni nazarda tutadigan oilalar bilan ijtimoiy-pedagogik ishlarning ahamiyatga katta e'tibor berishlari lozim.

Samarali faoliyat yuritish va oilani MTT ishiga jalb etish uchun pedagoglar o'zlari tarbiyalayotgan bolalarning birlamchi vazifalarini bilishlari, ularning oilasi va yaqin qarindoshlari haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishlari lozim. QMGga qatnayotgan bolalarning ota-onalari bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish uchun MTT xodimlariga quyidagi faoliyat yo'nalishlarini tavsiya etish mumkin:

1. Ota-onalarda MTT xodimlari bilan hamkorlik qilishga intilishni shakllantirish.

2. Bolalaning imkoniyatlari, talab-ehtiyojlari va qiziqishlarni baholashda, uning MTT kirishiga ko'maklashish.

3. Ota-onalarning pedagogik kompetentligini oshirish ota-onalarga uyda bola bilan mashg'ulot o'tkazish uchun zarur bo'lgan metodik usullarni o'rgatish; ota-onalarga bola shaxsini rivojlantirish uchun xizmat qiladigan maxsus tarbiya usullarini o'rgatish. Ota-onalarning MTT faoliyatiga jalb etilishi bolalarga ham, ota- onalarga ham, MTT ham foyda keltiradi. Muloqot, o'zaro hurmat, turfaxillikni, bola manfaatlarining muhimligini e'tirof etish samarali hamkorlikka asos bo'lib xizmat qiladi. Samarali hamkorlik shakllantirilishi uchun pedagoglar va ota-onalar o'zlarida yangi ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishlari kerak.

## Таълим жараёнига ота-оналарни жалб этиш

- Ота-оналарни жалб этишнинг асосини кўнгиллилик ташкил этади.
- У қуйидагилар орқали таъминланади:
- Уларнинг истеъдод, қизиқиш, имкониятларини сўровномалар орқали аниқлаш.
- Ота-оналарни таълим жараёнига қуйидагилар сифатида жалб этиш мумкин:

хавф гуруҳидаги болалар учун менторлар

марказлардаги иш пайтида мураббийлар

лойиҳани ташкил қилишда педагогларнинг ёрдамчилари

- Педагог томонидан кўнгилли ота-оналар учун махсус тренинг ўтказиш
- Педагогик маълумотга эга бўлган ота-оналардан мутахассислар гуруҳини ташкил қилиш
- [illegible] ҳамда муассаса ҳаётидаги махсус воқеаларни ўтказишни ташкил қилишда ота-оналардан фойдаланиш

## Ота-оналар манфаатларини очиш

- Сўровномалар
- Болалардан олинган маълумотлар
- Нoформал учрашувларда олинган маълумотлар
- «Ёрдам қўли», «Имкониятлар занжирчаси» усуллари орқали олинган маълумотлар



## Ота - оналар билан ишлашнинг шакллари

- Оила хонаси жиҳозлаш
- Ота - оналар мажлисини уюштириш
- Доира шаклидаги стол атрофида мулоқот олиб бориш
- Тематик байрамлар ўтказиш
- Табиатга чиқиш ёки экскурсиялар ташкил этиш
- Устахонада ишни олиб боришга одатлантириш
- Интеллектуал, ривожлантирувчи ўйинлар ўтказиш «Мўъжизалар майдони», «Нима? Қачон? Қаерда?» ва ҳ.
- Ақлий (ишбилармонлар) ўйинларни ташкил этиш
- Ёш оилаларни қўллаб-қувватлаш марказини яратиш
- Имитацион ва ролли ўйинларни ўйнаш, биргаликда ўқиш ва эртаклар оламига саёҳат уюштириш
- Ижтимоий-психологик тренинглар, мулоқотлар олиб бориш
- Болалар ва оила ижоди намуналарини намоён этувчи кургазмалар ва фестиваллар уюштириш
- Ота – оналар учун тренинглар, очиқ эшиклар куни , спартакиада шанбаликлар ва бошқа тадбирларни уюштириш

## Ота-оналар мажлиси

- Шахсий таклифномалар жўнатиш
- Ота-оналарга фарзандлари ҳақидаги маълумотларни бериш
- Ўйинлар, ҳангомалар билан мажлисни жонлаштириш
- Кичик гуруҳларга бўлиб фаоллаштириш.
- “Мажлисни баҳолаш” варақларидан фойдаланиш

## ОТА-ОНАЛАР БИЛАН ҲАМКОРЛИК

**Оилалар билан мулоқот стратегияси. Норасмий мулоқат стратегияси**

- Келиш ва кетиш пайтида ота-оналарга кун воқеалари, боланинг ютуқлари, кутилаётган йиғилишлар ва бошқа воқеалар ҳақида эслатиб қўйишлари мумкин.
- ***Дафтарлар ва ёзувлар*** Бола орқали ота-оналарга хат етказиш орқали ҳам сиз оила ва педагогик жамоанинг ўзаро яқинлашувига кўмаклашасиз. Унда боланинг янги ютуқлари ҳақидаги мухтасар хабар ёки дастурнинг амалга оширилишига кўрсатган ёрдами учун ота-оналарга миннатдорчик билдирилиши мумкин
- ***Эълонлар тахтаси.*** Эълонлар тахтаси – ота-оналарга маълумот етказишнинг яна бир усулидир

**Қандай қилиб ота-оналарни ўз ҳаммаслакларига айлантириш мумкин**

- Уларни дастур қандай иш олиб бораётгани ҳамда улардан қандай иш турлари кутилаётгани (мактабгача таълим муассасаси нима «сўраётгани») ҳақидаги аниқ маълумотлар билан таъминлаш
- Гуруҳ иш фаолиятига ота-оналарни жалб этиш жараёнини (механизм) ташкил қилиш
- Ота-оналарга гуруҳдан айнан нима кутишлари мумкинлиги ҳақида аниқ маълумотни тақдим қилиш
- Доимо савол бериш имкониятини яратиш ҳамда уларга жавоб бериш
- «Жонли» мулоқот технологиясидан кўпроқ фойдаланиш
- Мактабгача таълим муассасасида болалар қандай ривожланаётгани ҳамда ота-оналарнинг ўзлари қай тарзда иштирок этаётганлари ҳақида уларнинг фикрларини доимо ўрганиш
- Таълим муассасасининг муаммоларини муҳокама қилиш, дискуссия ва таҳлил этиш учун ота-оналарнинг турли форумларини уюштириш

**Mavzu yuzasidan topshiriq**

Blits-so_rovl metodi asosida quyidagi savollariga javob qaytaring:

1.Ota- onalar bilan ishlash shakllarni sanab bering?

2. Ota -onalarning majburiyati nimalardan iborat?

3. MTTda ota- onalar uchun nimalar bo'lishi kerak?



4. Ota -onalar yiig'lishini tashkil etish yo'nalishlarini sanab bering?

**Mavzu yuzasidan topshiriq T- jadvali asosida MTT va oilada kun tartibining bola tarbiyasidagi ahamiyatini yoriting.**

## KEYSLAR BANKI

**1 Keys bayoni**

Bolalar bogchasidagi rasm darsida tarbiyachi yozuv taxtasiga ikkita rasm chizib, bolalardan rasmning qay biri ularga yoqqanini so_radi. Bolalar rasmlar xaqidagi fikrlarini ketma-ket ifodalay boshlashdi. Navbat Boburga (4 yosh) kelganda, u ikkilanib qoldi. Tarbiyachi: - Vaqtimiz kam. Agar u senda bo_lsa, miyangni ishlatginda, tezrod javob ber! Bobur javob bera olmadi. Tarbiyachi unga —O_tir o_rningga!l, dedi va mashg_ulotni davom etgirdi. Bolalardan biri: —Voy, bilmasvoyl, -dedi.

**Keysga savol-vazifa:** Tarbiyachining xatti-harakatlarini baholang.

**Tahlil:** psixologik xarakteriga ko_ra ayrim bolalar tezkor fikrlay olmaydi yoki biror bir narsaga baho berishga ikkilanadi. Tarbiyachi bolalarning xarakterini yaxshi bilmaydi, yoki bilsa ham uning muomalasi

qo_rs qo_pol. Bunday tarbiyachining xatti- harakatlari bolalarga salbiy ta'sir ko_rsatadi.O_qituvchining yechimi. Bolani tengdoshlari oldida kulgiga qo_yish pedagogik jihatdan noto_g_ri. Fikrlash tezligi sust bo_lgan bolani kulgiga

qo_yish, kamsitish bolaning umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Bunday xolat tez-tez takrorlansa, u holda bolada tarbiyachiga nisbatan nafrat

hissini uyg_otadi. Bunday tarbiyachi bolalar orasida do_stona, sog_lom muhitni yarata olmaydi.

**2.Keys bayoni**

Katta guruhda bayram munosabati bilan uyushtiriladigan tadbirda tarbiyachi Botirdan o_ziga berilgan she'rni o_qishni so_radi. Botir she'rni tutilib o_qidi. To_g_ri o_qishga qanchalik harakat qilmasin, ifodali o_qiy

olmadi. Tarbiyachi biroz kutib turdi va Botirga —She'rni yod olmabsan! Senga qachon bergan edim. Ertaga oying bilan gaplashaman! Sening ta'ziringni berishim kerakka o_xshaydil, - dedi. O_rtoklari kulib yuborishdi.

Keysga savol-topshiriq: Tarbiyachi Botirni o_rinli koyidimi? Tahlil. She'rni yod olgan bo_lsa-da, ayni vaqtdagi ruhiy xolati

tufayli bolalar ba'zan uni yoddan chiqarishadi. Tarbiyachi ana shu vaziyatni

inobatga olgani holda Botirga yana bir kun tayyorgarlik ko_rib kelishini, ertaga albatta, ifodali o_qib berasan!I, deya ruxlantira olishi zarur. Balki Botirning nutqida duduqlanish bordir. Agar shunday bo_lsa, tarbiyachi buni bilishi va bunday vaziyatda bolaga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo_lishi zarur edi. Botirning o_zi faol, birok, kamchiligi tufayli o_zini to_la namoyon eta olmaydi.

O'qituvchining yechimi: Tarbiyachi baland ovozda bolani koyishi, unta do'q-po'pisa qilishi mumkin emas. Ayniksa, gap tutilib (duduqlanib) gapiradigan tarbiyachilar haqida borganda. Bo_lsama, Botirning o_ziga bo_lgan ishonchi so_nadi, faolligi pasayadi va odamovi bo_lib qoladi.

**3-Keys bayoni**

Abdusamad (3 yosh) doimo onasiga suykalib qo_lidan tutishini, quchishini istaydi. Agar onasining oldiga birov kelsa, uni itarib yuboradi va baqirib yig_laydi.

Keysga savol-vazifa: Sizning harakatlaringiz qanday bo_ladi? Tahlil: ba'zi bolalar melanxolik temperamentga ega bo'lib, atrofdagilarning himoyasiga muxtoj bo_lishadi, uni yaxshi ko_rishlarini, o_ziga mehr berishlarini istaydi. Tarbiyaning to_g_ri tashkil etilishi ulardagi bu holatning barxam topishini ta'minlaydi.

O;qituvchining yechimi: ona farzandini koyimagan holda asta- sekin uni ham boshqalarni ham birdek yaxshi ko_rishini, uni silab – siypalab qo'yishnini, biroq, bu ishni faqatgina kechqurun uyquga yotishdan avval va uyqudan uyg_otish vaqtidagina amalga oshira olishini tushuntirib borishi lozim.

**4-Keys bayoni**

Ikki yosh ona ko_chada bolalar bog_chasiga qatnaydigan o_z qizlarining xulq-atvorlari haqida bir-birlari bilan o_rtoqlashmokda: —Mening qizim osuda faol, mustaqil o_syaptimi, demak, xozirdan uni sport, musiqa, raqs to'garaklariga berishim, deb uylaymanl, ikkinchi ona: —Mening qizim xali ham bola. Katta bo_lgandan keyin xamma narsani o_zi sekin-asta qilishga o_rganadil. Keysga savol-vazifa: Har ikkala onaning o_z qizlari tarbiyasiga yondashuvini taqqoslang.

Ko'rsatma: Ushbu muammoni hal etish uchun tarbiyaning turli usullarini tahlil va bolaning faolligi hamda uning mustaqil bo_lishining ahamiyati haqida xulosa qilish zarur.

Manba: O_zbekiston Respublikasida —Davlat maktabgacha Talim muassasasi to_g_risidalgi Nizom, —Maktabgacha ta'lim —Bolajonl tayanch dasturi, —Maktabgacha ta'lim pedagogikasil, —Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash metodikasil.

O'qituvchining yechimi. Har ikkala ona ham nohak. Birinchi ona vaziyatida, faol bolalarga ko_p darajada mustaqillik xos. Ona shunga muljal olyapti, shuningdek, bunday bolalardan kattalardan so_ralgandek so_rash kerak deb, fikr



qilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar bolaligicha qoladi, ulardagi xis-tuyg_uning erkin rivojlanishi tengdoshlarinikidek ekanligi ma'lum-ku, axir Oshirib yuborilgan talablar bolalar tomonidan har doim ham bajarilavermaydi. Birinchi o_rinda shaxsiy qiziqish qoladi. Bolaning rivojlanishini faollik va qiziquvchanlik oldinga tomon harakatlantiradi. Onalarning bunday gaplari o_z bolalari bilan turlicha usulda muloqot qilishliridan guvoxlik beradi. Bir xolatda, qiz xis-tuyg_ulik, iliqlikni sezmasligi mumkin, buning oqibatida uni —qulflanganlik" yoki befarqlik, balki qandaydir qo_pollik tomonga harakatlanishiga olib keladi. Boshqa xolatda esa bolada mustaqillik, mas'uliyatlik rivojlanmaydi.

**5-Keys bayoni**

Bolalar bog_chasining o_rta guruhiga shu kunga qadar bolalar bog'chasiga qatnamagan 4 yoshli Anvar qabul qilindi. Anvar mashinachasini o_ynab bo_lgandan keyin uni xona o_rtasida qoldirib ketdi.

Keysga savol-vazifa: Ushbu vaziyatda tarbiyachi qanday yo'l tutishi kerak? Manba: —Maktabgacha ta'lim pedagogikasil, —Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash metodikasil.

O_qituvchi yechimi: Bunday vaziyatda tarbiyasi bolaning bog'chada yangiligini inobatga olishi zarur. U xozircha bolalar bog_chasining tartibqoidalarini bilmaydi. Buning ustiga, uning bezovtalanishini ham inobatga olish darkor. Tarbiyachi Anvarga asta- sekin tushunarli qilib, bolalar bog_chasidagi tartib-qoida haqida gapirib berishi lozim, sungra ochik ko_ngillik: —Kel, sen bilan mashinachani turadigan joyi, ya'ni uning garajiga olib borib qo_yamiz", deyishi kerak. Shunda bola xohish bilan tarbiyachi, qo_ygan talabni amalga oshiradi.

**6-Keys bayoni**

Bog_cha bolalari ota-onalarini bolalar maydonchasida kutib oladilar.

Ota-onalarini kelgunlariga qadar bolalar —quvlashmachoql o_ynashadi. Shoxrux va Muxlisa yugurish mobaynida to'qnashib, ketib, bir-birlariga urilib ketishdi. Muxlisa yig_lab tarbiyachi oldiga keladi va Shoxrux uni itarib yuborganini aytadi.

**Keysga savol-vazifa:**

1- variant. Bolalarga avvaldan o_yin qoidalarini, shuningdek, o_yin mobaynida rioya etiladigan xavfsizlik qoidalarini tushuntirish lozim. Yugurayotgan bolalar oldilariga qarab yugurishlari va boshqa bolalar bilan to_qnashib ketmasliklari ulardan o_zlarini olib qochishlarini aytish kerak. 2- variant. Agar to_qnashuv sodir bo_lgan bo_lsa, aybni boshqaga to_nkash kerak emas. Ikkalangiz aybdorsiz, chunki oldingizga qaramagansiz, deb o_yinini to_xtashishi va bolalarni do_stlashishishga undash lozim.

3- Variant.Bu holat qanday sodir bo_lganligini aniqlash uchun o_ynayotgan boshqa bolalarga murojaat qilish lozim. Bolalarni tinchlantirish va yupatish, so_ngra yugurish mobaynida rioya etiladigan o_yin xavfsizligini eslatish lozim. Bu vaziyatda qaysi javob varianti to_g_ri.

Manba: O_zbekiston Respublikasida "Davlat maktabgacha Talim muassasasi to_g_risidalgi Nizom, —Maktabgacha ta'lim —Bolajonl tayanch dasturi, —Maktabgacha ta'lim pedagogikasil, —Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash metodikasil.

O'qituvchining yechimi: 2-variant. Agar to_qnashuv sodir bo_lgan bo_lsa, aybni boshqaga to_nkash kerak emas. Ikkalangiz aybdorsiz, chunki oldingizga qaramagansiz, deb o_yinini to_xtashishi va bolalarni do_stlashishishga unday lozim.

**Mustaqil ta'lim.**

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- me'yoriy xujjatlardan, o_quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o_rganish;
- tarqatma materiallar bo_yicha ma'ruzalar qismini o_zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o_rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo_yicha modul bo_limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

-tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog_liq bo_lgan modul bo_limlari va mavzularni chuqur o_rganish.

1.Pedogagik tehnologiyalar mohiyani ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati va qo'llanishi.

2. Xukumatimiz tomonida bolala sportin rivojlantirishga qaratailgan g'am-xo'rliklar.

3. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni mehnat tarbiyasi. Bolalarni jamoa bo_lib mehnat qilishi. Xalq og_zaki ijodida mehnatsevarlik tarbiyasi.

4 Qisqa muddatli maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish.

5 Faoliyatlarni haftalar bo_yicha taqsimlash.

6 Ush yoshdan etti yoshgacha bo`lgan bolalarni jismoniy tarbiyalash.

7 Har bir yosh guruhi uchun faoliyat asosida mashg`ulot ishlanmasi tuzish.

8 Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni mehnat tarbiyasi.Bolalarni jamoa bo`lib mehnat qilishi.

9 Bolalar huquqlarini himoya qilish konvensiyasilni o`rganish.

10 Bolalarni oilada,MTTda tejamkorlikka o`rgatish .



**GLOSSARIY Sharhi**

bu bolalarni o'qitish va rivojlantirish integrallashgan jaraènidir: bola rivojlanishining har bir sohasi uning boshqa sohalari bilan uzviy bog'liq. Ta'lim-

tarbiya ishlarini rejalashtirishda ularni bir-biridan ajratmaslik, bir butun majmua sifatida qarash lozim. SHu ma'noda turli sohalardagi ta'lim jaraèni o'zaro bog'liq va bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan jaraèndir

bu faoliyat mazmuni, turlari hamda kutilaètgan natijalarga erishish imkoniyatlarini (resurslarni) belgilab olish uchun pedagog tomonidan qo'llanadigan vosita, usul va uslublar

bola ishlaètgan èki o'ynaètgan paytda uning faoliyatiga aralashmagan holda kuzatish jaraèni

biror texnologiyani mutaxassisi

bu bilimga erishish usuli, olimning ma'lum tarzda

tartibga solingan, ongli va izchil faoliyatidir.

Axborotni yig'ish, saqlash, uzatish, o'zgartirish, qayta

ishlash usul va vositalari yig'indisidan iborat

Axborot resursi 1. Axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi. (Qonun) 2.Alohida hujjatlar va hujjatlar massivlari, axborot tizimlaridagi (kutubxona, arxiv, jamg'arma va ma'lumotlar banklari, boshqa axborot tizimlari) hujjatlar va hujjatlar massivlari.

3.Axborot tizimlaridagi (kutubxona, arxiv, jamg'arma va ma'lumotlar banklari hamda depozitariy, muzey va boshqalar) hujjatlar va hujjatlar massivlari.

4.Ma'lumotlar va bilimlar bazalari, axborot tizimlaridagi boshqa axborot massivlarini o'z ichiga

**Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv** – pedagogning butun diqqat-e'tiborini bola shaxsining yaxlitligiga qaratishni, uning nafaqat aql-zakovati, fuqarolik mas'uliyati hissi, balki emotsional, estetik, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish haqida g'amxo'rlik qilishga yo'naltiradigan yondashuv.

**Individual yondashuv** – ta'lim beruvchining guruhdagi har bir bolaning faol harakat va dam olish paytida barcha ehtiyojlarini e'tiborga olish zarurligini anglatadi. Bu guruhdagi barcha material va jihozlar, umuman o'qitish muhiti har bir bolaning rivojlanishiga xizmat qilishini hamda mo'ljallanayotgan faoliyat turlari bolalar rivojlanishidagi farqni e'tiborga olinishini bildiradi.

**Ta'limning rivojlantiruvchi muhiti** – bola rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar (o'yinlar, o'yin predmetlari va jihozlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, bolalarning turli faoliyat turlari bilan shug'ullanishi uchun mo'ljallangan uskunalar) o'zaro bog'liqligini belgilab beradigan hal qiluvchi

ko'rsatkichlar.

**Integrallashgan rejalashtirish** – bu bolalarni o'qitish va rivojlantirish integrallashgan jarayonidir: bola rivojlanishining har bir sohasi uning boshqa sohalari bilan uzviy bog'liq. Ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishda ularni bir-biridan ajratmaslik, bir butun majmua sifatida qarash lozim. SHu ma'noda turli sohalardagi ta'lim jarayoni o'zaro bog'liq va bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan jarayondir.

**Rejalashtirish vositalari** – bu faoliyat mazmuni, turlari hamda kutilayotgan natijalarga erishish imkoniyatlarini (resurslarni) belgilab olish uchun pedagog tomonidan qo'llanadigan vosita, usul va uslublar.

**Kuzatuv** – bola ishlayotgan yoki o'ynayotgan paytda uning faoliyatiga aralashmagan holda kuzatish jarayoni.

**Qayd etish** – bu bolalar faolligini kuzatish asosida hujjatlashtirish. Aksariyat pedagoglar tomonidan tabiiy ravishda amalga oshiriladigan bu ishga bolalarni tizimli (muntazam) kuzatish asosida yondashishni joriy etish ular haqida to'liq ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi.

**Rivojlanish sohasi** — bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalishlar. Davlat talablari bolaning quyidagi rivojlanish sohalari bo'yicha belgilanadi: jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari, bilish jarayonini rivojlanishi, ijodiy rivojlanish. Ushbu beshta asosiy rivojlanish sohasi kichik sohalarga bo'linadi

**Bola kompetentsiyasi** — ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo'lgan bolaning bilimi, ko'nikmasi va malakalari hamda qadriyatlari;

**Bolaning rivojlanish ko'rsatkichlari xaritasi**—bolaning rivojlanishida kutiladigan natijalarni(yutuqlari) qayd etish xaritasi;

**Integratsiya** — bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlik;

**Inklyuziv ta'lim** — bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon;

**«Men» kontseptsiyasi** — bolani o'zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatini bir qismi;

**Refleksiv faoliyat** — bolada o'z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi jarayoni.



**Asosiy adabiyotlar:**


1. F. R. Qodirova, SH.Q.Tjshpo'latova. N.M.Kayumova. M.N.A'zamova —Maktabgacha pedagogikal 2019yil.
2. Xasanboeva.O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
3. Sh.A.Sodiqova —Maktabgacha pedagogikal. —Tafakkur sarchashmalaril T:. 2013
4. N.M.Kayumova —Maktabgacha pedagogikal. —TDPUl nashriyoti T:. 2013y.
5. Sh.Shodmonova. Maktabgacha ta`lim pedagogikasi, fan va texnologiya. T.2008y


**Qo'shimcha adabiyotlar:**


6. SH.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent —O'zbekistonl – 2017 y
7. SH.M.Mirziyoev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. —O'zbekistonl NMIU, 2016 y.
8. SH.M.Mirziyoev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi.—O'zbekistonl NMIU,2016y.
9. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston
10. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi.T.O`qituvchi.1993y.


**Axborot manbalari:**


1. www.cspi.uz
2. www.pedagog.uz 3. www.ziyonet.uz 4. www.edu.uz
5. www.tdpu.uz

M.A.Ismanova

# MAKTABGACHA TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA RAHBARNING O'RNI

O`quv qo`llanma


| | |
|---|---|
| Muharrir: | X. Taxirov |
| Tehnik muharrir: | S. Melikuziva |
| Musahhih: | M. Yunusova |
| Sahifalovchi: | A.Ziyamuhamedov |

**Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й**
Bichimi $60x84^{1}/_{16}$. "Times new roman" garniturasi, kegli 14.
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i. Adadi 100 dona.

**Book trade 2022 MCHJda chop etildi.**
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI



**QAYDLAR UCHUN**